К адъективной группе можно отнести *liquored up* и *liquored out* в значении «пьяный; выпивший» [4, 316]. Вышеуказанные конструкции были распространены на территории Великобритании в течении XIX века, однако затем вошли в повседневное общение в основном на территории США.

Данный процесс перехода из одного ареала в другой с изменением в темпоральных отрезках свидетельствует о возможности изменения употребления отдельных слов, сочетаний и выражений исходя из временного фактора распространения с изживанием на определённой территории.

К адвербальным относятся выражения, обозначающие признак действия или признак признака.

Ср.: *down the chute, down the drain, down the flush, down the pan, down the toilet* и *down the tubes* в значении «заброшенный (о местности), разрушенный (о сооружении), безнадежный (о ситуации)» [4, 149].

Ассоциативные параллели между не изменяющимся компонентом *down* – движения вниз – проецирует спад, прогнозирует отрицательную коннотацию. Скрытые ассоциации варьируемых компонентов – *желоб, канализация, смыв, поддон, унитаз* и *трубы* также выявляют соотнесённость семантики данных слов с отрицательными характеристиками.

Восклицания *in pig's arse, in pig's eyes, in your eyes* [4, 264] используются в негативном контексте для отражения несогласия, отказа и т.д. Два последних выражений (т.е. *in pig's eyes* и *in your eye*) демонстрируют альтернативные версии к *in pig's arse*. Однако в отличие от *in pig's arse* они представляют собой эвфемистические образования.

Различные выражения с варьируемым компонентом могут быть отнесены сразу к нескольким группам, в случае, если они употребляются в качестве нескольких частей речи. В лексикографических источниках эти сочетания и выражения отмечены несколькими грамматическими словарными пометами.

Ср.: Субстантивные и глагольные (*n* и *vb*): *dry-fuck, dry-hump* и *dry root* в значении «интимные отношения» [4, 156], Адъективные и адвербиальные (*adj* и *adv*): *all over the ballpark, lot, shop* и *show* [4, 7] и т.д.

Чаще вариацией в составе разговорных выражений подвергаются существительные и глаголы, однако в некоторых примерах отмечено изменение имён прилагательных, числительных, местоимений, служебных частей речи и т.д. Ср.:

Вариация предлогов: *get one's leg across* и *get one's leg over* в значении «преуспевать в интимной жизни» [4, 203]. В вышеприведённых выражениях производится вариация на уровне предлогов (*across* и *over*).

Вариация местоимений в британском глагольном вульгарном выражении: *get it one* и *get her one* в значении «заняться любовью с женщиной» [4, 207] (*Give her one for the boys → get it one u get her one*).

Ср. также: *drive the big bus, drive the great white bus* и *drive the porcelain bus* в значении «вырвать» [4, 153] и альтернативные варианты *kiss the porcelain god, kneel to the porcelain god*.

Изменение прилагательного в двух случаях строится на замене синонимических слов, обозначающих признак «большой» по размеру (*big, great*), а также вводом прилагательных, обозначающих цвет (*white*) и материал (*porcelain*).

Альтернативные варианты подобных выражений часто строятся с опорой на идентичные грамматические конструкции с включением различных лексических единиц, которые могут не совпадать между альтернативными выражениями, либо соотносится в какой-то степени в зависимости от количества идентичных лексем.

Альтернативные варианты *drive the porcelain bus* и *kiss the porcelain god* имеют общую синтаксическую структуру: глагол (в активном залоге) + определённый артикль (the) + имя прилагательное + имя существительное.

Другое альтернативное выражение *kneel to the porcelain god* имеет схожую грамматическую структуру с добавлением предлога (*to*). Со стороны семантики значение все выражения идентичны («вырвать») в рамках словарей T. Thorne «Dictionary of Modern Slang», «The Free Dictionary Online».

Однако лексический состав существенно различается в альтернативных выражениях (1. *drive the porcelain bus,* 2. *kiss the porcelain god* и 3. *kneel to the porcelain god*). Общей лексической единицей для всех выражений становится прилагательное *porcelain*, совпадение в выборе существительного *god* осуществляется на уровне только двух конструкций. В выборе глагольной составляющей не было выявлено совпадений.

Таблица 1

Грамматическая структура альтернативных конструкций и выражений с варьируемым составом

№	*Выражение*	*глагол*	*предлог*	*артикль*	*прилагательное*	*существительное*
1	*drive the big bus*	+	–	+	+	+
2	*drive the great white bus*	+	–	+	+ +	+
3	*drive the porcelain bus*	+	–	+	+	+
4	*kiss the porcelain god*	+	–	+	+	+
5	*kneel to the porcelain god*	+	+	+	+	+

Иқтибослар / Сноски / References

1. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // Язык и культура. – 2021. – С. 40-46. (Bushuj T.A. Kratkij ekskurs v sovremennuyu nemeckuyu leksikografiyu //Yazyk i kultura. – 2021. – S. 40-46.).

2. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10. (Bushuj T.A. Sovremennyj slovar kak produkt opredelennoj nauchnoj koncepcii //IQRO. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 10.).

3. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17. (Bushuy T. Kognitivnie osobennosti funksional'no-tematicheskix grupp argotizmov russkogo yazika //Tradisii i innovasii v issledovanii i prepodavanii yazikov. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 12-17.).

4. Торн Т. Словарь современного слэнга / Thorne T. Dictionary of Modern Slang. – М.: Вече, Персей, 1996. — 592 с. (Torn T. Slovar' sovremennogo slenga / Thorne T. Dictionary of Modern Slang. – M.: Veche, Persey, 1996. — 592 s.).

5. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199. (Faleeva A.V. Otrazhenie leksiko-semanticheskih osobennostej skrytogo smysla kollokvializmov-zoonimov v leksikograficheskih istochnikah // Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2021. – №. 9 (455). – S. 192-199.).

6. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136. (Faleeva A. V. Tematicheskaya differensiasiya kollokvializmov s implisitnim znacheniem v leksikograficheskix istochnikax //Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2022. – №. 7 (465). – S. 128-136.).

7. Фалеева А.В. Лексико-Семантические И Деривационные Особенности Коллоквиальных Акронимов И Бэкронимов В Современных Печатных И Электронных Лексикографических Источниках //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543. (Faleeva A.V. Leksiko-Semanticheskie I Derivasionnie Osobennosti Kollokvial'nix Akronimov I Bekronimov V Sovremennix Pechatnix I Elektronnix Leksikograficheskix Istochnikax //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 35. – S. 540-543.).

8. Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы //International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74. (Faleeva E.V. Neologicheskij bum v anglijskom yazyke: problemy i

perspektivy //International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – S. 70-74.).

9. Фалеева Е.В. Неологопроцессы Современного Английского Языка //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 39. – С. 88-92. (Faleeva Ye.V. Neologoprosessi Sovremennogo Angliyskogo Yazika //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 39. – S. 88-92.).

10. Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in english expressions //SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH. – 2015. – С. 81.

11. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613 (Bushuy, T., & Khayrullaev, K. Life of Word during Coronavirus. Evrazijskij zhurnal socialnyh nauk, filosofii i kultury, 2(8), 2022. – C. 19–28. URL: https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613).

12. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678

13. Faleeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

MUMINOVA AZIZA,
Doktorant (DSc)
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Samarqand, O'zbekiston
aziza-310187@mail.ru

NEMIS TILIDA O'TGAN ZAMON SHAKLLARINING QO'LLANISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis tilidagi o'tgan zamon shakllari (preterit, perfekt, pluskamperfekt)ning nafaqat adabiy tilda balki, nemis tilining turli lahjalarida, og'zaki nutqida, adabiyotshunoslikda, internet chat va bloglarida qo'llanishi borasidagi fikr-mulohazalar berilib, tahlil qilingan. Shuningdek, muallif mazkur zamon shakllarining kelib chiqish tarixiga ham to'xtalib o'tib, har bir o'tgan zamon shaklining qo'llanish holatlarini ham tahlil ostiga olgan. Maqolada, tilshunoslarning preterit, perfekt, pluskamperfekt zamon shakllari borasidagi ta'riflari, nuqtai nazarlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: fe'l, o'tgan zamon, preterit, perfekt, pluskamperfekt, tugallan-
gan/tugallanmagan, harakat, zamon shakli, konstruksiya, dialekt.

MUMINOVA AZIZA,
Doctoral student (DSc)
Samarkand State Institute of foreign languages,
Samarkand, Uzbekistan
aziza-310187@mail.ru

USAGE OF PAST TENSES IN THE GERMAN LANGUAGE

ABSTRACT

This article analyzes the use of past tense forms in the German language (preterite, perfect, pluskamperfect) not only in the literary language, but also in various dialects, spoken language, literary criticism, Internet chats and blogs. The author also touched on the history of the origin of these times and analyzed the use of each past tense. The article also discusses the definitions and points of view of linguists regarding the forms of preterite, perfect and pluskamperfect tense.

Keywords: verb, past tense, preterite, perfect, pluskamperfekt, perfect/imperfect, action, tense form, construction, dialect.

МУМИНОВА АЗИЗА,
Докторант (DSc)
Самаркандский государственный институт
иностранных языков,
Самарканд, Узбекистан
aziza-310187@mail.ru

УПОТРЕБЛЕНИЕ ПРОШЕДШИХ ВРЕМЕН В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ употребления форм прошедшего времени в немецком языке (претерит, перфект, плюскамперфект) не только в литературном языке, но и в различных диалектах, устной речи, литературоведении, интернет-чатах и блогах. Также автор затронул историю происхождения этих времен и проанализировал употребление каждого прошедшего времени. В статье также рассматриваются определения и точки зрения лингвистов относительно форм претерита, перфекта и плюскамперфекта.

Ключевые слова: глагол, прошедшее время, претерит, перфект, плюскамперфект, совершенное/несовершенное, действие, временная форма, конструкция, диалект.

Fe'l – so'z turkumi sifatida tilshunoslikda muhim o'rin tutib, u ilmiy tadqiqotlarning murakkab va serqirra obyekti sanaladi [Gerasimova, 2010: 483]. Hozirgi va kelasi zamondan farqli ravishda o'tgan zamonni o'rganish va lisoniy jihatdan tahlil qilishga bo'lgan qiziqish juda kattadir, chunki o'tgan zamonni ifodalovchi vositalarning o'zi xilma-xildir [Xisamova, 2008: 63]. Shu sababdan ham mazkur maqolada nemis tilidagi o'tgan zamon shakllari bo'lmish preterit, perfekt, pluskamperfektning qo'llanishiga oid qarashlarni ko'rib chiqamiz.

T. A. Maysakning fikricha, zamon shakllari o'zaro hosila shakllardir, ya'ni imperfekt prezensdan, pluskamperfekt esa perfektdan hosil bo'lgan [Maysak, 2016: 321]. Shu sababdan zamon shakllarini o'zaro qiyosan tadqiq qilish masala mohiyatini yanada chuqurroq yoritishga yordam beradi.

Rossiyada yashovchi nemislar lahjasini o'rgangan olim L. I. Moskalyuk bu lahja vakillari o'tgan zamondagi harakatni ifodalash uchun preterit, perfekt, ikkitali perfekt, pluskamperfekt, ikkitali pluskamperfekt, tun + asosiy fe'lning Infinitividan tashkil topgan konstruksiyalardan foydalanishini, ikkitali perfekt va pluskamperfekt hamda tun + asosiy fe'lning Infinitiv shaklidan hosil bo'lgan konstruksiya nemis adabiy tili zamon shakllari paradigmasiga xos emasligini qayd etadi [Moskalyuk, 2019: 67].

Qadimda preterit – davomiy, takroriy, bir martali, tugallangan va tugallanmagan harakatni ifodalash uchun qo‘llangan. Germaniyaning shimoliy dielektlari uchun preterit o‘tgan zamonni aks ettiruvchi asosiy shakl sanalgan. K. Lindgrenning kuzatuvlariga ko‘ra Germaniyaning janubiy hududlarida perfektning qo‘llanishi 90 foizni tashkil etsa, preterit 10 foizni tashkil qilgan. Shimoliy hududlarda esa buning aksi kuzatilib, preterit perfektga nisbatan ko‘proq iste’molda bo‘lgan [Lindgren, 1957]. Quyi nemis lahjalarida deyarli barcha hollarda, ya’ni adabiyotshunoslikda ham, og‘zaki nutqda ham preterit qo‘llangan. Lekin oxirgi o‘n yillikda preterit analitik shakllar tomonidan asta-sekinlik bilan iste’moldan chiqarilayotganligi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda quyi nemis lahjalarida *haben, sein, brauchen, werden* fe’llari, modal fe’llar va o‘z semantikasida muayyan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan chegaralangan fe’llar (*vergehen, kommen, geben, nehmen, bringen, kriegen, verdienen, sich verheiraten)* shuningdek, o‘z leksik semantikasida harakatning biror chegaraga yo‘nalganlik ma’nosiga ega bo‘lmagan chegaralanmagan fe’llar (*sprechen, meinen, wissen, bleiben, stehen, sitzen, liegen*) kabilar ham preterit bilan qo‘llanadi [Moskalyuk, 2019: 67-69]. Janubiy nemis dialektlarida preterit deyarli iste’molda emas, bu dialektda faqatgina *sein* hamda modal fe’llari preterit bilan qo‘llanadi. Qolgan holatlarda perfekt eng sermahsul qo‘llanuvchi o‘tgan zamon shakli sanaladi [Gebhardt, 1968: 125-295]. Perfekt – preteritga qaraganda ancha kech paydo bo‘lgan. Nemis tili perfekti avvalambor so‘zlovchining o‘tgan hamda hozirgi zamon o‘rtasidagi munosabatini ifodalash uchun qo‘llanib, shunga ko‘ra u rezultativlikni ham ifodalashi mumkin [Jespersen, 1958: 314]. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida aytib o‘tilgan nemis tili lahjalari va nemis adabiy tili o‘rtasida tafovutlar mavjud. Janubiy nemis dialektlarida XVI asrning boshlaridayoq perfekt preteritni siqib chiqara boshlagan. XVI asrning ikkinchi yarmida preterit iste’moldan umuman chiqib bo‘lgan edi [Shmunk, 1979: 116-188]. Janubiy hamda o‘rta nemis dialektlariga asoslangan lahjalarda perfekt – o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan harakatni voqelantiruvchi asosiy shakl sanaladi. Perfekt – harakatning tugallanganlik va rezultativlik ma’nosini nafaqat adabiy tilda shuningdek, turli lahjalarda ham ifodalaydi: *Ich hap noch net so viil vatiint, wi ich jetzt kriik “Ich habe noch nicht so viel verdient, wie ich jetzt kriege.*

Perfekt – tugallangan harakatni ifodalasada, ba’zan rezultativlik hamda holatni aks etmasligi mumkin. Bunda u preterit kabi o‘tgan zamondagi nutq momentiga aloqasi bo‘lmagan, davomli harakatni ifodalashi mumkin: *Ti Ira ti hot lascht keschaft in Sadik auch ti hot kelant in BGPU. “Die Ira die hat zuerst geschaft im Kindergarten auch, die hat gelernt in BGPU”.*

Boshqa bir tomondan perfekt tugallanmagan harakatni ham voqelantirishi mumkin: *Joh fif-sas si et scheboun jewise. “Fünf-sechs Jahre lang bin ich Schafshirt gewesen”* [Moskalyuk, 2019: 70-73]. Perfekt – keng semantikaga ega bo‘lgan analitik shakl bo‘lib, shu bilan birga u ekspressiv nutqiy shakl hamdir [Dentler, 1997]. Shu jihatiga ko‘ra u sintetik shakl bo‘lmish preterit bilan

raqobatlashib, uni bemalol siqib chiqarmoqda [Rodel, 2007: 183], [Nübling, 2013: 225].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya hududida istiqomat qiluvchi nemis lahjalari vakillari preteritga muqobil tarzda pluskamperfektni ham faol qo‘llashadi. Hattoki, XX asrning yetmishinchi yillarida pluskamperfekt bu lahjalarda preterit bilan raqobatlasha olgan. Ayniqsa, monologik nutqda pluskamperfekt preteritga sinonim tarzda qo‘llangan: *En häi houd dem Schleede ope Siid jelaacht en dann were doa nänjekruupe mät Went. En dann hauda noch je haut t'line Uftjes. Dout woarde mätjenume. "Und er hatte den Schlitten auf eine Seite gelegt, und dann war er hineingekrochen. Und dann hatte er noch einen kleinen Ofen gehabt. Er wurde mitgenommen".*

Pluskamperfekt - perfekt hamda preterit singari tugallangan/tugallanmagan, bir lahzali, davomli harakatni ifodalashi mumkin: *Na hode se dem Jeschentje jebrocht en hode dort jewacht. "Na hatten sie ihm Geschenke gebracht und hatten dort gewartet.* Shuningdek, pluskamperfekt tugallangan harakatni ifodalab, vid ma'nosiga ega bo‘lishi mumkin: *Daut wi he groute Metz mät lange Bänä, häi houd däi iware Brost toujebunge. "Das war eine grosse Mütze mit langen Binden, er hatte sie über die Brust zugebunden".* Ba'zan pluskamperfekt biror muhim xabar yoki ma'lumotni yakunlab, hisobot tarzida ifodalashda ham qo‘llanadi: *Doi muk oles selbst, doi muk de Holtuobed des selbst end oi doid nedem Isa des Hod min Monn ola jemokt. "Der machte alles selbst, der machte die Holzarbeit selbst und der tat mit dem Eisen alles. Hatte mein Mann alles gemacht".*

O‘tmishda sodir bo‘lgan biror harakatdan oldingi harakatni ifodalashda bu lahjaning keksa vakillari pluskamperfektdan foydalanishadi: *En dann koft wi ons, hod wi tousemelt en doid wi ons lije en dann Koft wi ons en Moskwitsch. "Und dann kauften wir uns, hatten wir gesammelt und tauten wir uns leihen und dann kauften wir einen Moskwitsch".* Yosh avlod vakillari esa ushbu holatda pluskamperfekt emas, perfekt yoki preteritdan foydalanadi: *Eno s doi si jekume ne de Hüs dorten wi toine stid fe diins. "Und als die gekommen sind nach Hause, dort gab es keinen Platz für sie".*

Pluskamperfekt perfektning vazifasida kelib, muayyan hodisani hozirgi zamonga tegishliligini ham ko‘rsatadi: *Na ti wa reikkomme hufkkange zu te Lena Wilusche, Seli hat heit Kepotstak. "Na die war reingekommen, gegangen zu lena Wilusche, die hat heute Geburtstag".*

Pluskamperfekt o‘tgan zamondagi davomli harakatni ham ifodalashi mumkin*: Mia ware toch alle zamme, Maias Lis war tann keleje, seli hat schon das zwaite khat, ihren Sasch. "Wir waren doch alle zusammen, Lise Meier hatte damals gelegen, die hat schon das zweite gehabt, ihren Sascha".*

Misolda ko‘rib turganimizdek, o‘rin o‘zgarishini ifodalovchi *liegen* fe'li perfektni *sein* ko‘makchi fe'li yordamida hosil qilgan. Bunday holat Germaniyada Mayn daryosining janubiy qismidagi dialektlarda ham kuzatiladi, ammo nemis adabiy tilida o‘rin o‘zgarishini bildiruvchi (*stehen, liegen, hocken* va b.) perfektni *haben* ko‘makchi fe'li bilan yasaydi [Gillmann, 2014: 203-234].

Janubiy nemis dialektiga asoslangan lahjalarda bulardan tashqari "ikkitali perfekt" hamda "ikkitali pluskamperfekt" ham qo'llanadi: *hen Engelin rouskschnitte khat von Koltpapia, hata se nokmotelt ti Engelin, hiwe un triwe. Haben Engelin rausgeschnitten gehabt aus Goldpapier, hat er sie gemalt die Engelein hier und dort".* Quyi nemis lahjalarida o'tgan zamonni ifodalash uchun shuningdek, "doune" – qilmoq fe'li orqali yasalgan qurilma ham iste'molda. Ushbu qurilma nemis tilining boshqa dialektlarida ham uchraydi. Hozirgi kunda *doune,* ya'ni tun + Infinitiv qurilmasi deyarli barcha fe'llar bilan yasalmoqda: *Wi diode Schwin hoide ope Stap. "Wir taten Schweine hüten in der Steppe"; Donn diode fe det Ditsche wach'nime. "Dann taten sie Deutsch wegnehmen"; En dann doid wi Stapmüs jeripe. "Und dann taten wir Steppenmäuse greifen".*
Hozirgi kunda hattoki "tun"ga ma'no jihatidan sinonim bo'lgan "machen" ham ushbu qurilma tarkibida birikib kelmoqda: *En dot Voj wot wi tu's grout muoke diode, dot wi dann onst os de Trech iascht u'twoja. "und das Vieh, das wir zu Hause gross machen taten, das war dann unser, als der Krieg erst aus wurde"* [Moskalyuk, 2019: 78].

Hozirgi globallashuv jarayonida ilm-fan va kundalik hayotimizda kompyuter va internetning o'rni beqiyosdir va bunda texnika kishilar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi sanalmoqda. Aynan shu sohada tadqiqot olib borgan olim, nemis tilidagi o'tgan zamon shakllari (preterit, perfekt, pluskamperfekt)ning temporal semantikasini internetdagi chat, blog, forum janrlaridagi matnlar ustida olib borib, mazkur zamon shakllarining qo'llanishiga oid ma'lumotlarni umulashtirgan. Unga ko'ra, nemis tilidagi yetakchi internet-kommunikativ o'tgan zamon shakli perfektdir. Uning qo'llanishi (57 %)ni tashkil etgan: (1) *Gewöhnlich mache ich diese Aufgabe selbst, deshalb habe ich den Prozess so organisiert, dass niemand auf solche Weise den Erfolg erreichen kann.* (http://www.zeit.de/forum).
Bundan ko'rinib turibdiki, internet muloqoti og'zaki nutqqa juda yaqinligi sababli ham bu uslubda perfekt sermahsul qo'llangan. O'tgan zamon shaklining qo'llanishiga oid o'tkazilgan boshqa ko'plab tadqiqotlarda ham perfekt yetakchilik qilgan.
Ushbu tadqiqotga ko'ra, qo'llanish jihatidan preterit 36 % ni tashkil etgan. Preterit, asosan, blog janrida qo'llangan. Chunki, blog monologik nutq uslubida bo'lib, unda ma'lum kishilarga tegishli matnlar bayoni berilgan: *Wir waren im Kino und sahen uns "Phantastische Tierwesen und wo sie zu finden sind" an. Im Folgenden spoilere ich etwas aus dem Film, deshalb gibt es ein tl,dr am Ende des Artikels. Ich fand den Film unfassbar traurig.* (https://einblogvonvielen.org).
Preteritning temporal semantikasi xususida aytish mumkinki, u asosan present va futural ma'noga egadir. Internet saytlari bloglarida preterit ko'pinch *als* bog'lovchisi bilan qo'llangan: *Als wir den Blumenpark betraten, dudelte bereits ein alter Leier kasten nostalgische Jahrmarktsstimmung in die frische Frühlingsluft.* (http://www.claudiumdiewelt.de/holland-tulpen-keukenhof.html).
Nemis tilidagi o'tgan zamon shakllari orasida internet saytlarida eng kam qo'llanuvchi shakl – bu pluskamperfektdir (7 %). U asosan, forum janrida

qo‘llanib, bunda harakat yoki hodisalar tugallanganlik xarakteriga ega: *Dass das Problem auch hier gepostet wurde, hatte ich leider nicht bemerkt* (http://www.transfermarkt.de/)
(Weil ich von dies'r Schue geredet hab', hatte er schon vor ein paar Tagen es gekauft.
Pluskamperfekt ko‘pincha *derzeiten, damals, früher, einmal, einst, vor Jahren* kabi leksik ko‘rsatkichlar bilan qo‘llangan: *Vor einer Woche hatte ich in meiner Kolumne für WIRED Germany den Content-Verlagen ans Herz gelegt, ihre Websites einzu stampfe.* (http://www.spreeblick.com) [Belonog, 2017: 373-374].

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, nemis tilida o‘tgan zamondagi harakatni aks ettirish uchun preterit, perfekt, pluskamperfekt shakllari qo‘llanib, ulardan preterit - o‘tgan zamondagi tugallanmagan, davomiy harakatni, perfekt – nutq momentigacha sodir bo‘lib, natijasi hozirgi zamonga tegishli bo‘lgan voqea-hodisani, pluskamperfekt uzoq o‘tmishda sodir bo‘lgan harakatni voqelantiradi. Mazkur shakllar orasida qo‘llanish jihatidan perfekt yetakchilik qiladi, chunki u barcha uslublarda eng sermahsul va faol qo‘llanuvchi shakldir.

Иқтибослар / Сноски / References

1. Dentler S. Zur Perfekterneuerung im Mittelhochdeutschen: die Erweiterung des zeitreferentiellen Funktionsbereichs von Perfektfügungen. (Goteburger germanistische Forschungen). Goteburg: Acta Univ. Gothoburgensis. 1997.

2. Gebhardt A. Grammatik der Nürnberger Mundart. Leipzig, Niederwalluf: Sändig-Reprints. 1968.

3. Gillmann M. Die Grammatikalisierung des sein-Perfekts. Eine korpuslinguistische Untersuchung zur Hilfsverbselektion der Bewegungsverben im Deutschen. PBB. 133(2). 2014. pp. 203–234.

4. Jespersen O. Filosofiya grammatiki [The Philosophy of Grammar]. Translated from English. Moscow: Inostrannaya literatura. 1958.

5. Lindgren K. B. Über den oberdeutschen Präteritumschwund. Helsinki: Suomalaisen Kirjalissunden. 1957.

6. Nübling D. et. al. Historische Sprachwissenschaft des Deutschen: eine Einführung in die Prinzipien des Sprachwandels. 4th ed. Tübingen: Narr. 2013.

7. Rodel M. Doppelte Perfektbildungen und die Organisation von Tempus im Deutschen. (Studien zur deutschen Grammatik 74). Tübingen: Stauffenburg-Verlag. 2007.

8. Shmunk V. D. The Replacement of Preterite by Perfect in the South German Language Area. 1979. pp. 114–124.

9. Белоног О. В., Козлова М. В. Темпоральные особенности употребления временных форм глагола с предикатом в прошедшем времени в сфере немецкоязычной интернет-коммуникации/Сборник тезисов работ участников XXXIX Всероссийской конференции обучающихся "Обретенное поколение – наука, творчество, духовность"/ 2017. С. 372-375.

10. Герасимова И. В. Функционирование претеритарных глагольных форм в старорусской письменной речи xv–xvii вв.: лексико-семантический аспект Вестник Нижегородского уни-та им. Н. И. Лобачевского, 2010. № 4(2), С. 483-486.

11. Майсак. Т. А. Перфект и аорист в ниджском диалекте удинского языка / Высшая школа экономики. ИЯз РАН, Москва. 2016. С. 315-378.

12. Москалюк Л. И. Развитие форм прошедшего времени в островных немецких говорах /Вестник Томского государственного университета филологии. 2019. № 60. С. 66-81.

13. Хисамова Д. Д. Сопоставительный анализ формы и значения прошедшего незаконченного времини в башкирском и прошедшего длительного (The Past Continuos Tense) в английском языках Ядкярь. 2008. № 2. С. 63-65.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

HATAMOV ZIYODIN,
Doktorant (PhD)
Sh. Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston
xatamovziyodin@gmail.com

O'ZBEK TILIDA MODAL SO'ZLAR VA ULARNING O'RGANILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'zbek tilidagi modal so'zlarning o'rni, xususiyatlari va ularrning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi tarixi va tasnifiga oid ilmiy qarashlarga bag'ishlangan. Muallif o'zbek tilidagi modal so'zlar bo'yicha yetakchi mutaxassislar tomonidan bajarilgan sobiq ittifoq davridagi ayrim tadqiqotlarni tahlil qiladi. Sobiq ittifoq davrida o'zbek tiliga bag'ishlangan bir nechta darslik-qo'llanmalar va maqolalarda tilimizdagi modal so'zlar alohida o'rganilgan, ta'rif va tasniflari amalga oshirilganiga qaramay, ularda turlicha ilmiy qarashlar va tasniflar kuzatiladi. Muallif xuddi shu jarayonni o'rganishga e'tibor beradi. Shuningdek, bu ishda turkologiya, xususan, o'zbek tilshunosligida modal so'zlar ilk o'rganilgan asarlarga ham diqqat qaratiladi. Ma'lumki, zamonaviy o'zbek tilshunosligi kattagina davrni bosib o'tdi. Tilshunoslik markazida turuvchi lingvistik paradigmalar o'zgarishi, modallik kategoriyasining yuqori mavqega ko'tarilishi natijasida modal so'zlarga bo'lgan ilmiy qarashlar ham o'zgardi. Maqolada xuddi shu jarayon ham qisqacha izohlanadi. Shuningdek, modal so'zlarning mohiyati, modallik kategoriyasida tutgan o'rni, ularning chegarasi va tasnifi borasidagi turli qarama-qarshiliklar va ayrim chalkashliklar ildizlarini topishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Modallik, modal so'zlar, antroposentrik tilshunoslik, modallik kategoriyasi, mantiqiy modallik, modal so'zlar mohiyati, kirish so'zlar, so'zlovchi munosabati, o'zbek tilshunosligida modal so'zlar, obyektiv va subyektiv modallik, modal so'zlar o'rganilishi, modal so'zlar chegarasi va tasnifi.

KHATAMOV ZIYADIN,
Doctoral student (PhD),
Samarkand State University
named after Sh. Rashidov
Samarkand, Uzbekistan
xatamovziyodin@gmail.com

MODAL WORDS AND THEIR STUDYING IN THE UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

This article is consecrated on the scientific views on the place and characteristics of modal words in the Uzbek language and the history and classification of their research in Uzbek linguistics. The author analyzes that some researches carried out by leading experts on modal words in the Uzbek language during the former Soviet Union. In the period of the former Soviet Union, several textbooks and articles devoted to the Uzbek language have separately studied modal words in our language, defined and classified them, but different scientific views and classifications are observed in them. The author focuses on studying this process. In addition, in this research work, the attention is paid to the works where modal words were first studied in Turkology, in particular, Uzbek linguistics. It is known that modern Uzbek linguistics has gone through a long period. As a result of the change of linguistic paradigms in the center of linguistics, the promotion of the modality category to a higher position, the scientific views on modal words have also changed. The same process is briefly explained in the article. In addition, an attempt is made to find the roots of various contradictions and confusions regarding the essence of modal words, their place in the category of modality, their limits and classification.

Keywords: Modality, modal words, anthropocentric linguistics, modality category, logical modality, means of modal words, introductory words, speaker attitude, modal words in Uzbek linguistics, objective and subjective modality, research of modal words, the boundaries and classifications of modal words.

ХАТАМОВ ЗИЯДИН,
Докторант (PhD)
Самаркандский государственный университет
имени Ш.Рашидова
Самарканд, Узбекистан
xatamovziyodin@gmail.com

О МОДАЛЬНЫХ СЛОВАХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена научным взглядам на место и характеристики модальных слов в узбекском языке, а также истории и классификации их изучения в узбекском языкознании. Автор анализирует некоторые исследования, проведенные ведущими специалистами по модальным словам в узбекском языке на территории бывшего Советского Союза. В период бывшего союза в ряде учебников и статей, посвященных узбекскому языку, модальные слова в нашем языке изучались отдельно, проводились определения и классификации, но в них наблюдаются разные научные взгляды и классификации. Автор уделяет внимание изучению этого же процесса. Также в данной работе уделено внимание тюркологии, в частности работам, где впервые были изучены модальные слова в узбекском языкознании. Известно, что современное узбекское языкознание пережило длительный период. В результате смены языковых парадигм в центре лингвистики, выдвижения категории модальности на более высокие позиции изменились и научные взгляды на модальные слова. Тот же процесс кратко описан в статье. Также делается попытка найти корни различных противоречий и путаницы относительно значения модальных слов, их места в категории модальности, их пределов и классификации.

Ключевые слова: Модальность, модальные слова, антропоцентрическая лингвистика, категория модальности, логическая модальность, значение модальных слов, вводные слова, взаимоотношения говорящих, модальные слова в узбекском языкознании, объективная и субъективная модальность, изучение модальных слов, границы и классификация модальных слов.

Ma'lumki, modal so‘zlar tilshunosligimizda bugungi kunda alohida so‘z turkumi hisoblanadi. Modal so‘zlar tashqi olamdagi narsa, belgi va hodisalarni nomlamaydi, balki so‘zlovchi o‘zi tomonidan bildirilgan fikrga subyektiv munosabatlarni nomlaydi. Mustaqil so‘zlar obyektivlik modal so‘zlar subyektivlik xususiyatga ega. Umuman, modal so‘zlarning asosiy belgisi tildan foydalanuvchining munosabatini ifodalashidir. Insonning nutq jarayonida o‘z fikriga subyektiv munosabat bildirish ehtiyoji modal so‘zlarning alohida bir guruh sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Modal so‘zlar tarixiy kelib chiqishi jihatidan, shuningdek, ba'zi morfologik belgilariga ko‘ra yordamchi so‘zlar bilan yaqindir. Shu sababli ham ular dastlab yordamchi so‘z turkumlari doirasida o‘rganilgani aytiladi [1, 7] .

Amalga oshirilgan funktsiyaga ko‘ra, uni maxsus guruhga ajratish kerak. Modal so‘zlar turkumi leksik-grammatik guruh bo‘lib, mustaqil qo‘llanadi. Ular jumlada maxsus kiritilganda so‘zlovchining o‘zi aytayotgan fikriga subyektiv munosabatning leksik ko‘rsatgichi bo‘lib ximat qiladi. Bunday so‘zlar gapning

sintaktik bog‘lanishdagi a’zosi bo‘lmay, faqat gapga kirib alohida vazifa bajarganligi uchun ular ko‘pincha sintaktik aspektda **kirish so‘zlar** deyiladi.

Modal so‘zlarning aynan shunday nomlanib tildagi alohida leksik-grammatik guruh sifatida e’tirof etilishi tildagi keying davrda alohida e’tibor berilayotgan modallik kategoriyasi bilan bog‘lik. Modallik kategoriyasi boshqa kategoriyalardan farli ravishda tilning barcha qatlamlarida aks etuvchi, juda murakkab, tilning barcha nutq kuslublarida namoyon bo‘luvchi kategoriya sanaladi. Modallik gapning ajralmas birligi. U turli vositalar bilan ifodalanadi. Ushbu holat tilshunoslikning keying davrida atroflicha o‘rganildi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu holat bizning foydalanayotgan o‘zbek tilida ham aks etadi. Aynan shu holatni inobatga olgan holda tilshunos olima S.Boymirzayeva modallik kategoriyasini tatqiqotlaridan birida “**umumlisoniy kategoriya**” ekanini alohida ta’kidlaydi [5, 5].

Modallik kategoriyasining dolzarb mavqega ega bo‘lishi tilshunoslikda keying yillarda qaror topgan antroposentrik paradigma bilan ham bog‘liqdir, chunki ushbu kategoriya, umuman olganda, tildan foydalanuvchi, ya’ni inson bilan bevosita aloqador sanaladi. Til egasi, ya’ni inson til vositalaridan shunchaki foydalanmaydi, balki u nutq jarayoinida til orqali borliqqa va ifodalayotgan fikriga o‘zining turli, rang-barang munosabatlarini ham aks ettiradi. Ma’lumki, xuddi shu narsa modallik hisoblanadi.

Umuman, modallik tushunchasi ilk bor tilshunoslikda emas, u bilan uzviy bog‘iq bo‘lgan mantiq fanida paydo bo‘lgani ma’lum. Ushbu holat tilshunoslikka oid adabiyotlarda aks etadi. Bir muallif bu haqida shunday yozadi: “Modallik aslida mantiq fanida o‘rganib kelingan kategoriyalar qatoriga kiradi. Mantiqshunoslikda ushbu kategoriya predmet va xususiyat o‘rtasidagi obyektiv munosabatlar hamda so‘zlovchi tomonidan ushbu munosabatlar aniqlik darajasining belgilanishini aks ettiradi. Voqelikning idrok etilishi jarayonida predmet – hodisalarning munosabati haqida hukm chiqariladi va ushbu hukm idrok etuvchi shaxsning kechayotgan hodisa haqidagi ehtimoli yoki ishonchini ifodalashi mumkin [5, 7].”

Mantik va til o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Shu sabab ham tilshunoslar tildagi modallik kategoriyasida mantiqdagi kabi tasdiq, ehtimollik va zaruriylik ma’nolarini jamlaydi deb hisoblashgan. Natijada tildagi modallik hodisasi ham faqat mantiqdagi kabi ma’nolarni aks ettiradi deb hisoblanib tor tushunilgan va ta’lqin qilingan. Mantiqdagi tushunchalar tilda ifodasini topar ekan, modallik kategoriyasi ham tilga xosdir. Ammo lingvistik modallik mantiqiy modallik bilan solishtirganda, u ancha kengroq tushuniladi: “…tilda u nafaqat tasdiqlash va inkorni, balki zaruratni, imkoniyatni, shubhani va hokazo ma’nolarni qamrab oladi, umuman, so'zlovchining bildirilgan fikrga sof subyektiv munosabatini ham o‘z ichiga oladi [1, 11] .

Yuqorida ayganimiz so‘zlovchining til jarayonidagi sof subyektiv munosabartini aks ettishi modal so‘zlar orqali sodir bo‘ladi. Ma’lumki, o‘sha davrdagi, ya’ni XX-asrning ikkinchi yarmidagi zamonaviy o‘zbek tilshunosligi tabbiy ravishda rus tilshunosligi ta’siri ostida vujudga keldi va rivoj

topdi. Tilimizdagi tildagi modallik va modal so‘zlarni tatqiq etish ham aynan rus tilshunosligi yutuqlari asosida sodir bo‘lgan. Biz hozirda ko‘proq qo‘llayotganimiz “**obyektiv va subyektiv modallik** atamalari ham rus tilshunosligidan bizga, o‘zbek tilshunosligiga olib kirilgani ko‘pchiligimizga ma’lum. Balki, shuning uchun ham o‘zbek tilshunosligida ularning aniq chegarasi va tasnifi borasida hozirgacha aniq bir to‘xtamga kelinmagan.

Amalga oshirilgan funktsiyaga ko‘ra, ularni maxsus guruhga ajratish talab etilgan. Chunki modal so‘zlar turkumi alohida leksik-grammatik guruh bo‘lib, mustaqil qo‘llaniladi. Ular jumlaga maxsus kiritilgan so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini leksik jihatdan ko‘rsatishni ifodalaydi. Umuman, o‘zbek tilshunosligidagi deyarli barcha o‘zbek adabiy tiliga bag‘ishlangan adabiyotlarda modal so‘zlarning gapning a’zosi bo‘lmay, kirish so‘z bo‘lib va ba’zan so‘z-gap vazifasida kelishini qayd etib o‘tiladi. Demak, modal so‘zlar gapni boshlash uchun o‘ziga xos debocha bo‘lganligi uchun ular ko‘pincha sintaksisda **kirish so‘zlari** deyiladi. Albatta, modal so‘z hisoblangan barcha so‘zlar kirish so‘z vazifasida kelmaydi. *Kerak, lozim, darkor, shart* kabi so‘zlar umuman kirish so‘z vazifasida kelmaydi, balki gap kesimi yoki kesim tarkibida qatanshib gap bo‘lagi bo‘ladi. Shu sababdan ham ba’zi ilmiy manbalarda ular modal so‘zlar hisoblanmaydi [7, 584].

Boshqa turkiy va o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning tilshunoslikda o‘rganilishi 20-asrning ikkinchi yarmiga borib taqalishini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, turkologiyada modal so‘zlar masalasini ilgari surgan olim , ya’ni modal so‘zlarni leksik-grammatik tabiatini o‘rgangan birinchi tilshunos N. K. Dimitrev hisoblanadi. Olim bu so‘zlarni yuklama va mustaqil so‘zlar orasidagi birlik deb hisoblaydi. Nutqda bajaradigan vazifasiga ko‘ra yuklamamlar, fonetik va etimologik jihatlariga ko‘ra alohida so‘zlar deb hisoblagan ekan [1, 12].

Bundan tashqari, turkolog olim prof. N.A. Baskakov “Qoraqalpoq tili” (1952) asarida modal so‘zlarni yuklamalar bilan birga bir turkum so‘zlari deb baholaydi. Yuklamalar va modal so‘zlarni alohida tadqiq etmaydi. U ushbu asarining bir bo‘limida yuklama va modal so‘zlarni ikkiga bo‘lib tadqiq etadi. 1. So‘zga qo‘shimcha kabi birikmaydigan, alohida qo‘llanadigan yuklama va modal so‘zlar. 2. Isim va fe’llardan o‘sib chiqqan yuklamalar [6, 156]. Muallif ularni aynan bir xil xususiyatlarga ega so‘zlar sifatida o‘rganadi. Bu to‘g‘ri emas, albatta. Chunki yuklamalar va modal so‘zlarni bir-biridan ayiradigan asos belgilari bor va hozirda alohida so‘z turkumlari sifatida o‘qitiladi.

Yana bir mashhur turkolog A.N. Kononov modal so‘zlarni yordamchi so‘z turkumlari safiga kiritadi. Olim yuklama va modallarni umumlashirib yuklamalar sifatda izohlaydi. Kononov yuklama va modallarni bir-biridan aniq farqlamaydi, natijada *hatto, faqat, hech, ha, xuddi* kabi yuklamalarni modal so‘zlar sifaida taqdim etadi [4. 345].

Modal so‘zlarni rus tilshunosligida alohida so‘z turkumi sifatida alqin qilish mashhur olim V. V. Vinogradovga borib taqalishi aytiladi. Aynan u modal so‘zlarning o‘ziga xos grammaik-semantik xususiyatari, paydo bo‘lishi, boshqa turumdagi so‘zlar bilan munosabati kabi muammolarni izohlab bergani

haqida o‘zbek tilshunosi modal so‘zlarni alohida o‘rgangan R. Kamiljanova alohida takidlaydi [1, 12].

O‘zbek tilshunosligida modal so‘zlar degan atama kiritilib, shu nom ostida alohida so‘zlar keltirilib izohlangan birinchi ilmiy asar F. Kamol tahiridagi “Hozirgi zamon o‘zbek tili” (1957) darsligidir. Unda modal so‘zlar alohida mustaqil so‘z turkumi shakllanib yetmagan modal so‘zlar guruhi sifatida berilib, ularga keyingi manbalardan biroz farqliroq ta’rif beriladi: “Fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash uchun xoslangan so‘zlar gruppasiga modal so‘zlar deyiladi [2, 485].” Aytish joizki, bu ta’rif hozirgi ta’rifdan biroz boshqacha. Lekin ushbu ta’rif yanglish degani emas. Faqat modallar fikrning voqelikka munosabatini bilvosita ifodalaydi. Ya’ni inson aytayotgan fikri bilan voqelikni, borliqni ifodalaydi, modal so‘z esa shu fikrga so‘zlovchi munosabatini qo‘shadi. Shuningdek, bu tarifda nutq egasi – “so‘zlovchi” ko‘rsatilmagan.

Shuningdek, asarda modal so‘zlar semantik jihatdan ikki guruhga bo‘linadi: 1) fikrning aniqligini bildiruvchi modal so‘zlar: *albatta, darhaqiqat, haqiqatan, rostanam, shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz, tabiiy, o‘z-o‘zidan, aslida;* 2) fikrning noaniqligini angatluvchi modal so‘zlar: *ehimol, shekilli, chog‘i, chamasi, balki, aftidan, hoy-nahoy, mazmuni* kabi. Shuningdek, kitobda modal so‘zlarning ot, sifat, ravish, fe’l kabi mustaqil so‘z turkumidagi so‘zarda o‘sib chiqqani, ularning na mustaqil, na yordamchi so‘z turkumlariga kirishi, alohida so‘zlar gruppasini tashlik etishi, o‘z mohiyaiga ko‘ra yuklamalarga yaqin turishi takidlanadi [2, 487] .

Albatta, bu darslik o‘sha davrda o‘zbek zamonaviy tilshunosligining yutuqlaridan edi. Lekin unda ayrim kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, Modal so‘zlar juda tor semanik doirada o‘rganilgan. Faqat ikkita ma’noviy guruhga bo‘lingan va tilimizdagi ko‘pgina keyinchalik modal so‘zlar o‘laroq e’tirof e’tilgan: *darvoqe, mabodo, mayli, xayriyat, umuman, xullas, demak, ishqilib, nihoyat, avvalo, masalan* va boshqalar chetda qolib ketgan. Bu, albatta, o‘sha davrdagi rus tilshunosligidagi ayrim olimlari ishlarida ilhomlanib yozilgan asar edi va unda rus tilshunosligi ta’siri naijasi aks egan. Keyinchalik ushbu tendensiyani inobatga olgan holda R. Komiljonova bu holat haqida o‘z ishida aytib o‘tadi [1, 14].

Keyinchalik 1963-yili tilshunos olim S. Saidov o‘zbek tilidagi modal so‘zlarga bag‘ishlangan bir nechta maqola e’lon qilgan. Ushbu maqolalaridan birida olim modallar tasnifiga toxtaladi [9, 64]. Ushbu maqolada S.Saidov Sh. Rahmatullayevdan farqli holda modal so‘zlar chegarasini kengaytirishga intilgan. Maqola modal so‘zlarni umumlashtirishga intilish va tasniflash jihatidan ahamiyatlidir. U modal so‘zlar doirasi o‘zbek tilshunosligida cheklab qo‘yilganini alohida ta’kidlab, aslida ularning chegarasi kengroq ekanini e’irof etgan holda ularni 4 ta semantik guruhga bo‘lib o‘rganish zarur deb hisoblaydi. Olim yana bir maqolasida o‘zbek tilida modal so‘zlar **yuzdan ortiq** ekanini bildiradi [10, 69-70], lekin ular alohida so‘z, turkumi ekanligi aytilmaydi. Biz uning tasnifni qisqartirilgan holda keltiramiz:

1. So‘zlovchining voqelik faktiga bo‘lgan fikrining reallik darajasini ifodalovchi modal so‘zlar: *albatta, chindan, haqiqatan, darhaqiqat, shaksiz, shak-shubhasiz, so‘zsiz, tabiiy, tabiiyki, beshak, filhaqiqat; durust, rost, tog‘ri, tuzuk, mayli, bo‘pti, xo‘p, yaxshi; aniqrog‘i, tog‘risi, yaxshisi; voqean, darvoqe, aytganday, aytmoqchi, ma'lumki, ravshanki, belgilikki.* Noaniqlikni ifodalaydi:*aftidan, mazmuni, shekilli, chamasi, chamamda; balki, ehtimol, mumkin, g‘olibo, hoynahoy, mabodo; uningcha, seningcha, fikringcha, aytishlaricha, so‘zicha, gapiga qaraganda, menimcha, fikrimcha, bilishimcha, bizning fikrimizcha*

2. So‘zlovchining voqelik faktiga zaruriyatlik munosabatlarini ifodalovchi modal so‘zlar: *zarur, shart, lozim, darkor, majbur,*

3. So‘zlovchining voqelik faktiga bo‘lgan emotsional munosabatlarini ifosalovchi modal so‘zlar: *baximga, hayriyatki, yaxshiyamki, shukurki, koshki; afsuski, baxtga qarshi, attang, esiz, nahotki, xayfki.*

4. So‘zlovchining fikrini ifodalash formasiga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi modal so‘zalar: *umuman, shunday qilib, binobrin, har holda, demak, har nechuk; qisqasi, xullas, nihoyat, provardida, oxiri; birinchidan, ikkinchidan, avvalo, dastavval, songra, keyin, eng avval; masalan, chunonchi, xolos, ayniqsa; aksincha, bilaks, vaholanki, holbuki; boshqacha aytganda, ikkinchi xil qilib aytganda.*[8, 65].

Ko‘rinib turibdiki, muallif o‘zbek tilidagi modal ma'noga ega, kirish so‘z bo‘lib kela oladigan barcha birliklarni modal so‘zlar doirasida qamrashga harakat qilgan. Albatta ushbu ish, undagi tasnif o‘sha davr tilshunosligi uchun yaxshigina yutuq o‘lgan bo‘lishi mumkin, lekin unda bir qator chalkash holatlar va kamchiliklar mavjud. Xususan, *maqolada durust, rost, tog‘ri, tuzuk, yaxshi; aniqrog‘i, tog‘risi, qisqasi* kabi aslida sifat so‘z turkumiga kiradigan va ba'zi hollarda modal ma'no bildirib kirish so‘z vazifasida keladigan so‘zlardir. Ularning nutq jarayonida bunday vazifa bajarishi bu so‘zlarning modal so‘zlarga ko‘chganini anglatmaydi. Ular modal so‘zlar emas. Ma'lumki ushbu so‘zlar keyinchalik **vazifadosh modal so‘zlar** (o‘rta maktab darsliklarida) yoki **modal ma'noli so‘zlar** [7, 580] deya yuritilgan. Shuningdek, *gapiga qaraganda, bizning fikrimizcha, baxtga qarshi, boshqacha aytganda, ikkinchi xil qilib aytganda* kabi birikma va iboralar modal so‘zlar deya takidlangan [9, 66]. So‘z deyilganda, bilamizki, tilshunoslikda fonetik yaxlitlikka va bitta urg‘uga ega butunlik nazarda tutiladi. yuqoridagilar bunga mutlaqo teskari. Ushbu holat biz uchun biroz tushunarsiz. Bulardan tashqari, oxirgi to‘rtinchi guruhga qo‘yilgan nom biroz tushunarsiz. So‘zlovchi o‘zi ifodalagan fikr shakliga qanday munosabat bildirishi mumkin? Unda jamlangan modal so‘zlar esa bir-biriga mos kelmaydigan turli ma'nolarni ifodalaydi. Ular fikr ifodalanadigan gap shakliga ta'sir o‘tkazmaydi. Ma'lumki, kirish so‘zlar o‘zi ishtirok etgan gap markazi – kesim bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi.

Yana bir o‘rinda *oxiri, dastavval, so‘ngra, keyin, eng avval,* singari so‘zlar ham modal so‘zlar deya takidlanadi [9, 68]. Lekin bular ravish so‘z turkumiga oid atash ma'noga ega bo‘gan so‘zlar ekanligi yaqqol sezilib turibdi.

O‘sha darda ham, keyin ham ular payt ravishlari sifatida o‘rganilgani ko‘pchiligimizga ma’lum. Albatta, ushbu so‘zlar gap boshida modal ma’no bildirib, kirish so‘z bo‘lib kelishi mumkin. Baribir bu so‘zlar modal so‘zlar chegarasidan tashqaridagi mustaqil so‘zlardir. Yana bir qiziq holat maqolada modal so‘z hisbolangan *xolos* so‘zi bilan bog‘liq [9, 68]. Bu so‘z ayrim gap yoki gapdagi bo‘lak mazmunini ayrish yoki takidlash ma’nolarini bildiradi hamda yuklama hisobladi, modal so‘z emas. Keyinchalik bu kabi yanglish va chalkashliklar tilshunos olimlarimiz tomonidan bartaraf e’tilgan, albatta.

Shuni ham ta’kidlash joizki, ayrim yuklama va modalllarni bir-biridan farqlash qiyinroqdir, chunki yuklamalar ham modal ma’no qirralariga ega, modal ma’no ifodalashi mumkin. Lekin bu so‘z keyingi juda ko‘plab o‘rinlarda yuklamalarga kiritilgani va ta’limning turli bosqichlarida shunday o‘qitilgani ma’lum. Bular bilan birga maqolada yana bir o‘rnida modal so‘z deya ta’riflangan, o‘zaro sinonim hisoblanadigan [9, 66] *vaholanki, holbuki* so‘zlari ham modal so‘z ekani shubhali. Tog‘ri, ular modal ma’no bildiradi, gap bosida keladi, undan keyingi ba’zi muhim ilmiy tatqiqotda ham ularning modal so‘z ekani ta’kidlanadi [1, 15]. Lekin, nazarimizda, ushbu so‘zlarning asosiy vazifasi o‘zbek tilida ko‘proq qarama-qarshi ma’no bildiruvchi ikki jumla o‘rtasida kelib ularni bog‘lash sanaladi. Ya’ni modal ma’noga ham ega bo‘lgan, kopincha gaplar boshida qo‘llanadigan bog‘lovchi sanaladi.

S. Saidovning yana bir maqolasi o‘sha davrdagi, ya’ni o‘tgan asrning 60-yillaridagi o‘zbek tilida modal so‘zlarning ishlatilishi o‘rganilgan [10, 69-70]. Unda muallif turli matnlar asosida modal so‘zlarning qo‘llanish darajasiga e’tibor qaratadi. Biz shu ish asosida hozirgi o‘zbek tilida ko‘p qo‘llanadigan modal so‘zlarni misol sifatida keltiramiz. *Albatta, balki, shekilli, ehtimol, har holda, kerak, haqiqatan, chindan (ham), koshki, nahotki, shoyad, mabodo, umuman, shunday qilib, ishqilib, afuski, aftidan chamasi, darvoqe* so‘zlari tilimizda eng ko‘p qo‘llaniluvchi ushbu leksik-grammatik guruhga kiruvchi so‘zlar ekanligi olim tomonidan aniqlangan [10, 69]. Bu holat keying o‘tgan davrda ham o‘zgarmagan. Turli nutq uslublaridagi yozma matnlarni kuzatish davomida ma’lum bo‘ldiki, aynan yuqorida keltirilgan modal so‘zlar hozirgi tilimizda ham juda sermahsul qo‘llanmoqda.

Bundan tashqari, 1965-yili chop etilgan U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlar muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham modal so‘zlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Darslikning so‘z turkumlari qismi U. Tursunov va J. Muxtorovlar tomonidan yozilgan. Undagi modal so‘zlar ta’rifi va umuman, ularning xusiyatlari haqidagi fikrlar boshqa yuqorida biz keltirgan ma’nbalarnikidan unchalik farq qilmaydi va alohida so‘z turkumi emas, so‘zlar guruhi sifatida beriladi [8, 99]. Lekin ularning tasnifi biroz boshqacha. Ular modal so‘zlarni 4 guruhga jamlashadi. 1. Gapda ifodalangan fikrning aniqligini , realligini tasdiqlovchi modal so‘zlar: *albatta, shubhasiz, so‘zsiz, shaksiz. haqiqatan, darhaqiqat.* 2. Gapdagi ifodalangan fikrga taxmin, gumon ottenkasini beruvchi modal so‘zlar: *ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog‘i.* 3. Biror voqea-hodisadan afsuslanish, ajablanish, kabilarni bildiruvchi

modal so‘zlar: *afsuski, attang, ajabo, xayriyat***.** 4.Fikrning o‘zaro munosabatini va tartibini bildiruvchi modal so‘zlar: *demak, umuman, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, oxir, avval, songra, birinchidan, ikkinchidan* [8, 100].

Ushbu tasnifga e’tibor qaratilsa, modal so‘zlar chegarasi ancha kengroq olinganini ko‘rishimiz mumkin. Bu tasnifni yuqorida ta’kidlaganimiz modal so‘zlarga ikkinchi yondashuvga tomon siljish deya izohlash mumkin. Shuningdek, darslikda ayrim e’tiborga azriydigan o‘rinlar mavjud. Masalan, unda tarkibida modal so‘zlar qatnashgan gaplar misol tariqasida berilgan. Ularning birida *hatto* so‘zi modal so‘z o‘laroq beriladi [8, 100]. Bu so‘z keyinchalik va hozir ham yuklama sifatida manbalarda berilishi barchamizga ma’lum. Demak, o‘sha davrda yuklama va modallar chegarasi aniq bo‘lmagan. Keyinchalik tasniflarda modal so‘z deb biladigan *kerak, zarur, lozim, mumkin, shart* so‘zlarini “modal so‘zlik xususiyati kam bo‘lsa-da modallikni ifodalashga xizmat qiladi” [8, 101] deya modal so‘zlar o‘laroq tasnif qilinmaydi. Bundan tashqari, bu holat boshqa ba’zi so‘zlar bilan ham kuzatiladi. Mualliflar *aytganday, o‘ylashimcha, aytganday, aytmoqchi, menimcha, aytishicha, sizningcha* kabi so‘zlar modal so‘zlar emasligi takidlanadi. Bu qaror kirish so‘z bo‘lib keladigan hamma so‘zlar ham modal so‘z bo‘lavermasligi va ushbu so‘zlarning “emotsional munosabat bildirishi, fikr manbasini bildirish, uni izohlash, aniqlash, uchun xizmat qiluvchi so‘zlar” ekani bilan izlohlangan [8, 102]. Bu bir jihatdan tog‘ri, chunki ushbu so‘zlar so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatidan ko‘ra, mualliflar yuqorida ta’kidlagan ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi, biroq ushbu so‘zlarda baribir subyektivlik fakti mavjud. Ularni boshqa biron so‘z turkumlariga kiritib bo‘lmaydi.

Umuman, tilshunosligida o‘tgan davr mobaynida o‘zbek tilidagi aynan qaysi so‘zlar modal so‘zlar hisoblanishi va ularning tasnifi masalasi haligacha aniq belgilanmaganligi kuzatiladi. Bu holat o‘sha davrdagi rus tilshunosligida modallik tushunchasiga nisbatan ikki xil yondashuv, ikki xil ilmiy qarash mevasi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchi pozitsiya tarafdorlari tildagi modal so‘zlarni mantiqdagi modallik kategoriyasidan kelib chiqib belgilaydilar. Natijada modal so'zlarning chegaralarini sezilarli darajada toraytiradilar, ba’zi rus olimlari faqat so‘zlovchining fikr faktiga ishonchliligi va ishonchsizligini ifodalovchi so‘zlarni modal so‘zlar doirasiga kiritadilar.

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra rus tilshunosligidagi ko‘pchilik olimlar modal so‘zlarni keng ma’noda ko‘rib chiqadilar. Jumladan, nafaqat so‘zlovchining fikrning ishonchliligi va ishonchsizligiga munosabatni ifodalovchi, balki ifodalangan fikrga har qanday subyektiv munosabat bildiruvchi va kirish so‘z vazifasini bajaruvchi so‘zlarni modal so‘zlar hisoblaydilar. Buni keyinchalik olima R. Kamiljanova ham alohida ta’kidlagan edi [1, 16]. Bu ikki xil standart asosida baholash hozirgi kunimizga qadar davom etmoqda.

Xullas, ayni shu nuqtayi nazar o‘zbek tilshunosligida ham o‘z aksini topdi. Yuqorida ma’lumot berganimiz Hozirgi zamon o‘zbek tili (1957) kitobida modallar 2-guruhga bo‘lib o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik 1963-yili tilshunos

olim S. Saidov modal so‘zlarga bag‘ishlangan biz iqtiboslarda keltirgan bir maqolasida modallar chegarasini kengaytirishga intilgan. U modal so‘zlar doirasi o‘zbek tilshunosligida cheklab qo‘yilganini alohida ta’kidlab, aslida ularning chegarasi kengroq ekanini e’irof etgan holda ularni 4 ta semantik guruhga bo‘lib o‘rganish zarur deb hisoblaydi. Uning bu ishida o‘zbek tilida modal so‘zlar 100 dan ortiq ekani alohida aytib o‘tiladi, lekin ular alohida so‘z turkumi yoki aksincha, bu borada aytarli fikr yo‘q [10, 69]. Keyinchalik modal so‘zlarni faqat mantiqiy modallik asosida tor doirada o‘rganish taraftori Sh. Rahmatullayev ham modal so‘zlar doirasini biroz kengaytirib ularni boshqacharoq tarzda 4 guruhga bo‘lib tasnif qiladi [7, 585]. Olima R.Kamiljanova esa modal so‘zlar doirasini yanada kengaytirib, alohida olinganda modallikni ifodalovchi barcha so‘zlarni qamrashga intilgan holda ularni 14 guruhga bo‘lib klassifikatsiya qiladi [1, 24] .

Yana xulosa o‘laroq aytish lozimki, tabiatan modal so‘zlar subyektivlik xarakteridagi, kelib chiqishiga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlariga borib taqaluvchi va juda katta qismi ona tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan murakkab so‘z turkumi sanaladi. Ular o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ikki xil yondashuv asosida: mantiq fani qarashlariga tayanilgan mantiqiy modallikdan kelib chiqqan holda va ko‘proq sof lingvistik modal ma’no bildirivchi birliklarga urg‘u berilgan, tabir joiz bo‘lsa, “lingvistik modallik” yondashuvi asosida ularning chegarasi belgilashga harakat qilinganini kuzatamiz. Lekin hozirga qadar modal so‘zlarga aynan qaysi so‘zlar nazarda tutilishi va ular aynan qanday, nechta guruhga bo‘linib tasnif qilinishi masalasi hal etilmagan. Ushbu muammoni hal etish hali-hamon o‘zbek tilshunoslari oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Камильджанова Р. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дис. канд.филол.наук. – Тошкент, 1975. – 28 с (Kamildjanova P. Modalьnыe slova v sovremennom uzbekskom yazыke. Avtoref. dis. kand.filol.nauk. – Toshkent, 1975. – 28 s)

2. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: ЎзФА нашри, 1957. – 526 б. (Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent: O'zFA nashri, 1957. – 526 b).

3. Ўзбек тили грамматикаси, I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 610 б. (O'zbek tili grammatikasi, I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.)

4. Кононов А.Н. Грамматика совремменного турецкого литературного языка – Москва: МГУ, 1956. – 308 с. (Kononov A.N. Grammatika sovremmennogo turetskogo literaturnogo yazыka – Moskva: MGU, 1956. – 308 s.)

5. Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010 –185 б. (Boymirzayeva S. Matn modalligi. – Toshkent: Fan, 2010. – 185 b.)

6. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык, – Москва: MGU, 1952. – 248 с. (Baskakov N.A. Karakalpakskiy yazik, – Moskva: MGU, 1952. – 248 s)

7. Ўзбек тили грамматикаси, I том, Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 610 б. (O'zbek tili grammatikasi, I tom, Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. 610-b.)

8. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллайев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1965. – 390 б. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.)

9. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи,1980. – 448 б. (Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980. – 448 b.)

9. Саидов С. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги модал сўзларнинг классификацияси масаласига доир // ЎзТА журнали, 1963. 6- сон. – Б. 64-69. (Saidov S. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi modal so'zlarning klassifikatsiyasi masalasiga doir // O'zTA jurnali, 1963. 6- con. – B. 64-69.)

10. Саидов С. Модал сўзларнинг гапда кўлланиши ҳақида // ЎзТА журнали, 1964. 4-.сон. – Б. 69-70 (Saidov S. Modal so'zlarning gapda ko'llanishi haqida // O'zTA jurnali, 1964. 4-.con. – B. 69-70)

TIL, TA’LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

XOLMIRZAYEV JURABEK,
tayanch doktorant (PhD),
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
jurabek1989@gmail.com

“QUNDUZ BILAN YULDUZ” DOSTONI CHORVACHILIK LEKSIKASI VA UNING MAVZUIY GURUHLANISHI

ANNOTATSIYA

“Qunduz bilan Yulduz” dostoni leksikasi ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid so‘zlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu so‘zlar qo‘llanish darajasi, tarixiy shakllarda qo‘llanganligi va etimologiyasi jihatdan xarakterlidir. Ularning ma’lum qismini kasb-hunarga, dehqonchilikka, hunarmandchilikka hamda chorvachilikka oid birliklar tashkil etadi. Ushbu maqolada doston leksikasining asosiy mavzuiy guruhlaridan biri hisoblangan chorvachilikka oid atamalarning mavzuiy guruhlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yilqichilik leksikasi, chorvachilik leksikasi, aslaha, jabduq, ot zoti, sifati, chilvir, G‘irko‘k.

XOLMIRZAEV JURABEK,
doctoral student (PhD),
Samarkand State University,
Samarkand, Uzbekistan
jurabek1989@gmail.com

LIVESTOCK VOCABULARY AND THEMATIC GROUPING OF THE EPIC "KUNDUZ AND YULDUZ"

ABTRACT

The lexicon of the epic "Kunduz and Yulduz" included words related to different areas of social life. These words are characteristic in terms of their degree of application, their use in historical forms, and their etymology. A certain part of them is made up of units related to the profession, agriculture, crafts and animal husbandry. This article discusses the thematic groups of terms related to livestock, which are considered one of the main thematic groups of the epic lexicon.

Key words: yearbook lexicon, livestock lexicon, coat of arms, harness, horse breed, quality, locksmith,Girkuk.

ХОЛМИРЗАЕВ ДЖУРАБЕК,
Докторант (PhD),
Самаркандский государственный университет,
Самарканд, Узбекистан
jurabek1989@gmail.com

ЛЕКСИКА ЖИВОТНОВОДСТВА И ТЕМАТИЧЕСКАЯ ГРУППИРОВКА ЭПОСА «КУНДУЗ И ЮЛДУЗ"

АННОТАЦИЯ

Лексика эпоса "Кундуз и Юлдуз" включает слова, относящиеся к различным сферам общественной жизни. Эти слова характеризуются степенью употребления, употреблением в исторических формах и этимологией. Определенную их часть составляют единицы, относящиеся к профессии, земледелию, ремеслу, скотоводству. В данной статье речь пойдет о тематических группах терминов, относящихся к животноводству, которые считаются одной из основных тематических групп эпического лексикона.

Ключевые слова: словарь коневодства, словарь животноводства, доспехи, упряжь, порода лошадей, качество.

Ilmiy adabiyotlarda kasb-hunarga oid so‘zlar majmuyini turlicha nomlar bilan ataydilar. Masalan, "O‘zbek tili leksikologiyasi" kitobida *maxsus yoki professional-terminologik leksika,* «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida *professionalizm* deb nomlagan.[5, 26]

Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-hunarga oid atamalar tashkil etadi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik, kosiblik sohalariga tegishli bo‘lgan atamalar. Bu so‘zlarning turli kasb-hunarga bog‘liqligi jihatdan quyidagi guruhlarini kuzatish mumkin:

1) dehqonchilik: bog‘dorchilik, polizchilik.

2) chorvachlik: qo‘ychilik, yilqichilik, parrandachilik.

3) kosiblik: kulolchilik, temirchilik, etikdo‘zlik va hokazo.

Maxsus so‘zlar – professionalizmlar ilmiy texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘z va birikmalardir. Har bir fan va kasb-hunar o‘z terminlari va o‘z leksikasiga ega. Ma'lum kasb-hunar, fan terminlarining yig‘indisi terminologiya deyiladi: qishloq xo‘jaligi terminologiyasi, sanoat terminologiyasi kabi.

Kasb-hunar leksikasi muayyan kasb-hunar kishilari tomonidan asrlar davomida yaratiladi. Masalan, hozirgi chorvachilikda ishlovchi chorvadorlar nutqidagi leksik boyliklarning katta bir qismi chorvachilik lekiskasida qadimdan davom etib va qo‘llanib kelayotgan so‘zlardir.

Termin har qanday tushunchaning aniq atamasi sifatidagina emas, balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi. Kasb-hunar leksikasi esa ko‘pincha ma’lum kasb-hunar kishilari orasida og‘zaki nutq jarayonida paydo bo‘ladi. Terminlar umumdavlat, umumjahon ahamiyatiga ega bo‘lsa, kasb-hunarga oid so‘zlar ma’lum mahalliy chegarada va birgina kasb-hunarga mansub bo‘lgan aholining kichik guruhi, jamoasi o‘rtasida qo‘llanadi.

Kasb-hunar leksikasining yuqorida sanab o‘tilgan mavzuviy guruhlari orasida chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy leksika salmoqli o‘rin tutadi. Ammo ta’kidlash joizki, tog‘-cho‘l hududlarida yashagan qadimgi ajdodlarimizning asosiy kasbi chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan. «Qunduz bilan Yulduz» dostonining mavzusi tog‘-cho‘l hududlarida yashagan xalqlar turmush tarzini hikoya qilish bo‘lganligi sababidan asar kasb-hunar leksikasi tizimida **chorvachilik leksikasi** alohida o‘rin tutadi.

Chorvachilikning tarmoqlari ko‘p bo‘lgani uchun bu sohadagi atamalar yana *yilqichilik, tuyachilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, chorvadorlarning turmush tarzi* kabi guruhlarga ajratiladi. Biz ulardan chorvachilik leksikasining muhim qismini tashkil etadigan **yilqichilik *leksikasi*** haqida so‘z yuritamiz.

Doston matnida yilqichilik leksikasining quyidagicha mavzuviy guruhlanishi kuzatiladi:

Ot nomi bilan bog‘liq leksemalarning faol ishlatilishi ularni ma’lum bir semantik guruhlarga ajratishga imkon beradi:

-**Otning zotlari**: *qorabayir, arabi, qozoqi.*

- arabi:

Hayf senga Chambilbelning jallodi,
Zoye bo‘ldi esiz, otning mehnati,
YO ko‘rasan yo ko‘rmaysan, jon do‘stim,
*Mendan burun ketdi **arabning oti**. [4,285]*

-**Otning sifatlari**: *yo‘rg‘a, uchqur, yuk tortuvchi.*

-uchqur:

***Uchqurlikda** qanotimdan qayrildim,*
Yura bilmay, yurar yo‘ldan toyrildim,
Armon bilan men to‘ramdan ayrildim,
Dargohingda g‘arib bo‘ldim xudoyim.[4,415]

-**Otning turlari**: *to‘riq, oq, qora, saman, ola, olaqashqa* kabilar;

-to‘riq:

Bek Nurali bandi-bo‘g‘nin bo‘shladi,
Alam tortib ikki ko‘zin yoshladi;
Yev-yarog‘in solib olib xurjinga,
***To‘riq** otning ustiga, bachcha, tashladi. [4,437]*

-**Jang olib boriladigan joylar**: *maydon.*

Qarasa bir gulga o‘xshagan, yoshi to‘lmagan, hech bir zoyaliq ko‘rmagan, balki suvsiz cho‘lda yurmagan, urush qanday ekanini bilmagan bir yosh bola

qo'shinni oralab yuribdi, ***maydonning*** *o'rtasida yolg'iz o'zi talabgor deb turibdi. [4,453]*

-**Aslaha va jabduqlar**: *egar, chirgi, yarma, ayil(tizgin), yopqich, uzangi, qamchi, yugan, nuxta, chilvir, ot to'rva, nahal(taqa)* kabilar.

-chirgi:
Dah deganda qator toldan xezlagan,
Shamoliga oqqan daryo muzlagan,
Chirgiligin *chiltan bobom sozlagan,*
Falakdan yashinday engan bedovsan. [4,217]
-chilvir:
Dim bo'lmasa ***chilvir*** *solib*
Bu yoqqa chiq takani olib;
Bizlarga bermayman desa,
Bir urushni boshlasangchi. [4,347]
-taqa:
El kattasi, to'n kattasi,
Otida tilla ***taqasi****,*
«Katta to'y-da, bera ber» der.
Necha bir salom og'asi. [4,352]

Darhaqiqat, qadimda xalqimizning asosiy ulovi ot bo'lgani, jangu jadallar ot yordamida olib borilgani, uzoq masofalarga yurish va transport vositasi ot bo'lgani uchun xalq dostonlarida ham bu jonivor ta'rifu tavsifiga keng o'rin berilgan. «Qunduz bilan Yulduz» dostonida ham shu holatni ko'rishimiz mumkin. Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Dostondagi ot – epik ot G'irko'k. Butun Go'ro'g'li avlodiga xizmat qilgan ot. Shu sababdan u bu avlod orasida ham, ular haqida doston kuylagan baxshilar orasida ham alohida e'tiborga sazovor bo'lgan jonivor, doston bosh qahramonining sodiq do'sti. Mana uning ta'rifi:

Bir yoshingda chiltan bergan G'irotim,
Bedavlatga davlat bo'lgan bedovsan.
Seni minsam g'azo bo'lar niyatim,
Befarzandga farzand bo'lgan bedovsan.
Dushman bo'lsa yakson etgan bedovsan,
Arzimni eshitgin hayvon G'irko'k ot,
Meni Yulduz yorga yetkaz xonazod! [4,216, 218]

Baxshi ta'rifidan anglashiladiki, G'irko'k bedavlatga davlat bo'lgan, befarzandga farzand bo'lgan, Sumbul tog'ini, Iram bog'ini, Sanamning charbog'ini ot, shoh Rayxonni yengib kelgan, arab Bektoshning dodini bergan, elatning orini olgan bedov, shamoliga oqqan daryo ham muzlagan, osmondan yashinday enib kelgan, yugurganda uchar qushdan qolmagan, chu deganda qushdan o'tgan, chopganda shunqorga yetgan, dushman bo'lsa yakson etgan tulpor.

Ergash shoir otning nomini *G'irko'k ot, G'irko'k, G'irko'k tulpor, G'irko'kday hayvon, G'irot* tarzida bir necha variantlarda qo'llaydi va shu orqali xuddi ot egalari kabi unga alohida hurmatini bildiradi. Masalan:

-G'irot:

G'irotimni *o'ynatarman,*
Tillaringni chaynatarman,
Sho'rlaringni qaynatarman,
Qoni tutgan yakka-yakka! [4,409]

-G'irko'k ot:

Jonivor ***G'irko'k ot*** *Avazxonning xafa bo'lganini bilib, har alvon yurishiga usul qilib, har alvon o'zini toblab-toblab, og'zini ochib, qo'ltiqdan parqin sochib, Avazxonni olib qochib, bahrin ochib, qanotli qushday uchib, yo'lning tanobin tortib keta berdi. [4,216]*

Suvsiz, elsiz cho'llarda
G'irko'k otni *o'ynatdi.*
Bosgan izi ***G'irotning***
Tushgacha changib yotdi. [4,220]

-G'irko'k:

Senday tulpar osmonning ostiga, yerning ustiga, hayvonlar qatorida, yilqilar ichida, avvaldan-oxiri aslo kelgan emas,- deb ***G'irko'kni*** *maqtab-maqtab, yo'lda Avazxon bir so'z deb boradi. [4,216]*

G'irko'kning jasoratiga qoyil bo'lgan shoir uning ta'rifida zo'r poetik usulni qo'llaydi – *G'irko'kday tulpar, G'irko'kday hayvon* deb, uning o'zini o'ziga o'xshatadi:

Ostingda o'ynaydi ***G'irko'kday tulpar,***
Belingda yarashar isfihon xanjar,
Men elimga ketdim, to'ram, xush endi,
Umri kalta to'ram qolding, allayor. [4,215]

Anda Avazxon o'g'lon so'ylaydi alvon-alvon, yag'rini yoziq polvon, ostida o'ynaydi ***G'irko'kday hayvon****, yag'rinida qart-qurt etadi kark teri qalqon, uzangiga chirq-shirq etib turibdi kesgir isfihon [4,210]* kabi. Bu misollarda G'irko'k otga nisbatan *bedov, tulpor* so'zlarining qo'llanilganini ham ko'ramiz.

Doston tilida boshqa ot nomlari va umuman bu jonivorga bog'liq ko'plab atamalarni kuzatish mumkin. Masalan, Nuralibek mingan ot *Jiyronqush* deb ataladi: *Ravshanbek ko'nglida aytdi: «Vo ajabo, bir umrida otga minmagan bola bo'lsa, bu qayoqqa borayotibdi. Buning bu siyog'i yov-yarog'ini olib bir katta urushga borayotganday nima qilib yuribdi sira deb», **Jiyronqush** otini ko'ndalang qilib: «Ha-ha botir, yo'l bo'lsin»,– deb ukasi Nuralibekka qarab bir so'z aytayapti. (438-b.)*

-*Majnunko'k* (Go'ro'g'lining otlaridan biri shunday deb nomlangan): *Avazxon daladan bu so'zlarni eshitib «obba bachchag'ar, shu Jartiboy ham qul dedi-ku, endi ketmasam bo'lmas», – deb belini ikki yerdan boylab, majlisga*

kirib, uch kecha mast qiladigan araqdan olib kelib, beklarni uch kunlik mast qilib, ***Majnunko'kni*** *minib hayt deb Xunxorga qochib ketdi. [4,207]*

-Bektosh arabning qizi To'tigul tilida *Ko'kqashqa* degan ot nomini ishlatadi:

Oh desang to'kilar ko'zdan selday yosh,
Yigitni kuydirar yaxshi qalamqosh.
Akamning bor bir ***Ko'kqashqa*** *oti,*
Ostingdagi G'irot bilan otadosh. [4,233]

-Chovkar Cho'ntoq: Tag'i «G'irko'k ot changini ham ko'rmay qoldi» demanglar. ***Chovkar Cho'ntoq*** *suvdan chiqqan tulparlardan edi, hamma tulparlarning otasi edi; G'irko'k otalik hurmatini qilib yetmadi. Bo'lmasa Go'ro'g'lining otidan uchar qush qutulmas edi. [4,248]*

-cho'bir, cho'ntoq, baytal: Ol-ol deb olayotir, Oti yomon qolayotir, Katta ulkan to'y emasmi, Olomonlar talayotir. ***Cho'bir, cho'ntoq, baytallilar****, Xo'p tomosha qilayotir. [4,351]*

-biya:
Mollar yeydi giyoni,
Qimiz qilar ***biyani****,*
Otin chopdi Nurali,
Nishona qip tuyani. [4,448]

-yilqi:
Uzoqda qolgandir to'ramning joyi,
O'zing ***yilqi****, tulparlarning podshohi,*
Xon to'ramning birga kelgan hamrohi,
Chu-ha, chu-ha dushmanlarning ustiga! [4,417]

-qora qashqa: Shu otlarning ichida Chin podshosining tablasidan bir ***Qora qashqa*** *ot Chin yurtini oralagan, to'rt oyog'ini to'g'alagan, cho'qqisining juni ketgan, to'rt oyog'i ko'kka tepgan, qarchig'ayning havosi tekkan, shamolday xezlagan, yulduzni ko'zlagan. [4,216]*

-g'o'nan, do'nan:
Qamchi urib tulpar otdi,
Bir o'loq deb jonin sotdi,
G'o'nan*,* ***do'nan****, semiz taka,*
Ko'ziga qaramay otdi. [4,338]

Shuningdek, *to'rva, egar yugan, jilov* kabi so'zlar ham otchilik leksikasi tizimida qaraladigan so'zlardir:

Ana endi Bol Avaz qarasa, Ko'sa Cho'ntoqni yalang'ochlab qo'yib yuboribdi, qirqta xurjun bilan sakson ***to'rvani*** *oftobga yoyibdi, o'zi tirday yalang'och bo'lib ko'ylak-ishtonini yechibdi, burni pichoqning qiniday bo'lib, o'zi tirik emas, o'likday bo'lib, labi ariqning roshiday bo'lib, iyagi egarning qoshiday bo'lib, oftobga o'zini solib, bitini qarab yotibdi [4,251]. Qirq yigit yugurib, izzat-ikrom bilan qo'ltig'idan suyab, uzangini bosib G'irko'kka mindirdi, qo'liga shunqor qo'ndirdi, zumrad dobilni* ***egarning*** *qoshiga ildirdi*

*[4,205]Qunduzoy **jilovni**, **yuganni** shuncha tortdi, G'irko'k ot boshini ko'tarmadi [4,416]*

Yoki:

-diktika//dikdika (otning egar osti yoki egar ustidan sarrisigacha yopiladigan to'qimi, jul):

*Otga soldi **diktika**,*
Qoyil bo'ling erlikka,
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot
Gohi chikka goh po'kka. [4,219]

-hasham (ot ko'kragiga taqiladigan o'mildiriq):

Soqi chol ham G'irko'k otni abzallab, hashamlab, egarlab, yuganlab, choq qilib olib kelib turib edi[4,205]

-ayil:
Egarning ustidan solib, Nurali,
*Kash-kash deb tortdi ipak **ayilni**... [4,436]-pushtan:*
Ot beliga torta berdi Nurali,
*Pay to'shab tashlagan chig'atoy **pushtan**. [4,436]*
-ayil-pushtan:
Alvon-alvon do'nayotir,
Taqdiriga ko'nayotir,
***Ayil, pushtan** mahkam tortib,*
Otlariga minayotir. [4,350]
-uzangi:
*Qirq yigit yugurib, izzat-ikrom bilan qo'ltig'idan suyab, **uzangini** bosib G'irko'kka mindirdi, qo'liga shunqor qo'ndirdi, zumrad dobilni egarning qoshiga ildirdi. [4,205]*
-egar:
*Labi ariqning roshiday bo'lib, iyagi **egarning** qoshiday bo'lib, oftobga o'zini solib, bitini qarab yotibdi. [4,251]*
-suvliq:
Kam-kam o'zin tuzatdi,
Gardanini uzatdi,
***Suvlig'in** qatirlatdi,*
Qulog'in qaychilatdi. [4,221]

Otlarga qarash, ularni boqish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi leksik birliklar bor:

-sayismand - bilag'on, usta otboqar:
***Sayismandlar** bo'lar otning tobiga,*
Chechan odam gapni qo'yar bobiga,
Yulduzoy pari der mening otimni,
Meni izlasang, borgin Ko'yiqofiga. [4,215]
-sayis:
*Avazxonning G'irko'k otini, Yovmitning xonazotini, «to'ramizning oti» deb **sayislar** tablada boqib yota berdi. [4,357]*

- otboz:

Devona qush bo'ldi, Avazxon ovchi,
Qizi bor odamga keladi sovchi.
Ustalikman Bol Avazdan qutuldi,
Zolim ko'sa ***otboz*** *edi, toblovchi. [4,248]*

-tabla:

Shu otlarning ichida Chin podshosining ***tablasidan*** *bir Qora qashqa ot Chin yurtini oralagan[4,268]*

-ko'pkaritoz:

Avazxon ichida aytdi: «Bu bachchag'arni Cho'ntoq chovkar sudrab o'ldirar ekan. Xo'p odamning ***ko'pkaritozi*** *bilan do'st bo'lib qolgan ekanmiz».[4,262]*

-*choparman* (uloqchi, chavandoz):

Hali ham odam ko'p ekan,
To'y juda taloto'p ekan,
Ot ham odam sig'ishmaydi,
Choparman *bola ko'p ekan. [4,349]*

-*toblovchi* (otni tarbiyalash, tobiga keltirishni yaxshi biluvchi):

Devona qush bo'ldi, Avazxon ovchi,
Qizi bor odamga keladi sovchi.
Ustalikman Bol Avazdan qutuldi,
Zolim ko'sa otboz edi, ***toblovchi****. [4,248]*

Doston matnida shu turkumga kiradigan ayrim so'zlar, masalan, *otxona, qashlag'ich, o'rtik* so'zlari qo'llanmagan. Ularning o'rnida baxshi *jebaxona, qashov* so'zlarini; otning buynini boshning yuqori qismi bilan yopadigan yopinchiq ma'nosini beradigan *tos yolpo'sh* jumlasini ishlatgan.

Mana bu so'zlar esa otning sifatini ko'rsatadi:

-*bosh ot* (kelin uchun beriladigan qalinning bosh – yetakchi qismi bo'lib, odatda naslli ot berilgan): *Bosh* ***otiga*** *G'irotimni boyladim, qatorda norimni, xazinada zarimni, bisotimda borimni tog'amga beringlar. [4,206]*

-*yobi* (otning oddiy turi): *Anda Ernazarxon polvoniing aytgan so'zlari «yomon ot* ***yobi****» degani. [4,280]*

-*parqin* (o'zbek dostonlarida ot qo'ltig'i, tulpar qo'ltig'i; afsonaviy ot qanoti va qanotining joylashgan yeri): *Jonivor G'irko'k ot Avazxonning xafa bo'lganini bilib, har alvon yurishiga usul qilib, har alvon o'zini toblab-toblab, og'zini ochib, qo'ltiqdan* ***parqin sochib****, yo'lning tanobin tortib keta berdi. [4,216]*

-*poyga boshi* (poyganing oldida o'zib boruvchi ot):

Qayrilib sinsin jayrag'ir qanoti,
Buzilsin o'tirgan qo'rg'on, raboti.
Yo ko'rasan, yo ko'rmaysan, jon do'stim,
Poyga boshi *bo'ldi arabning oti[4,286].*

-*so'poq ot* (gavdasi cho'ziq baland ot): *Bir ko'k qashqa do'nan: kam qobirg'a, ingichkaroq, uzun siyroqli* ***so'poq ot****. [4,264]*

-*to'qmor yolli* (yoli tikroq bulib, ikki tomonga tushgan qorabayir ot): *Avazxonning **to'qmor yolli** tulpar to'riq oti bor edi, tabladan yetaklab chiqib, yakkamixga boylab, otni egar-yugan qilayotibdi. [4,435]*

-*cho'mmoq* (yoli va dumi ozaygan va kalta bo'lib qolgan ot): *Shunda boboning oti cho'mmoq chovkar G'irko'kning dobiri bilan chikka-pukka bo'la berdi, boboni ko'tarib olib yura berdi. [4,236]*

-*xonazot: Avazxonning G'irko'k otini, Yovmitning **xonazotini**, «to'ramizning oti» deb sayislar tablada boqib yota berdi [4,357]*Ushbu so'z dostonlar tilida faqat hayvonlarga, hayvonlar orasida otlarga nisbatan ishlatilganligi bilan xarakterlanadi.

-*qulun:*

Jonivor odamday ko'zin yoshlaydi,
Qarsillatib qora yerni tishlaydi,
Faryodiga uyg'onmaydi Avazxon,
***Qulundagi** dovushiman kishnaydi*. [4,268]

Ushbu atamalar orasida otlarning sifati va xususiyatini ko'rsatuvchi *bedov, tulpor* so'zlarining qo'llanishi e'tiborga molikdir. Bu otlar dostonda alohida obraz tarzida ishtirok etadi, jang maydonida o'z egalarining qahramonligiga ko'maklashadi, sherik bo'ladi. Bu sifatlarga ega bo'lgan otlar dostonlarda hech vaqt salbiy xususiyatlari bilan namoyon bo'lmagan:

Suvsiz cho'lda Bol Avaz,
Sherday bo'lib arqirab.
*Qamchi tegsa, **bedovlar***
Suvsiz cho'lda zirqirab [4,391]

Shuningdek, doston matnida chorvachilik va unga daxldor bo'lgan leksik birliklarning ham quyidagicha mavzuiy guruhlanishi kuzatiladi: Ergash shoir dostonlari matnida, xususan «Qunduz bilan Yulduz» dostonida ham chorvachilikka daxldor bo'lgan yana quyidagi nomlarga duch kelamiz:

- uy hayvonlari: *qo'y, qo'zi, qo'chqor; echki, uloq, uloq-taka, taka-uloq; mol, poda, tana-sho'lpi, cho'ntoq, ho'kiz, buqa; eshak, hangi, xachir; it, ko'ppak, kuchik/kuchug/kuchuk; tuya, norcha, norcha-lo'k* kabi. *Xisravxon podshoning qirq kun to'yi bor, borgan odamga sepi bor; har kim shu to'yga bormasa, ikki yuz **qo'y** jarg'i bo'ladigan joyi bor. Chiqarolmay o'rtaroqda harom olish qilganlari, bo'yni yo'g'onroq bo'lsa, bir to'n bilan **takani** olayotir; kam ko'maklari quruq qolayotir [4,334]*Ular matnda juftlashgan holda ishlatilib, umuman uy jonivorlari ma'nosini anglatgan: *ho'kiz-sigir, qo'y-ho'kiz, qo'y-so'qim, qo'y-biya, echki-qo'y, mol-hol, mol-minol/ moli-manol* singari;

-chorva saqlanadigan va oziqlanadigan joy: *yaylov, qo'ton: Kal bechoraning so'zi qurbaqa **yaylovga** ham chiqmadi. [4,293]*

-chorvador yashaydigan joy: *chodir/ chotir, chodir-joy, chodir-chaman, chotir-soyabon, chotir-chaman, o'tov: Qurilgan soyabon zarli **chotiri**, Ichida til bilmas uxlab yotiri, Hali ham ortingdan kelayotiri, Yasov tortgan qanday shohning botiri? [4,401]*

*Bu **o'tovda** qizlar-mizlar bormikin,*

Suv bergiday biror dilbar bormikin?! [4,224]

-chorvadorning nomlari: *eliboy, qo'ychi, uloqli, cho'pon, cho'liq, cho'pon-cho'liq;*

-umuman shu sohaga daxldor bo'lgan: *moldor, molsiz, mol-ozig'; yolpo'sh, jihaz (tuyaniki); sarbon/ sarvon, xonazot/xonzod, elisozlik* singari ko'plab atamalar ham ishlatilgan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan «Qunduz bilan Yulduz» dostoni katta hajmdagi epik asar bo'lib, 255 sahifani tashkil etadi. Doston voqealari bevosita jang tafsilotlari bilan bog'liq bo'lgani va bu voqealarning hikoya qilinish ko'lamini ham kengaytirgan. Shuning uchun uning matnida sohaviy leksikaning turli-tuman mavzuviy guruhlariga oid so'z va jumlalarni uchratishimiz mumkin. Ammo ular orasida jangchining asosiy madadkori va himoyachisi ot bo'lgani boisdan ushbu bobda faqat chorvachilik leksikasining xalq og'zaki ijodida asosini tashkil etadigan yilqichilik sohasi leksikasini tahlil etishga to'g'ri keldi. Yilqichilik leksikasining barcha elementlari doston matnida uchramasligi mumkin, ammo ularning asosiy qismi qamrab olinganligiga shubha yo'q. Shuning uchun ular tilimiz tarixini, Ergash Jumanbulbuldek ulug' xalq baxshisining til tafakkuri olamini bilishga ko'maklashishi aniq.

Xulosa qilib aytganda doston kuylash jarayonida til birliklarining tanlanishi mavzuga bog'liq bo'ladi. Mavzuni yoritish jarayonida ana shu mavzuga oid leksik elementlar bir joyga jamlanishi masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, ularning leksik-semantik qirralari ham ochilib boraveradi. Birgina jang qurollari yoki *maydon* leksemasi misolida bunga ishonch hosil qilindi. *Qilich* so'zi xalq dostonlari tilidan boshqa joyda bunchalik ma'no taraqqiyotiga yoki boshqa so'zlar bilan sintaktik birikuvlarga uchramasligi mumkin. Bu esa, dostonchilik an'analari xalqimiz orasida chuqur ildiz otgani, doston aytish ona tilimiz taraqqiyotida o'ziga xos maktab bo'lganligidan va xalq baxshilari ana shu maktabning munosib vakillari bo'lganligidan dalolat beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Абдураҳмонов Д. Диалектал лексикага экскурс // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. 1965, №1. –Б. 43 (Abdurahmonov D. Dialektal leksikaga ekskurs // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1965, №1. – B. 43).

2. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Elmis – Press-media» нашриёти, 2007. – Б. 3-4. (Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati. – Toshkent: "Elmis – Press-media" nashriyoti, 2007. – B. 3-4.)

3. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1992. – Б. 143-144.(Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 1992. – B. 143-144.)

4. «Қундуз билан Юлдуз». Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, 3-том. – Тошкент: Фан, 1972. -Б. 203 - 458. ("Qunduz bilan Yulduz". Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li // Bulbul taronalari, besh tomlik, 3-tom. - Toshkent: Fan, 1972. – B. 203 - 458.)

5. Ўзбек тили лексикологяси. – Тошкент, 1981. – Б.17. (O'zbek tili leksikologyasi. – Toshkent, 1981. – B.17.)

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

SAFAROVA GULSHODA,
Talaba,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston
gulshodasafarova4@gmail.com

O'ZBEK BOLALAR SPONTAN NUTQIDA SO'Z TURKUMLARINING IFODALANISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 5-6 yoshli bog'cha bolalar nutqidagi so'z turkumlari, xususan, ot va fe'llar nisbati taqqoslandi. Shuningdek, ishtirokchilarning nutq tezligi va uzunligi tahlil qilingan bo'lib, ular nutqida uchragan grammatik xatoliklar ham aniqlandi. Tadqiqot olib borilgan guruhga nazorat guruh sifatida 20-40 yoshli 5 nafar erkak va 5 nafar ayol ishtirokchilar tanlab olinib, ular nutqi ustida ham bolalarniki kabi tahlillar o'tkazildi. Natijalar o'zaro taqqoslanib, farqlar sababi sharhlandi. Ikkala guruh vakillari uchun ham mos bo'lgan kundalik hayotga oid 10 ta savol tuzulib, ular asosida ishtirokchilar bilan suhbatlar uyushtirildi. Audio shaklida yozib olingan nutqlar yozma shaklga keltirilgandan so'ng, tadqiqotning lingvistik tahlil qismiga o'tildi. Tadqiqotning yakunida esa bolalar nutqi ot va fe'llarning keng qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi va bu so'z turkumlaridan otlar faol ekanligi aniqlandi. Qolaversa, nutqga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarning bolalar nutqidagi o'rni kuzatildi.

Kalit so'zlar: spontan nutq, ot, fe'l, ot leksema, fe'l leksema, otli tillar, fe'lli tillar.

SAFAROVA GULSHODA,
Student,
Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
gulshodasafarova4@gmail.com

EXPRESSION OF WORD GROUPS IN SPONTANEOUS SPEECH OF UZBEKI CHILDREN

ABSTRACT

In this article, word groups in the speech of 5-6-year-old kindergarten children were compared, in particular, the ratio of nouns and verbs. Also, the speed and length of speech of the participants were analyzed, and the grammatical errors encountered in their speech were also determined. As a control group, 5 male and 5 female participants aged 20-40 were selected for the research group, and their speech was analyzed in the same way as children's speech. The results were compared and the reason for the differences was explained. 10 questions related to everyday life, suitable for representatives of both groups, were created, and interviews with the participants were organized based on them. After the audio-recorded speeches were transcribed, they were transferred to the linguistic analysis part of the research. At the end of the research, it was found that children's speech occurs as a result of the wide use of nouns and verbs, and nouns from these word groups are active. In addition, the role of linguistic and extralinguistic factors affecting speech in children's speech was observed.

Key words: spontaneous speech, noun, verb, noun lexeme, verb lexeme, languages with nouns, languages with verbs.

САФАРОВА ГУЛЬШОДА,
Студент,
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
gulshodasafarova4@gmail.com

ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВОВЫХ ГРУПП В СПОНТАННОЙ РЕЧИ УЗБЕКСКИХ ДЕТЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье сравнивались группы слов в речи детей 5-6 лет детского сада, в частности соотношение существительных и глаголов. Также анализировались скорость и длина речи участников, а также определялись грамматические ошибки, встречающиеся в их речи. В качестве контрольной группы для исследования были выбраны 5 участников мужского пола и 5 женщин в возрасте от 20 до 40 лет, и их речь анализировалась так же, как и речь детей. Результаты сравнили и объяснили причину различий. Было создано 10 вопросов, связанных с повседневной жизнью, подходящих для представителей обеих групп, и на их основе были организованы интервью с участниками. После того как аудиозаписи выступлений были расшифрованы, они были переданы в

лингвистическую часть исследования. В результате исследования установлено, что речь детей возникает в результате широкого употребления существительных и глаголов, причем существительные из этих словосочетаний являются активными. Кроме того, наблюдалась роль лингвистических и экстралингвистических факторов, влияющих на речь в речи детей.

Ключевые слова: спонтанная речь, существительное, глагол, именной лексемы, глагольной лексемы, языки с существительными, языки с глаголами.

KIRISH. Bolalar spontan nutqi dunyo tilshunosligi, psixolingvistikasi va neyrolingvistikasida keng o'rganilgan sohalardan biridir. Psixalingvistikada so'z o'zlashtirish jarayoni bolaning ijtimoiy muhiti va kognitiv rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligi isbotlangan. Shuningdek, otlar fe'llarga qaraganda osonroq va tezroq o'zlashtiriladi hamda bolalar nutqida ot so'zlar miqdori fe'l so'zlarga nisbatan ko'p degan xulosalarga kelingan. Bu xulosalar ko'plab tillar misolida amalga oshirilgan. Tadqiqotchilar otlarning fe'llardan oldin o'zlashtirilishining eng avvalgi bosqichi tilning universal xususiyati ekanligini ta'kidlaganlar va otning fe'lga nisbatan erta o'zlashtirilishining ikkita potensial manbasini aniqlaganlar. Ulardan biri otlarning aniq predmetni ifodalagani, fe'llarning esa harakat va holatni anglatgani hamda fe'llarga bog'langan perseptiv elementlar uyushiq emasligidir, chunki ma'no elementlari vaqt va makon bo'yicha taqsimlanishi mumkin. [Gentner D. 2006. pp. 544–564] Misol tariqasida mushukning itni tirnab, so'ngra to'rga qarab sakraganini ko'rib chiqsak. Voqea ishtirokchilari (ya'ni mushuk va it) ushbu jarayondan oldin ham keyin ham muayyan obyekt sifatida ko'rinib turadi, ammo tirnash harakati esa o'sha vaziyatdagina amalga oshiriladi va yakunlanadi. Teskari ravishda voqea ishtirokchilari esa bu jarayondan keyin ham kuzatuvchilarga ko'rinib turadi. Otlarning bunday barqarorligiga qo'shimcha ravishda, ko'pchilik otlar asosida yotgan tushunchalar fe'llarnikiga qaraganda anchayin aniq va tasviriy ekanligi aniqlanadi. [Gentner D, Boroditsky L. 2001. pp. 215–256]

Ayrimlar esa bu nuqtai nazarni to'ldirib yana qo'shimcha lingvistik dalillarni keltiradilar. Ularga ko'ra bolalar fe'llarni osonlik bilan o'rganishdan oldin ular bilan aloqaga kirishadigan otlar ro'yhatini yaratishlari kerak bo'ladi. Masalan, yuqoridagi *tirnamoq* fe'lini o'zlashtirishda va uning ma'nosini anglashda ushbu harakatga bog'liq obyektlarni ya'ni mushuk va itni aniqlashning o'zi yetarli emas, bola ular o'rtasidagi o'ziga xos munosabatni ham aniqlashi kerak bo'ladi. [Ma W, Golinkoff RM, Hirsh-Pasek K, McDonough C, Tardif T. 2009;36:405–423]

Ikkinchi potensial manbaa sifatida esa olimlarning yuqoridagilarga o'xshamagan qarashlari keltiriladi. Unga muvofiq ravishda, dastlabki otning afzalligi inson tilining universal xususiyati emas, balki uning natijasi ekanligini ta'kidladilar. Ushbu fikrni ilgari suruvchilar tillarni ikki katta guruhga bo'ladilar: ot afzalligiga ega tillar (ingliz, ispan, fransuz) va fe'l afzalligiga ega

tillar (mandarin, yapon, koreys). Tillarni bunday ikki guruhga ajratish gap orqali ifodalaniladigan ma'no bu ikki so‘z turkumining qay biri orqali ko‘proq yuzaga chiqishiga bog‘liq. Masalan, fe'lli tillar so‘zlashuvchilari o‘zlarining kundalik nutqida fe'llardan ko‘proq foydalanishadi va gapda otlar ishtirok etmasa ham fe'llar ular beradigan ma'nolarni o‘z semantik tarkibida ifodalay olishi mumkin. Bunday tillarni o‘zlashrirish jarayonida ot va fe'llarni o‘zlashtirishdagi farqlar anchayin zaiflashadi yoki umuman yo‘qolishi mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu nazariyani isbotlovchi tillararo dalillar kam. Hattoki, bu nazariya ayrim tadqiqotlarda o‘z isbotini topmagan. Bir tadqiqotda 3-5 yoshli bolalar bilan tadqiqot o‘tkazilgan bo‘lib, ular mandarin, ingliz va yapon tillarini o‘zlashtirgan. Ular tegishli test sinovlari orqali tanlab olingan bo‘lib, ularning yangi so‘zlarning qay darajada o‘zlashtirishi tekshirib ko‘rilgan. Ishtirokchilarga yangi so‘zlar (fe'llar) ikki xil: kontekstdan tashqari (pilking) va kontekstda (olmoshlar bilan birgalikda ega va kesim munosabatida). Ushbu tadqiqotdagi deyarli barcha 3 yoshli bolalar fe'llarni ular anglatgan tushuncha bilan moslashtirishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashgan. 5 yoshli bolalar esa qisman natija ko‘rsatishgan. Natijalarga ko‘ra 5 yoshli yapon tilini o‘zlashtirgan bolalar yangi fe'llarni kontekstdan ajratilgan holda, 5 yoshli ingliz tilini o‘zlashtirgan bolalar esa so‘zlarni olmoshlar bilan kelgan kontekstda to‘g‘ri moslashtira olganlar. Mandarin tilini o‘zlashtirgan bolalar esa deyarli nol ko‘rsatkich qayd etishgan va bu ko‘rsatkichlar bolalar tilni o‘zlashtirib bo‘lganlaridan keyin qayd etilgan ya'ni tadqiqot o‘tkazilgan vaqtda bolalarning lug‘at boyligi bir qancha ot va fe'l leksemalar bilan boyib bo‘lgan. Ushbu tillararo ekspremental dalillar 3ta muhim yangi ma'lumot yaratdi. Birinchidan, fe'l afzalligiga ega tillar fe'llarni o‘zlashtirishda qo‘shimcha natija qayd etmasligi ayon bo‘ldi. Barcha tillar otlarni obyektlar bilan moslashtirishda muvaffaqiyatli fe'llarda esa qiyinchilikka duch kelishdi. Ikkinchidan, fe'lli tillar bir xil emasligi aniqlandi. So‘nggisi esa, harakat va obyekt talqini bir-biriga qarshi bo‘lgan yangi so‘zlarni o‘rganishda barcha bolalar qiynalishadi. [Imai M, Li L, Haryu E, Okada H, Hirsh-Pasek K, Golinkoff R, Shigematsu J. 2008;79:979–1000.] Fe'llarni harakatlar bilan moslashtirish va uni to‘g‘ri ma'noda o‘zlashtirish bolalar o‘z nutqida ularni qay tarzda qo‘llashi bilan ham bog‘liq bo‘lib bola so‘zni to‘g‘ri o‘zlashtirsa uning nutqida grammatik va so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatoliklar kuzatilmasligi mumkin. Bu biz tadqiqotimiz orqali aniqlamoqchi bo‘lgan aspektlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, M. Querido, A. Manhani va D. Marialarning “Nouns and verbs used by preschoolers with language impairment” nomli maqolasida ham bolalar nutqida ot va fe'llar nisbati batafsil tushuntirib berilgan. Ushbu tadqiqotda til buzilishi kasalligiga chalingan bolalarning til o'zlashtirishi va tildan foydalanishi asosiy masala sifatida o'rganilgan bo'lsada, biz bu maqolada o‘z tadqiqotimizga bog‘liq bo‘lgan qator masalalar yoritilganini aniqladik. Chunki 20 nafar bemor bolaga nisbatan nazorat guruhi sifatida 60 nafar sog'lom, bog‘cha bolalar nutqi tahlil etilgan va ularning spontan nutqida qo'llanilgan ot va fe'l so‘z turkumiga oid birliklar ajratib olinib, o‘zaro solishtirilgan. Umumiy

xulosalarga koʻra, fe'llar til buzlishi bilan kasallangan bolalar nutqida koʻproq foydalanilgan boʻlsada, ot soʻzlar ikkala guruh ishtirokchilari nutqida fe'llarga nisbatan ustunlikka ega. Shuningdek, oʻtimli feʻllar barcha bolalar nutqida oʻtimsizlarga qaraganda sezilarli darajada koʻp qoʻllanilgan.

Tadqiqotchilar bu holatlarni quyidagicha izohlaydilar:

1) til buzilishidagi bolalar gap tarkibida fe'lga bogʻlanib kelgan uyushiq boʻlaklar mavjud boʻlsa, ular har bir uyushgan soʻz bilan fe'lni qayta-qayta ishlatishgan. Odatiy rivojlanishdagi bolalar esa, barcha uyushiq boʻlaklardan soʻng fe'lni bir marotaba qoʻllashgan, chunki ular ongida grammatik strukturalar bemor bolalarnikidan mustahkamroq va aniqroqdir. Shuningdek bemor bolalarda nutq tezligi anchayin past boʻladi, bu ham oʻz navbatida har bir uyushgan soʻz izidan fe'lning takrorlanishiga sabab boʻladi;

2) otlarning nutqda ko'pligi, eng avvalo Portugal tilidagi fe'llarning murakkab strukturali, otlarning esa soda strukturali ekanligidandir. Bunday holatda bolalar uchun otlardan foydalanish qulayroq boʻladi. Qoʻshimchasiga, otlar atrof-muhitda mavjud predmetlar, shaxslar nomi, fe'llar esa muayyan harakat-holatlar nomini bildiradi. 3-5 yoshli bolalar uchun kundalik turmushda koʻrgan, foydalangan va ushlab his qilib koʻrgan narsalar va shaxslar eslab qolishga oson, chunki bu soʻzlar bilan bogʻliq assotsatsiyalar bolaning ongida yetarlicha mavjud. Fe'llarni oʻzlashtirish va oʻz nutqida qoʻllash bolalarda otlarga nisbatan sekinroq kechadi;

3) oʻtimsiz fe'llarning oʻtimlilardek bolalar nutqida faol emasligi Portugal tilida oʻtimli fe'llar sonining koʻpligi va bolalar uchun fe'lni shaxs yoki narsalarga bogʻlab ifodalash qulay va oson boʻlgani uchundir.

Ushbu xulosalar orqali bolalar nutqining bir qator xususiyatlarini bilishga va oʻzbek bolalari bilan qisman boʻlsada solishtirishga muvaffaq boʻldik. Turli tillarda gaplashuvchi bolalar nutqi xususiyatlarini oʻzaro taqqoslash – insoniyatning til oʻzlashtirishi va qoʻllashidagi umumiy jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

METOD. Bu tadqiqot jarayoni 20 ta qatnashchilarni tanlab olish bilan boshlandi. Bunda 10 nafar 5-6 yoshli bogʻchada tarbiyalanuvchi ishtirokchilarni asosiy tajriba guruhi sifatida yigʻib olindi (1-jadval). Bu guruh natijalarini solishtirish uchun esa 20-40 yosh oraligʻidagi ishtirokchilar nazorat guruhi sifatida toʻplandi (2-jadval).

1-jadval. Tajriba guruhi qatnashchilari

T/R	Ishtirokchi nomi	Jinsi	Tajriba vaqtidagi yoshi	Oilada nechanchi farzand	Turar joyi
1.	Aslbek	Erkak	6	2 tadan 2chi	Toshkent
2.	Madina	Ayol	6	2 tadan 1chi	Toshkent
3.	Mohira	Ayol	5	2 tadan 1chi	Toshkent
4.	Mubina	Ayol	6	3 tadan 2chi	Toshkent
5.	Muslima	Ayol	5	2 tadan 1chi	Toshkent
6.	Oybek	Erkak	6	5 tadan 3chi	Toshkent
7.	Zamira	Ayol	5	3 tadan 3chi	Toshkent
8.	Iymona	Ayol	5	4-farzand	Qashqadaryo
9.	Malak	Ayol	5	1 ta farzand	Buxoro
10.	Sherzod	Erkak	5	3 tadan 3chi	Toshkent

2-jadval. Nazorat guruhi qatnashchilar

T/R	Ishtirokchi nomi	Jinsi	Tajriba vaqtidagi yoshi	Kasbi	Ma'lumoti	Turar joyi
1.	OQ	ayol	20	talaba	tugallanmagan oliy	Qashqadaryo
2.	TM	ayol	27	kotiba	o'rta	Samarqad
3.	SSh	ayol	26	uy bekasi	o'rta	Qashqadaryo
4.	AF	erkak	38	haydovchi	o'rta	Qashqadaryo
5.	QA	erkak	22	talaba	tugallanmagan oliy	Samarqand
6.	EZ	ayol	24	o'qituvchi	oliy	Qashqadaryo
7.	MI	erkak	32	yoshlar yetakchisi	oliy	Qashqadaryo

8.	HI	erkak	20	kutubxonachi	tugallanmagan oliy	Andijan
9.	AA	erkak	21	talaba	tugallanmagan oliy	Toshkent
10.	TD	ayol	25	talaba	tugallnmagan oliy	Buxoro

Ma'lumki, nutq yaratish jarayonida til bilimlaridan tashqari boshqa bir nechta omillarning ham inson nutqiga alohida ta'siri bor. Xususan, shaxs yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi kabilar. Shu boisdan ham biz tadqiqotimizda bolalarning yoshi, jinsi, oilada nechanchi farzand ekanligi va yashash hududlarini keltirib o'tdik, katta yoshli qatnashchilarda esa ularning kasbi va ma'lumoti ham berildi. Bu ma'lumotlar tahlil ostiga olingan tamoyillarga qanchalik ta'sir etganini sharhlandi.

So'ngra, har ikki guruh erkin javob bera olishi uchun qiyin bo'lmagan, kundalik turmushga oid savollar tuzib olindi. Bu savollar suhbat jarayonida ishtirokchilarga moslab, ma'nosini saqlagan holda ba'zi o'zgartirishlar bilan berildi.


1. Kun tartibingiz qanday?
2. Qanday kiyimlarni yoqtirasiz?
3. Oila a'zolaringiz haqida gapirib bering.
4. Eng oxirgi tug'ilgan kuningizni qanday nishonlagansiz?
5. Oilaviy qilgan sayohatingiz haqida aytib bering.
6. Telefonda qanday o'yinlar o'ynaysiz?
7. O'zbek telekanallaridan qaysilarini kuzatib turasiz va aynan qaysi telekorsatuvlar sizga yoqadi?
8. Bog'chada nimalar qilasiz?
9. Sog'lig'ingiz bilan bo'lgan muammoni aytib bering.
10. Qaysi kasb egasi bo'lishni xohlaysiz?


Suhbat ishtirokchilar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning rozilgi bilan audio yozish uskunasiga yozib olindi. 4 nafar bolada esa suhbat jarayoni ularning oila a'zolari tomonidan uyishtirilgan. Suhbat oila a'zolari tomonidan tashkillashtirilgan ikki ishtirokchi esa videoga olingan. Bunday 2 xil usulda ovoz yozish orqali biz ekstralingvistik omillarning nutqga bo'lgan ta'sirini bilishni maqsad qilib qo'ydik. Tayyor audio matnlar yozma shaklga keltirildi, so'ng ularning tadqiqotga yaroqli 200 ta so'zdan iborat qismi ajratib olindi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda o'z lingvistik bilim-ko'nikmalarimizga tayangan holda matnlarni quyidagi tamoyillari asosida tadqiq etdik:

- otlar va ot leksemalar
- fe'llar va fe'l leksemalar
- tuslangan fe'llar
- ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalar
- grammatik xatoliklar

- o'rtacha nutq tezligi
- o'rtacha nutq uzunligi

NATIJALAR. Ishtirokchi nutqlarini tahlil qilib, aytishimiz mumkinki, otlar fe'llardan ko'ra ikkala guruh ishtirokchilari nutqida ko'proq ishlatilgan.





Albatta, bu ko'rsatkich o'rta qiymat asosida chiqarilgan. Ba'zi ishtirokchilar nutqida farqli holatlar ham mavjud. Yuqoridagi grafik umumiy so'zlar soniga nisbatan otlar va fe'llar miqdori asosida chiqarildi.

M: umumiy so'z soni 200 -------100%
Otlarning o'rtacha qiymati 63.7-----X%
Fe'llarninig o'rtacha qiymati 55.5----X %
Boshqa so'zlar 200-(63.7+55.5) 80.8 ---X%


Har bir ishtirokchi nutqining alohida tahlil natijalari quyidagi jadvallarda batafsil keltirildi:

5-6 yoshli ishtirokchilar											
Ishtirok-chilar nomi	**Aslbek**	**Madina**	**Mohira**	**Mubina**	**Muslima**	**Oybek**	**Zamira**	**Iymona**	**Malak**	**Sherzod**	**O'/Q**
Otlar	54	58	75	60	70	50	55	80	94	41	**63.7**
Ot leksemalar	26	41	51	32	45	33	37	50	47	29	**39.1**
Fe'llar	64	67	63	78	42	48	53	32	55	53	**55.5**
Fe'l leksemalar	35	30	37	33	22	23	30	24	19	32	**28.5**
K.F.S. Q	7	5	6	4	6	10	7	2	2	3	**5.2**
Tuslangan fe'l	46	49	39	64	46	38	37	30	38	41	**48.2**
Tuslanmagan fe'l	18	18	24	14	4	10	16	2	17	12	**24.31**
Nutq tezligi	71.6	65.3	57.3	54.6	69,3	64.5	60.3	53	45.5	50.5	**59.2**

O‘rtacha gap uzunligi	13,68	11.6	14.9	20	13.87	16.37	10.13	7.5	9.74	7.4	**12.5**
Grammatik xató gaplar	7	4	2	4	1	_	3	4	4	_	**3**

	20-40 yoshli ishtirokchilar										
Ishti-rokci-lar nomi	**OQ**	**TM**	**SSh**	**AF**	**QA**	**EZ**	**MI**	**HI**	**AA**	**TD**	**O‘/Q**
Otlar	56	66	41	62	55	72	63	79	70	63	**62.7**
Ot leksemalar	36	44	33	35	44	53	36	44	47	41	**41.3**
Fe’llar	63	46	55	49	37	43	40	41	45	63	**48.2**
Fe’l leksemalar	46	31	26	32	25	27	25	26	31	37	**30.6**
Tuslangan fe‘llar	37	28	37	31	21	25	27	24	28	41	**29.9**
Tuslanmagan fe’llar	26	18	18	18	16	18	13	17	17	22	**38**
Ko‘makchi fe’llar	1	2	4	8	3	7	7	7	4	6	**4.9**
Nutq tezligi	102 m/s	98.5 m/s	58s/m	52s/m	83.3 s/m	88.5 s/m	89s/m	69.4 s/m	70.3 s/m	76.5s/m	**78.7**
O‘rtacha gap uzunligi	13.4	13,6	15.54	17.96	15.28	12.46	14.2	18.85	22.41	11.1	**15.48**
Grammatik xató gaplar	3	7	10	4	4	6	2	2	3	5	**4.6**

Shundan so‘ng ikkala guruh qatnashchilarining o‘rtacha qiymatlarini yaqqol taqqoslay olish uchun maxsus diagramma ishlab chiqdik:



MUHOKAMA. Ushbu tadqiqotni o‘tkazishimizdan asosiy maqsad - bolalar nutqining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ot va fe’llar nisbatini taqqoslashdir.

1- diagrammadan ko‘rinib turganidek, har ikki guruh uchun ot va fe’llar spontan nutq yaratish jarayonida boshqa barcha so‘z turkumlarining [Abjalova, Iskandarov] umumiy miqdoridan 1,5 barobar ko‘p qo'llanilgan. O‘zaro ot va fe’llar nisbatida esa otlar biroz ustunlikka ega. Bilamizki, har qanday nutq tarkibida barcha so‘z turkumlari mavjud, ammo ot va fe’llarning ustunligi bu so‘z turkumlari o‘zbek tili lug‘at boyligida yetakchi o‘rinda turadi. Shuningdek, til o‘zlashtirishning ilk davrlarida ot va fe’llarning yuqori darajada bolalar leksikasidan o‘rin oladi va eng asosiysi, insonlar o‘z fikrini ot va fe’llar bilangina ham qiyinchiliksiz ifodalashi mumkin. Bu Munavvara Qurbonovaning “O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi” monografiyasida ham o‘z isbotini topgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, tadqiq guruhi ishtirokchilari orasida Sherzod ismli qatnashchigina fe’llarni otlarga nisbatan ko‘proq qo‘llagan (53-41). Oybek va Zamirada esa bu ko‘rsatkichlar deyarli farqlanmaydi. Shuningdek, bu kabi holatlar nazorat guruhi ishtirokchilarida ham uchraydi: O. Q va S. Sh da fe’llar dominant bo‘lsa, T.D da ular teng qo‘llanilgan.

O‘rtacha qiymatlarni taqqoslash orqali shuni aytamizki, kattalar nutqida ot leksemalar va fe’l leksemalar bolalarnikidan yuqoridir. Buning asosiy sababi kattalar leksikasining bolalarnikiga qaraganda miqdor jihatdan ortiqligidadir. 6 yoshli bolaning so‘z boyligi 3-3500 tani tashkil etadi. [Qurbonova M. 19-b] Ammo, bolalar otlar va fe’llarni kattalarga qaraganda ko‘proq qo‘llashgan. Bu holat nomuvofiqdek tuyilsa ham aslida mantiqan o‘z asosiga ega, chunki kattalar nutqida boshqa so‘z turkumlaridan ham unumli foydalanganlar. (1-diagramma)

Qolaversa, tadqiq guruhi nutqidagi umumiy fe’llar sonining asosiy qismi tuslangan fe’llar hisoblanadi, bu ko'rsatkich nazorat guruhi qatnashchilari nutqida kamroq. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: bolalar nutqida fe’l, asosan, gapning kesimi vazifasida keladi, biroq, leksik va grammatik bilimlari

anchayin shakllangan katta yoshli ishtirokchilar fe'llarni uning vazifa shakllari (harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh) dan foydalanib turli gap bo‘laklari sifatida qo‘llashgan. O‘zbek tilida otlashgan sifatdoshni gapda qo‘llash semantik jihatdan fe'lga tegishli, funksional jihatdan sifatga tegishli, grammatik jihatdan otga tegishli lisoniy birliklarni faollashtirib, ularni bitta ifodaga jamlay olish degani. Ravishdosh shaklining qo‘llanishi esa gap davomida shaxs-son va zamonda tuslangan fe'l qatnashishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda o‘zbek tilida gapirayotgan kishi ravishdosh shaklini qo‘llar ekan, o‘z gapida birdan ortiq fe'l yordamida ifodalanadigan harakat yo holatni aytishni maqsad qilgan bo‘ladi. [Azimova I. 97-103]

Nutq uzunligi va tezligi ham 20-40 yoshli shaxslarda anchayin yuqori. (3-4-jadval). Tadqiqot davomida shuni aniqladikki, bolalar nutqida nutq tezligi gaplarni tuzishda xatoliklarni hosil bo‘lishida o‘z ta'siriga ega. Xususan, bolalar orasida eng tez nutq (71,6 s/m) ni qayd etgan ishtirokchi Asilbek o‘z nutqida 7 marotaba xatolikka yo‘l qo‘ygan. Bu ko‘rsatkich boshqa bolalarnikidan sezilarli darajada farqlidir. Ammo kattalar nutqida aksincha holatlarni ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, S. Sh ishtirokchi nutq tezligi anchayin sekin bo‘lsada, nutqiy xatoliklarga ega (10 ta). Lingvistik bilimlarning yetishmasligi ushbu holatni keltirib chiqargan deyishimiz mumkin. Sababi bu ishtirokchimiz o‘rta ma'lumotli edi. Qarama-qarshi ravishda, O.Q filologiya sohasida tahsil olayotganligi tufayli uning nutqining tezligi (102s/m) xatoliklarga sabab bo‘lmagan.

Ekstralingvistik omillarning nutqga ta'sirini o‘rganganimizda shuni guvohi bo‘ldikki, suhbat o‘z oila a'zosi tomonidan uyushtirilgan bo‘lsa ham Iymona (53s/m) va Malakning (45,5s/m) nutq tezligi boshqa bolalarnikiga qaraganda past natija ko‘rsatgan. Sababi bu ikki ishtirokchi to‘g‘ridan to‘g‘ri video olish moslamasi qarshisida intervyu berishgan edi.

Qiziqarli jihati shundaki, har ikki guruh a'zolari nutqida o‘rtacha hisobda ko‘makchi fe'lli so‘z qo‘shilmalari soni teng, albatta bu ko‘rsatkich ishtirokchilarning o‘zaro nutqida keskin farqlanadi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot yakunida biz bir necha xulosalarga keldik. Ot va fe'llar bolalar spontan nutqida eng ko‘p qo‘llaniluvchi so‘z turkumlaridir. Ot va fe‘llar nisbatiga keladigan bo‘lsak, otlar fe'llarga qaraganda ko‘proq qo‘llanilgan va leksema jihatidan olib qarasak, bolalar nutqida ot va fe'l leksemalar kattalarnikidan biroz kam qo‘llaniladi. Bolalar, asosan, fe'llarni aniq, tuslangan fe'l shaklida qo‘llaydilar. Ekstralingvistik omillar nutq tezligiga ta'sir etadi. Xato birliklar o‘z nutqini tez ifodalagan bolalar nutqida ko‘proq kuzatiladi

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.5

2. Azimova I. O‘zbekcha agrammatik spontan nutqda bog‘lama va funksional fe’l shakllarining ifodalanishi. Lingvist (ilmiy maqolalar to‘plami) *VI* (in Uzbek). (Copula and non-finite verb forms in Uzbek agrammatic speech. *Linguist (collected papers) VI*). – Toshkent, 2015. – P. 97-103.

3. Gentner D. Why verbs are hard to learn. In: Hirsh-Pasek K, Golinkoff R, editors. Action meets word: How children learn verbs. Oxford University Press; 2006. pp. 544–564.

4. Gentner D, Boroditsky L. Individuation, relativity, and early word learning. In: Bowerman M, Levinson S, editors. Language acquisition and conceptual development. New York: Cambridge University Press; 2001. pp. 215–256.

5. Ma W, Golinkoff RM, Hirsh-Pasek K, McDonough C, Tardif T. Imageability predicts the age of acquisition of verbs in Chinese children. Journal of Child Language. 2009; 36:405–423.

6. Imai M, Li L, Haryu E, Okada H, Hirsh-Pasek K, Golinkoff R, Shigematsu J. Novel noun and verb learning in Chinese-, English-, and Japanese-speaking children. Child Development. 2008; 79:979–1000.

7. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. T: -TDPU, 2014. -146

8. Marianne Q, Manhani A, Debora M. Uso de substantivos e verbos por pré-escolares com alteração específica de linguagem. Journal of Artigo Original. 2016. P 28(4) : 362–368.

TIL, TA’LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

T A’ L I M SH U N O S L I K

NARZIYEVA MA’MURA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti dotsenti
Samarqand, O‘zbekiston
narziyevamamura164@gmail.com

ADABIYOT DARSLARIDA PORTRET VA PEYZAJNI O‘RGATISH YO‘LLARI
(O‘tkir Hoshimov asarlari misolida)

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda xalqimiz tomonidan yaratilgan tarixiy, ilmiy, ma’naviy, adabiy-badiiy merosini targ‘ib qilish va ularni yoshlar ongiga singdirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu mas’uliyatli vazifani ado etishda adabiyotning o‘ziga xos o‘rni bor. Shu tufayli ham bugungi kunda maktab, litsey, oliy ta’lim muassasalarida adabiyot o‘qitish mazmuniga alohida e’tibor qaratish, darsni tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda ta’lim sifatini oshiruvchi bir qator ijodiy usullardan foydalanish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati haqida so‘z boradi. Insonning 68poetik tasavvurini hamda Alloh tomonidan in’om etilgan buyuk ne’mat – tafakkurni boyitish imkonini beradigan adabiyot fani doirasida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan metod va usullar tahlil qilinadi. Adabiyot darslarida portret va peyzajni o‘rgatishning samarali yo‘llari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, adabiyot, portret, peyzaj, obraz, personaj, usullar, metod.

NARZIEVA MAMURA,
Associate Professor
Samarkand State University
named after Sharof Rashidov
Samarkand, Uzbekistan
narziyevamamura164@gmail.com

TEACHING PORTRAIT AND LANDSCAPE IN THE LESSONS ON LITERATURE
(Based on the example of the works of Utkir Hashimov)

ABSTRACT

In recent years, in our country, great attention has been paid to promoting the historical, scientific, spiritual, literary and artistic heritage created by our people and instilling them in the minds of young people. Literature has a unique role in fulfilling this responsible task. Due to this, today in schools, lyceums, higher educational institutions, paying special attention to the content of teaching literature, using modern educational technologies, interactive methods, and a number of creative methods that increase the quality of education in the organization of lessons remains one of the priority tasks.

This article deals with the main essence of pedagogical technologies. Methods and methods that should be used within the framework of literary science are analyzed to enrich the poetic imagination of a person and the great blessing given by God - thinking. Information about effective ways to teach portraiture and landscape is given in literature classes.

Key words: Modern educational technologies, literature, portrait, landscape, image, character, methods, method.

НАРЗИЕВА МАМУРА,
Доцент
Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова
Самарканд, Узбекистон
narziyevamamura164@gmail.com

ОБУЧЕНИЕ ПОРТРЕТУ И ПЕЙЗАЖУ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ
(На примере произведений Уткира Хашимова)

АННОТАЦИЯ

В последние годы в нашей стране большое внимание уделяется пропаганде исторического, научного, духовного, литературного и художественного наследия, созданного нашим народом, и привитию его в сознании молодежи. Литературе принадлежит уникальная роль в выполнении этой ответственной задачи. Благодаря этому сегодня в

школах, лицеях, высших учебных заведениях сохраняется особое внимание к содержанию учебной литературы, использованию современных образовательных технологий, интерактивных методов, ряда творческих методов, повышающих качество образования в организации уроков. одна из приоритетных задач.

В данной статье говорится об основной сущности педагогических технологий. Анализируются методы и приемы, которые следует использовать в рамках литературоведения для обогащения поэтического воображения человека и великого дарованного Богом блага – мышления. Информация об эффективных способах обучения портрету и пейзажу дается на уроках литературы.

Ключевые слова: Современные образовательные технологии, литература, портрет, пейзаж, образ, персонаж, методы, метод.

Badiiy adabiyot inson ruhiyati, tafakkuri, sezimlari, irodasi va tasavvur olamiga hech qanday zo‘rlovlarsiz mutlaqo erkin tarzda juda kuchli ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham u insondagi dunyoqarash, axloq, e’tiqod, siyosiy va badiiy qarashlar tizimi singari shaxslikka doir xususiyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Adabiyotning yuksak namunalari o‘z davrining buyuk ruhiy yilnomalarigina bo‘lib qolmay, eskirmas va nuramas tarbiya vositasi ham sanaladi. Shu boisdan ham boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida badiiy adabiyotga, xususan, adabiyot faniga ruhiy kamolot vositasi, odoblar xazinasi sifatida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar-ta’lim oluvchilar aynan badiiy adabiyot orqali o‘zlarida ezgu ma’naviy sifatlarni qaror toptiradilar.

Adabiyot tarixining ilk bosqichlaridan e’tiboran juda uzoq davrlar mobaynida uning tarbiyaviy vazifasi yaqqol ko‘zga tashlanadigan yo‘sinda juda ochiq amalda bo‘ldi. Keyinchalik, ya’ni badiiy adabiyot injalashib, o‘qirmanlarning tafakkur, tuyg‘u, sezim va kechinmalari noziklashgani sari badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi tobora yashirin ko‘rinish ola bordi. Bugungi kunda adabiyot chaqiriq, da’vat vositasida emas, balki o‘qirmanlarga muayyan hayotiy-insoniy, ruhiy-axloqiy manzarani ta’sirli ko‘rsatib berish orqali ularga munosabat uyg‘otish yo‘li bilan o‘zining tarbiyaviy vazifasini o‘tab kelmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, adabiyotning funksiyalari nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari, balki rus adabiyotshunoslari tomonidan ham sinchiklab o‘rganilgan. Ayniqsa, rus adabiyotshunosi A.Lilov o‘zining “Adabiyot va san’atning kommunikativ funksiyasi” nomli maqolasida adabiyotning funksiyalariga alohida to‘xtalib o‘tadi. Olimning fikricha, badiiy adabiyot

1) ma’rifiy;
2) kommunikativ;
3) aksiologik;
4) genodistik;

5) tarbiyaviy kabi funksiyalarga ega [3. B.223-225].

Demak, badiiy adabiyot nafaqat tarbiya vositasi, balki o‘zi yaratilgan davrning in’ikosi hamdir. U o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy manzaralari haqida to‘la-to‘kis ma’lumot bera oladi.

“Adabiyot – ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi. Quyosh, havo, yer, suv barcha jonivor va ko‘katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste’dodli, uning qalam tutgan qo‘li qanchalik tajribali bo‘lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo‘ladi, uning ijodini, umuman, adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi”[1]. Mana shunday yozuvchilar safiga esa hech ikkilanmay O‘tkir Hoshimovni ham kiritishimiz mumkin. Shu boisdan ham umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yozuvchining ijodi 5-sinfdayoq o‘rganiladi. Ta’limning quyi bosqichidan o‘quvchilar ijodkorning asarlarini o‘qib, tahlil qila boshlaydilar.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda xalqimiz tomonidan yaratilgan tarixiy, ilmiy, ma’naviy, adabiy-badiiy merosini targ‘ib qilish va ularni yoshlar ongiga singdirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu mas’uliyatli vazifani ado etishda adabiyotning o‘ziga xos o‘rni bor. Shu tufayli ham bugungi kunda maktab, litsey, oliy ta’lim muassasalarida adabiyot o‘qitish mazmuniga alohida e’tibor qaratish, darsni tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda ta’lim sifatini oshiruvchi bir qator ijodiy usullardan foydalanish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari xoh ta’lim mazmuni, xoh o‘quv dasturi yoki darslik, xoh o‘qituvchi faoliyati orqali o‘tishidan qat’iy nazar o‘quvchining jonli tarzdagi erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati har bir o‘quvchida mavjud bo‘lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi. Bundan tashqari ta’lim tizimida bir qator natijalarga erishish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchining mahorati esa darsni aniq rejalashtirishda ko‘rinadi. Ayniqsa, adabiyot darslarini yaxshi tashkil qilish ta’lim oluvchilarning milliy tafakkurini yanada yuksakka ko‘taradi.

Adabiyotga nafaqat dars sifatida, balki isonning estetik talablarini qondiruvchi, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlantiruvchi san’at turi deb ham qaraladi. Shu bois ham boshqa fanlardan farqli o‘laroq, adabiyot darsi o‘qituvchidan ko‘proq malaka, iste’dod, mehnat talab qiladi.

“Insonga xos xususiyatlar bevosita ruhiyat bilan bog’liq bo‘lgani uchun ham bugun ma’naviyat tarbiyasi mamlakat miqiyosidagi muhim vazifaga aylandi. Ma’naviyatni tarbiyalash esa maktabda asosan adabiy ta’lim tizimi zimmasiga yuklanadi. To‘g’ri, barcha o‘quv fanlari zimmasida ma’lum darajada ma’naviyatni shakllantirish vazifasi bor. Biroq, adabiy ta’lim bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning tadqiqot obyektining o‘zi – inson. Adabiyot

darslarida odamning ichki olami, his-tuyg'ulari, kechinmalari, hayajonlari, iztiroblari o'rganiladi, tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi. Inson umri davomida turli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari aniqlanadi, muammolarning yechimi ustida o'yga tolinadi"[2. B.46]

Bizga ma'lumki, adabiyot insonning 72poetik tasavvurini hamda Alloh tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat – tafakkurni boyitish imkonini beradi. Har bir davrning chinakam olimlari, yozuvchilari, mutafakkirlari va o'z tarixchilari bo'ladi. Oradan yillar o'tsa-da, ular yaratgan ilmiy-ma'naviy meros o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Xalqimizning sevimli adibi O'tkir Hoshimov ham mana shunday o'zidan boy adabiy meros qoldirolgan yozuvchilar qatoriga kiradi. Ijodkorning badiiy mahorati shundaki, u inson boshiga tushgan eng qayg'uli voqea-hodisalarni tasvirlaganda ham o'quvchisi qalbida umidbaxsh tuyg'ular uyg'ota oladi, natijada u hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Bu xususiyat adibning hikoyalariga ham, qissa-yu romanlariga ham xos. Chunki yozuvchi har bir asarning mazmuniga mos umidbaxsh ohangni topib oladi.

Yozuvchining umumta'lim maktablari 5-6-sinf adabiyot darsliklarida berilgan "Dunyoning ishlari" qissasi ona haqidagi takrorlanmas, o'ziga xos uslubda yozilgan qissadir. Qissa orqali o'quvchi yozuvchining hayot yo'li: bolaligi, yoshligi, yigitlik davri xotiralari, eng muhimi, onasi haqidagi voqealar bilan yaqindan tanishadi. Onaning inson hayotidagi o'rni, farzandning onasi oldidagi uzib bo'lmas qarzlari haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi.

"Dunyoning ishlari" qissasining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, qissada o'quvchilar ona allasining ilohiy sehri haqida bilib olishadi. Yozuvchi ona allasi qaysi 72oeti jaranglamasin, unda qalbni asir etadigan ilohiy sehr mavjudligini ta'kidlaydi. Ijodkor ushbu qissasi orqali o'quvchi qalbiga onalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, ehtiromni olib kirishga muvaffaq bo'ladi.

"Bugungi adabiy ta'lim metodikasi o'quvchining u yoki bu badiiy asarni o'qib, tushunishining o'zini yetarli emas deb hisoblaydi. O'quvchi asarga yangicha yondasha bilishi kerak" [2. B.78] Buning uchun esa o'quvchi badiiy obraz yaratishning eng muhim vositalari sanalgan portret va peyzaj tushunchalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Bizga ma'lumki, portret va peyzaj tushunchalarini bog'lab turgan birgina so'z bu – tasvirdir. Portret obrazlarning tashqi va ichki tasviri bo'lsa, peyzaj esa tabiat tasviridir. Adabiyot darslarida o'quvchilarning diqqatini 72oetic tasvirlarga qaratish, ularning tasavvurini boyitishga olib keladi.

Adabiyot dasrlarida badiiy asarlar ustida ishlashdan ko'zlangan maqsad, bir o'rinda asar zamiriga singdirilgan fazilatlarni o'quvchilar qalbida uyg'otish bo'lsa, bir o'rinda o'quvchilarni ijodkorlarning badiiy uslubi, mahorati bilan tanishtirishdir. Yozuvchi va shoirlarning badiiy mahoratini tadqiq qilishda ularning portret va peyzaj yaratish usullari alohida o'rin egallaydi.

Adabiyot darslarida O'tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan portret va peyzajlarni bir qator usullar yordamida o'rgatish mumkin. Dastlab "Men kimman" usulidan foydalanamiz. Bu usul orqali asosan yozuvchi tomonidan yaratilgan obrazlar tasviri o'rganiladi. Badiiy asar matnidagi tasvir o'sha obraz

tilidan o‘qib beriladi. Qolgan o‘quvchilar esa bu tasvir qaysi obrazga tegishli ekanligini topishlari lozim bo‘ladi. Masalan:

– *Men tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko‘ylak kiyib, chuchvaranusxa bo‘yinbog’ bog’lab yuradigan odamman.*
– *Yoshim oltmishga borib qolgan bo‘lsayam, kelinlardek yasanib olganman. Egnimda qora atlasko‘ylak. Bo‘ynimda dur. Qulog’imda oltin baldoq, chiroyli, qayrilma qoshimga bilinear-bilinmas o‘sma qo‘yganman.*

Badiiy obrazning tasviri o‘qib berilgandan so‘ng o‘quvchilar ushbu obraz haqida ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi. Mazkur usul o‘quvchilarning tasavvuriniboyitadi, chuqur mushohada qilishga o‘rgatadi.

O‘tkir Hoshimovning portret va peyzaj yaratish mahoratini “Taqqoslash” metodi orqali ham o‘rgatish munkin. “Bu yangi bilim va tushunchalarni o‘zlashtirishda keng qo‘llaniladigan ta’lim metodi hisoblanadi. Yangi o‘zlashtiriladigan bilimlarni avvalgilari bilan taqqoslash usuli, o‘z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko‘rinishidir. Taqqoslash metodi asosida o‘quvchilarda sinfdoshlarining isbot va dalillariga o‘zlarining mantiqiy qarashlarini qarshi qo‘yishga intilishlari yotadi.

Mavzularni taqqoslash asosida isbotlashning o‘quvchi tomonidan o‘quv materialini tanlash ham, uning o‘quvchilar tomonidan egallanishi ham juda qiyin kechadi. Sababi, bu usuldan hamisha har xil vaziyatlarda, holatlarda foydalanishga to‘g‘ri keladi. Qiyin mavzularni taqqoslab o‘zlashtirish bilim egallashda unchalar qiynalmaydigan o‘quvchidan ham anchagina fikriy zo‘riqishni talab qiladi. Adabiyot darslarida bu metoddan foydalanilganda o‘qituvchi o‘quvchilardan matnda mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko‘rsatishni talab qilishi ham mumkin.

“Taqqoslash” metodi yordamida portret yaratish usuli o‘rganilganda ijodkorlar tomonidan yaratilgan aynan bir xil manzaralar yoki obrazlar tasviri tahlil ostiga olinadi. Masalan: Abdulla Oripov hamda O‘tkir Hoshimov asarlaridagi bahor faslining tasvirlari o‘zaro qiyoslanadi.

Bilamizki, kuz fasli har qanday badiiy asar uchun obyekt bo‘la oladi. Shoir-u yozuvchilar bu oltin faslini o‘zgacha ruhda tasvirlaydilar. Dastlab atoqli shoirimiz, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she’rlariga nazar tashlaymiz:

Kuzak shamollari esdilar yana
Sokin yuragimda tuyg’ular qo‘zg’ab.
Kelgil, parivashim, kelgil jimgina,
Kelgil samolardan mezonga o‘xshab.
Oqshom tumanida kezaylik xushhol,
To‘ngan yulduzlarga boqaylik to‘yib.
Shivalagan yomg‘ir, daydigan shamol,
Mayli, izimizni ketsinlar yuvib
Bog‘larda xazonlar shovillar quyuq,
Ular soyalardir, jonginam, faqat [4. B.30].

Shoir kuz tasvirini to‘laroq ifodalashda matnga mezon, yulduz, yomg’ir, daydi shamol, xazon obrazlarini olib kiradi. Bu obrazlar o‘zaro birlashib, kuzning to‘polonli, yomg‘irli, shamolli 74oetic manzarasini hosil qiladi.

O‘tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan kuz tasvirini tahlil qilar ekanmiz, uning mudragan tonglar, junjikkan seryulduz oqshomlar, qat-qat bulutlar vositasida 74oetic tasvir hosil qilganining guvohi bo‘lamiz: *Bo‘ston qishog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo‘ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig‘ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. Havoda yong‘oq xazonlarining o‘tkir hidi gurkiradi. Yoz bo‘yi meva tugish dardida yashagan bog‘lar, shodon shovullagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o‘ychan, g‘amgin bosh egadi. Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi* (“Bahor qaytmaydi”) [1. B.5].

Har ikkala ijodkor ham kuz tasvirini yaratar ekan, yulduz, oqshom, tuman, shovullamoq kabi so‘zlarga murojaat qiladi. Qolaversa, nazmdagi kuz tasvirida ham, nasrdagi manzarada ham jonlantirish yetakchi o‘rinni egallagan. Masalan, *daydigan shamol, mudragan tonglar, o‘ychan, g‘amgin bosh egadi.*

“Taqqoslash” metodi orqali badiiy asarlar tahlil qilinganda ijodkorlarning 74oetic uslubi, obraz yaratish mahorati hamda badiiy-tasvir vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu metodning afzalligi shundaki, u o‘quvchini qiyoslash, taqqoslash orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Adabiyot darslarida tasviriy unsurlarni, ya’ni yozuvchining portret va peyzaj yaratish mahoratini o‘rgatishda “Poetik tasvir” usuli ham qo‘l keladi. Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini boshqaradi. Ularning portret va peyzaj haqidagi bilim va malakalarini yanada oshirish uchun qadamma-qadam rahbarlik qiladi.

“Poetik tasvir” usulida o‘quvchilar ko‘rish, eshitish sezgilarini ishga soladi. Bu usulga ko‘ra o‘quvchilarga turli tasvirlar ko‘rsatiladi. Bu tasvirlar xoh obrazlar tasviri, xoh tabiat tasviri bo‘lsin, o‘quvchilar ularning qaysi asarda uchrashi haqida to‘liq ma’lumot berishlari kerak. Masalan:

O‘quvchilar “Poetik tasvir” usulida o‘zlariga havola qilingan tasvirlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirishlari lozim. Tasvirlardagi har bir detal ularga bu qaysi asar qahramoni ekanligidan dalolat beradi. Agar o‘quvchi “Ikki eshik orasi” asaridagi Ra’no obrazining portretini sinchiklab o‘qigan bo‘lsa, tasvirdagi ayol aynan Ra’no ekanligini tezda anglaydi. Ra’noning iyagidagi mitti holi uning portretida o‘z aksini topgan. Masalan: *Qalamda tortilgandek **qoshlari**, yonib turgan qop-qora xumor **ko‘zlar**, sutday oppoq **yuz**, ingichka **iyagidagi** mitti xoli, angishvonadek **og‘zi** hammasi – ataylab chizib qo‘yilgan suratga o‘xshaydi.* (Ra’no)



Adabiyot darslarida yozuvchilar tomonidan yaratilgan portret va peyzajlarni o‘quvchilarga o‘rgatishda “Mosliklarni toping” usuli ham samara beradi. O‘quvchilarga quyidagi tarqatma materiallar tarqatiladi:

1-rasm



ushbu rasmlaro‘quvchilarning diqqatiga havola qilinganidan so‘ng, o‘quvchilar aynan shu tasvir bilan bog’liq asar nomlarini aytishi lozim.

2-rasm



3-rasm

O‘tkir Hoshimov obraz yaratar ekan, portretning barcha qismlaridan unumli foydalanadi. Ayniqsa, badiiy asardagi obrazlarning nutqi, ovozining past-balandligi, nutqida qo‘llanilayotgan shevaga oid so‘zlar ularning qiyofalarini, ya’ni portretlarini yanada mukammallashtiradi. Quyidagi matnga e’tibor qaratadigan bo‘lsak:

Onam yotgan joyida ingraydi.

– Qiynamang bachamni. Payti kelib o‘qib olar.

– Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi.

– Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering...

Mazkur matnda qo‘llangan *bachamni, qiltomoqman* so‘zlari personajni qaysi hududga tegishli ekanligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida ma’lumot beradi.

Dars davomida o‘quvchilar bilan “Shaxsini top” usuli orqali bir qancha nutqiy portretlar ustida tahlillar olib boriladi. Bu usulga ko‘ra o‘quvchilarga yozib olingan bir nechta nutqiy portretlar ketma-ket eshittiriladi. Masalan:

1) *Juvongina o‘lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur, imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmagandir! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush! Oy havolab ketdi. Ayvon qop-qorong‘i bo‘lib qoldi. Uyqu qani? Xayol ming ko‘chaga olib kiradi.*

2) *– Bulut chiqdi, – dedi Adham oyog‘ini chalishtirib yotganicha, archa shoxlari orasidan osmonga qarab. – Tezroq yurmasak bo‘lmaydi. Chindan ham havo salqinlashib borar, osmonda to‘da-to‘da bulutlar suzib o‘tardi. Jintepaga chiqib borgunimizcha hamma yoqni bulut o‘rab oldi. Ammo cho‘qqi ustidagi yalanglikka chiqishimiz bilan bulutni ham, shamolni ham unutdik. Har yer-har yerda to‘da-to‘da bo‘lib ochilgan lolalar shamolda chayqalib turar, xuddi olovdek lovullab ko‘zni olardi. Ikkalamiz u yoqdan bu yoqqa yugurib lola terdik, endi bir qarich bo‘lib o‘sgan ravochlar ustiga tosh bostirdik.*

3) *Bu dunyoda hamma narsaning javobi bor, deydilar. To‘g‘ri gap, ammo bu dunyoda javob qilinmaydigan narsalar ham bo‘ladi. Sen birovga yaxshilik qilsang, javobini kutma. Undan qaytmasa, boshqadan qaytadi. Birov senga yomonlik qilsa javob berma. Sendan qaytmasa, boshqadan qaytadi!*

O‘quvchilar ushbu fikrlarni eshitganlaridan so‘ng ular bu nutq qaysi asar qahramoniga tegishli ekanligini topishlari kerak bo‘ladi. “Shaxsini top” usuli

o‘quvchilarning eshitish qobiliyatlariga qaratilgan usul bo‘lib, bu usul yordamida o‘quvchilar obrazlarning nutqi orqali ularning qiyofalarini tasavvur qiladilar.

Umuman olganda, o‘quvchilarga portret va peyzajni “Poetik tasvir”, “Men kimman”, “Mosliklarni toping”, “Shaxsini toping” usullari hamda “Taqqoslash” metodi yordamida o‘rgatish juda muhim sanaladi. “Negaki, personajning so‘z bilan qilingan tasvirini ko‘z oldiga keltirishi uchun o‘qirman xayolini bir nuqtaga yig’ishi lozim bo‘ladi. Asarda alohida e’tibor berilmay o‘qib ketilganda, yaxshi chizilgan portret ham jonlanmay, o‘qirman ko‘z o‘ngida gavdalanmay qolaveradi. Portret tasviriga alohida diqqat qaratilib, qayta-qayta o‘qilganidagina uning shu personaj tabiatini anglash kaliti ekani tushunib yetiladi” [5. B.195]. O‘quvchilar bilan badiiy asardagi tashqi tafsillar, ya’ni portret va peyzajlar ustida ishlash ularning eshitish, ko‘rish ko‘nikmalarini yanada rivojlantiradi, 77oetic tasavvurini boyitadi.

Иқтибослар / Сноски / References

1. Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2016. – B. 280.
2. Husanboyeva Q., Niyazmetova R. adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018. – B.352.
3. Lilov A. Kommunikativnaya funksiya literature i iskusstva // V knige “Teorii, shkoli, konsepsii (kriticheskie analizi)”. Xudojestvennaya kommunikatsiya I semiotika. – Moskva: Nauka, 1986. – S.223-225.
4. Oripov A. Hayrat. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – B. 80.
5. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 464.

INTERNET MANBALARI:

1.https://n.ziyouz.com/

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

ERGASHEVA HABIBA,
Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston
habibaergasheva23@gmail.com

FAXRIYOR IJODIDA FOLKLORIZM NAMUNALARI

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, Faxriyor o'zbek modern she'riyatining yorqin namoyandasi o'laroq, an'anaviy she'riy qoliplardan chekinib, o'z ijodini ko'plab shakliy izlanishlar, yangiliklar bilan boyitgan. Shu bilan bir qatorda, shoir ijodida ona tilimiz, milliy qatriyatlar va urf-odatlar hamda mumtoz adabiyotdagi afsonaviy qahramonlar va ramzlar, mifologik timsollarni yoritishga, ularga ishora qilishga alohida e'tibor qaratgan. Ushbu maqolada Faxriyorning o'zbek folklori va mumtoz adabiyotdagi ayrim obrazlarga ishora qilingan she'rlari tadqiq etilgan. An'anaviylikdan chekingan modern she'rlar mazmunini boyitish, afsonaviy timsollar yordamida zamonamiz kishilariga ishora qilish maqsadida tanlangan bu obrazlar milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtira olgan novator shoirning mahoratidan dalolat beradi. Ayrim o'rinlarda esa shoir bu ramzlardan kinoya, qochirim shaklida achchiq haqiqatni ochib berish maqsadida foydalanadi. Faxriyor she'rlari va dostonlarini o'qirkanmiz bunday o'rinlarga ko'p duch kelamiz.

Kalit so'zlar: folklor, Go'ro'g'li, qaqnus, dorning og'ochi, Mitra, Shiroq, Iskandar, badbinlik, shakl, zarurat, afsona

ERGASHEVA KHABIBA,
Doctoral student,
Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
habibaergasheva23@gmail.com

EXAMPLES OF FOLKLORISM IN THE WORKS OF FAKHRIYOR

ABSTRACT

It is known that Fakhriyor, being a bright representative of modern Uzbek poetry, departed from traditional poetic patterns and enriched his work with many formal researches and innovations. In addition, in the work of the poet, he paid special attention to highlighting and referring to our native language, national customs and traditions, as well as legendary heroes and symbols, mythological symbols in classical literature. In this article, Fakhriyor's poems referring to some characters in Uzbek folklore and classical literature are studied. These images, chosen in order to enrich the content of modern poems that deviate from traditionalism, to refer to the people of our time with the help of legendary symbols, testify to the skill of the innovative poet who was able to combine nationalism and modernity. In some places, the poet uses these symbols in order to reveal the bitter truth in the form of sarcasm. When we read the poems and epics of veterans, we often come across such places.

Key words: folklore, Gorogli, qaqnus, dorin ogochi, Mitra, Shiroq, Iskandar, pessimism, form, necessity, legend.

ЭРГАШЕВА ХАБИБА,
Докторант,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
habibaergasheva23@gmail.com

ПРИМЕРЫ ФОЛЬКЛОРИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ ФАХРИЕРА

АННОТАЦИЯ

Известно, что Фахриёр, будучи ярким представителем современной узбекской поэзии, отошел от традиционных поэтических образцов и обогатил свое творчество многими формальными исследованиями и новациями. Кроме того, в творчестве поэта особое внимание он уделял выделению и обращению к нашему родному языку, национальным обычаям и традициям, а также легендарным героям и символам, мифологическим символам в классической литературе. В данной статье изучаются стихотворения Фахриёра, относящиеся к некоторым персонажам узбекского фольклора и классической литературы. Эти образы, выбранные с целью обогатить содержание современных стихотворений, отклоняющихся от традиционализма, обратиться к людям нашего времени с помощью легендарных символов, свидетельствуют о мастерстве поэта-новатора, сумевшего соединить

национализм и современность. Местами поэт использует эти символы, чтобы в форме сарказма раскрыть горькую правду. Когда мы читаем стихи и былины ветеранов, мы часто сталкиваемся с такими местами.

Ключевые слова: фольклор, Горогли, какнус, дорин огочи, Митра, Широк, Искандар, пессимизм, форма, необходимость, легенда

Badiiy adabiyotda she'riyat o'ziga xos tur hisoblanadi. U kundan kunga o'zgacha ko'rinish olmoqda, poetik yangilanib, boyimoqda. Xususan, she'rning asosi, mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi jihatlari zamonaviy shoirlarimiz ijodida turli modernistik obrazlarda namoyon bo'lmoqda. Bu hodisa she'r badiiyati hodisalaridan biri bo'lib, poetik ijod – she'rning qoni, joni, suvi uning yangiligidadir, degan fikrga olib keladi. Bizni o'rab olgan olam va tabiat hodisalari bizga tinimsiz ta'sir etib turadi. Buning natijasida tug'ilgan his-tuyg'u, o'y-xayollarning she'rga ko'chishi yangi poetik unsurlarni yuzaga keltiradi.

She'riyat ruhiy-emotsional holat mahsuli bo'lganligi uchun unda kutilmagan o'xshatishlar, noodatiy xulosalar va turli hissiy holatlarni ko'rishimiz mumkin. Chunki undagi har bir holat kutilmaganda chaqmoq kabi shoir tafakkurida yuz beradi va oniy lahzadagi kechinma qog'ozga tushiriladi. Bilamizki, she'riyatda an'anaviy tashbehlar azaldan mavjud va ular qandaydir bir qolipga tushib qolgandek tuyuladi. Iste'dodli ijodkorning yutug'i ana shunday qoliplardan qochib, yangicha yo'nalish – qoliplar bilan ijod olamiga kirib kelganligida aks etadi. Bugungi o'zbek modern she'riyatining turli qatlamdagi o'quvchilar tomonidan bir xil qabul qilinmasligining asosiy sabablaridan biri ham bu yo'nalish eski qoliplarning deyarli barchasini inkor etib, yangi yondashuv, yangi shakl va mazmunda adabiyot maydoniga kirib kelganligidir.

Badiiy asar ijodkorning tafakkuri, mahorati, bilim darajasi, uslubi, leksik boyligi, dunyoqaarashi kabi holatlarni namoyon etishda turli xil xalq og'zaki ijodi namunalari: maqol va matallar, afsona va rivoyatlar, miflar, xalq qo'shiqlari, epos va undagi xalq qahramonlari bilan bog'liq holatlarni o'zida mujassam etadi. Xalqona til, xalqona ohang va mazmunga yo'g'rilgan asar har doim o'quvchiga manzur bo'ladi. Zeroki, xalq og'zaki ijodi xalqimizning shonli tarixi, ma'naviyati va kamolot yo'lidan lavha bo'luvchi eng muhim manbadir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari so'zimiz isbotidir: "Ajdodlarimiz taafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir". [2, 31]

She'riyatimizga nazar soladigan bo'lsak, shoir Muhammad Yusuf she'rlari xalqimiz orasida o'zgacha qadr topgan. Bunga sabab xalqona uslubda, xalq og'zaki ijodiga yo'g'rilgan holda, ixcham va sodda tilda

yozilganligidir. Demak, xalqning dardi, xalqning ruhiyati kuylangan har qanday asar har qaysi zamonda ham o‘z o‘quvchisiga ega bo‘ladi. Shu orqali ijodkorlar asrlar osha og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan boy ma’naviy merosimizni keyingi avlodlarga yetkazishga o‘z hissalarini qo‘shishadi. Axir ma’naviy merosni asrab-avaylash, saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish shu millatga mansub har bir fuqaroning vazifasidir. Ayniqsa, bu jarayonda qalam ahlining o‘rni bo‘lakcha. Yangicha yo‘nalish va o‘zgacha yondashuv bilan she’riyatimizga kirib kelgan Faxriyor ijodiga ham folklorizm begona hodisa emas. Shoirning she’rlarini, dostonlarini o‘qiganimizda turli maqol va matallar, xalqona iboralar, mifologik timsollar, eposlardagi qahramonlar va ular bilan bog‘liq holatlatga duch kelamiz. Bu ijodkor she’rlarini yana-da chuqurroq tushunishimizga, she’rning asl mazmuni nimaga ishora qilishini anglashimizga bir qadar yordam beradi. Tadqiqotimizning ushbu faslida Faxriyor ijodida ko‘zga tashlanadigan folklorizm namunalari hamda ularning she’rdagi vazifalarini tahlil etamiz.

Ma’lumki, umumturkiy dostonchilik tarixida Go‘ro‘g‘li timsoli alohida ahamiyat kasb etadi. Go‘ro‘g‘lining dunyoga kelishi, nima uchun aynan shunday nomlanishi, uning hayot tarzi haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud. Ana shu rivoyatlar asosida yuzdan ortiq dostonni o‘zida mujassam etgan turkum yaratilgan. Emishki, onasi Go‘ro‘g‘liga homiladorlik paytida vafot etadi, bola go‘r, ya’ni qabrda tug‘iladi. Shu atrofda yuradigan ot sutini emib, ulg‘ayadi. Kunlardan biri kuni g‘oyibdan ovoz kelib, ot yoki zot (nasl)dan birini tanlashi kerakligi aytiladi. Go‘ro‘g‘li otni tanlaydi va zotdan, ya’ni farzanddan mahrum etiladi. Shuning uchun ham bu turkum dostonlarida qahramonimiz farzandsizligi sababli Hasanxon va Avazxonni asrab olganligi aytiladi. Go‘ro‘g‘lining go‘rda tug‘ilishi o‘ziga xos ramziy ifoda kasb etib, uning kurashuvchanlik, mardlik, jasorat va qo‘rqmaslik kabi xususiyatlariga sabab bo‘lgan omil vazifasini bajaradi. She’riyatimizda Go‘ro‘g‘li timsoli ifodalangan she’rlarni bir necha marta uchratishimiz mumkin.

Faxriyor she’rlarida ham Go‘ro‘g‘li va unga xos xususiyatlar qalamga olinadi, lekin ularning o‘ziga xosligi shoir she’riyatida Go‘ro‘g‘li ochiq tasvirlanmasdan, ramziy-ishoraviy holda keltiriladi. Masalan, shoirning *“Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan”* [3, 120] misrasida qabrga tiriklik mohiyatini yuklashga harakat qilib, nega Go‘ro‘g‘lilar hozir tug‘ilmayotganligini badiiy izohlashga intilgandek tuyuladi. Yana boshqa tomondan nazar soladigan bo‘lsak, Go‘ro‘g‘lining mardlik, jasorat, oriyat uchun har qanday to‘siqni yengib o‘tish xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan haqiqiy o‘zbek o‘g‘lonlari kamayib borayotganiga ishoradir balki, degan xayolga boramiz. Shoirning “Majruh yuragimning kunjaklariga” deb boshlanuvchi she’rining ikkinchi bandiga nazar solsak, yuqoridagi fikrimiz – tiriklik mohiyati aks ettirilganiga yaqin holatni ko‘rishimiz mumkin:

G‘ussalar tarqaydi gul atri bo‘lib,
yulduz bo‘lib tarqar qo‘rg‘oshin g‘amlar.
Men endi o‘lmayman, nobarhaq o‘lim,

Go‘ro‘g‘liday – yulduz chaqnagan damlar. [4, 56]

She’rda *yulduz* so‘zining ikki o‘rinda kelishi o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Dastlabki ikki misrada qattiqligi qo‘rg‘oshinga qiyoslangan g‘am yulduzdek sochilib ketdi, g‘ussalar esa gul atridek tarqaldi. Demak, sochilib tarqalgan g‘am-g‘ussani ko‘rib iztirob chekmaslik mumkin emas, g‘amning ko‘pligi esa insonning yashashga bo‘lgan umidini tobora so‘ndirib boradi. Shunday paytda Go‘ro‘g‘liday yulduz – umid paydo bo‘ladiki, bu yulduzni ko‘rib, o‘limga yuz tutish adolatdan emas. Bu bilan shoir Go‘ro‘g‘li shunday bir porloq yulduz bo‘ldiki, u g‘am-alamga to‘lgan qalblarga kuch bera oldi, ularni yashashga undadi, demoqchi bo‘lgandek. Shu o‘rinda tiriklik mohiyati – bu dunyoning g‘am-tashvishlari o‘tkinchi, vaqtinchalik holat bo‘lib, eng muhimi, inson o‘zini anglay olishidir, degan mazmunni tushunamiz.

Faxriyorning “Muchal yoshi” dostonining to‘rtinchi bo‘limida muchallar inson ustiga xalqadek yog‘ilib kelaverganda, ya’ni yosh o‘tgan sayin ushalmagan orzular, maqsadlar ko‘ngilda yig‘ilib qolgan holatni tasvirlab, bu o‘rinda ham Go‘ro‘g‘liga ishora qilinadi:

Endi bu ko‘ngil –
pushti kuyib ketgan bir mozor
go‘ro‘g‘li – maqsad
tug‘a olmay qiynalar [4, 298]

Kutilmagan o‘xshatish, kutilmagan holat. Ushalmagan maqsadlar mozori bo‘lgan ko‘ngilning pushti kuyib ketgan, ya’ni u endi qisir qolgan, tug‘a olmaydi. Bu parcha yuqorida keltirganimiz *“Go‘rlar qisir – tug‘ishdan qolgan”* jumlasiga naqadar hamohang, mazmunan yaqinligini sezish qiyin emas. Go‘ro‘g‘li va u bilan bog‘liq holatlarni she’rlarda mahorat bilan qo‘llab, bu orqali ruhiy holatlarni ochib berishda shoir mahorati, iste’dodi bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodidan qanchalik xabardor ekanligining ham guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Boshqa she’r va dostonlarida ham shoir jahon va milliy folklorchiligimizning ko‘plab qahramonlari va syujetlaridan o‘rinli foydalangan. Masalan, xalq dostonlarida (aynan “Rustamxon” dostonida) vahshiy ajdarlarning butun bir qishloqni egallab olib, o‘sha qishloq qizlarini yeb, kun kechirishi holati uchraydi. Shoirning “Qish” nomli turkum she’rida ushbu syujetdan biroz o‘zgartirilgan holda foydalanib, betakror tasvir hosil qilingan. Qish faslining tunlari shunday uzunki, bu paytda ko‘p narsalar haqida xayol sursa bo‘ladi. Xayollar esa turfa xil:

Umidni do‘ppining yoniga qo‘yib
uzoq xayol sursa bo‘lar
qalmoqqa borib
yog‘iylarni qirmoq o‘rniga
zindonda o‘tirgan alpomish haqda

bir zamonlar
qizlarni yeb kun ko‘rgan xunasa ajdar

botirlarga yopishadi
hammasini o‘g‘irlab ketar borsakelmasga [4, 130]

Dastlabki bandda Alpomishni tanqid qilgandek go‘yo, u o‘z vazifasi – yog‘iylarni yengishni unutib, zindonda o‘tiribdi deyiladi. Chunki, Alpomishning ismida “alp” o‘zagi bor, u shu nomga monand ish tutishi kerak emasmi?! Shu o‘rinda alpning vazifasi haqida quyidagi fikrlarni keltirishimiz o‘rinlidir: “Odatda qahramon – alp xalqning quvvati mudrayotgan, omma enert (sust) holatga tushgan bir davrda uni kuchga endiruvchi o‘ziga xos “uyg‘otuvchi” sifatida paydo bo‘ladi. Bu davrda sust avlod ichida passionar (bunyodkor) avlod tug‘iladi. Alp passionar avlod vakiligina emas, darg‘asi – yo‘lboshchisi hisoblanadi.” [7, 98] Demak, haqiqatdan ham Alpomish o‘z vazifasini unutdi. U xalqni sust holatdan chiqarish uchun “uyg‘otishi”, o‘z jasoratini namoyon etishi kerak edi. Badiiy adabiyot uchun shakllanib bo‘lgan bir “qolip” borki, Alpomish, Kuntug‘mish, Rustamxon, Ravshan kabi qahramonlarning doim ijobiy fazilatlari ulug‘lanadi, ularning ko‘rsatgan mardliklari qalamga olinadi, lekin yuqoridagi kabi asliyatga nomutanosib holatlar ko‘pchilikning e’tiboridan chetda qoladi. Shoirning mahorati ham ana shunday nozik tasvirlarni yorita olganligida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi band esa oldingisining mazmunini davom ettirgandek go‘yo, ya’ni alplik vazifasini bajara olmagan botirlarni botirlar safidan chiqarish holati bir zamonlar qizlarni yeb kun ko‘rgan ajdar endi botirlarni borsakelmasga o‘g‘irlab ketyapti deb piching orqali ifodalanadi. Bu ham o‘ziga xos mazmunga ega kutilmagan o‘xshatish. Alplik vazifani bajara olmagan botir ajdar komiga tushishi ayni haqiqat. Bu orqali har bir inson hayotda o‘z oldiga qo‘yilgan vazifasini vijdonan bajarishi, bu yo‘lda jasorat va shijoatini qalqon qilishi, hayot sinovlarini cho‘chimasdan yengib o‘tishi kerakligini anglashimiz mumkin.

Xalq dostonlaridagi syujetlarga yaqin holat shoirning boshqa she’rlarida ham ko‘zga tashlanadi. “Mening vazifamga kirmaydi she’rga” deb boshlanuvchi she’rida quyidagi jumlalar keltirilgan:

Dorning og‘ochiga bermasman salom,
Qo‘ying she’r o‘rniga siz meni osmang. [6, 50]

She’rning umumiy mazmuni shundayki, shoir ko‘nglidagi dardini she’rga to‘kadi, lekin she’rni himoya qilish uning vazifasiga kirmaydi. Agar olomon she’rni tushunmasa, uni anglamasa, shoir uni himoya qilgan bilan foydasiz. Shuning uchun ham she’rning kasriga men qolmay, degan ma’no ifodalangan. “Dorning og‘ochiga bermasman salom” misrasi bizga “Kuntug‘mish” dostonidagi Xolbekaning farzandlarini qutqarish maqsadida dorning og‘ochi – Bobo Zangi podachiga salom berib, undan madad so‘ragan holatini esga soladi. Xalq og‘zaki ijodini lirikaga bu yo‘sinda singdirish ijodkordan o‘ziga xos mahorat talab etadi. Bu bilan Faxriyor she’rlari xalq og‘zaki ijodidan yetarlicha oziqlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Uchlanish” nomli she’rida xalq og‘zaki ijodidan o‘rinli foydalanilgan. She’rning “Badbinlik” deb nomlangan qismida quyidagi parcha uchraydi:

Sen nimasan yo kimarsa – dillarga qutqu solgan,
bergan qaylargadir suzmoqlik zaruratini, biroq
qayon suzmoq ixtiyorin qo‘llaridan torib olgan,
uzvin kesib yot manzilga yo‘l boshlagan Shiroqday? [5, 227]

Avvalo, badbinlik so‘ziga e’tibor bersak, bu so‘z lug‘atlarda “yaramas, yomon niyatli xatti-harakatlarga odatlanish” deya izohlanadi. Yuqoridagi bandda ana shu badbinlikka ishora qilib, u shunday holatki, qayergadir suzish zaruratini talab qiladi, lekin suzish ixtiyori – imkoniyatni qo‘llardan tortib oladi. Bu holat o‘z xalqini qutqarish maqsadida jasorat ko‘rsatgan Shiroqning harakatiga o‘xshatiladi, ya’ni u uzvi – quloq-burnini kesib olib, dushmanni begona manzilga adashtirish uchun yo‘l boshlaydi. Shiroq yarador holatda ham yurishdan to‘xtamaydi, lekin uning harakati notamom. Badbinlik ham shunday illatki, borgan sari unib boraveradi, lekin xayrli yakun topmaydi. Faxriyor she’rlarini o‘qir ekanmiz, bu kabi kutilmagan dalillar, xayolga kelmagan qiyoslashlarga ko‘p bora duch kelamiz.

Qadimgi rivoyatlarimizda olovdan yaralib, olovda jon beruvchi qush – Qaqnus haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qaqnus haqida Navoiy asarlari lug‘atida shunday deyilgan: «Qaqnus – mavhum bir qush, afsonaga ko‘ra tumshug‘ida juda ko‘p teshiklar bo‘lib, bu teshiklardan chiqqan ovozlardan go‘yo musiqa o‘ylab chiqarilar emish.» Bu obrazning ilk kurtaklarini biz yunon xalq mifologiyasida uchratamiz: Feniks, tarjimada sehrli qush ma’nosini beradi. Uning ko‘rinishi burgutsimon va rangi qizil-tillasimon yoxud olov rangda deb tasavvur qilingan. Aytishlaricha, umrining oxirida u turli xushbo‘y o‘tinlar bilan o‘z uychasini yondirarmish va uning kulidan yangi qaqnus paydo bo‘larkan. Misrliklarning tasavvuri bo‘yicha, u o‘tlarning xushbo‘y hididan o‘lar ekan, so‘ng esa quyoshda yonib ketarmish va uning tanasidan Qaqnus bola chiqar emish. Feniks Sharq adabiyotiga Qaqnus shaklida o‘zlashdi. Alisher Navoiy g‘azallari, qushlar haqidagi “Lison ut-tayr” asari, “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” dostonlarida bu qush bilan bog‘liq misralarni keltiradi. Alisher Navoiygacha Haydar Xorazmiy, Fariddin Attor ijodida ham qaqnus qushi bilan bog‘liq misralar uchraydi. Alisher Navoiy ustozi Fariddin Attorni qaqnus va o‘zini esa qaqnusbachaga qiyoslaydi. Bu bilan ham ustoz-shogirdlikni ifodalasa, ham ustozidan ma’naviy ozuqa olganligi sabab pinhoniy tarzda uvaysiylikka ishora qiladi. Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida umr bo‘yi has-xashak yig‘ib, oxirida bir kuchli nola bilan shu yig‘ganlari orasida yonib, kulga aylangan qaqnus holati bu dunyoning foniy ekanligi ramzi sifatida ifodalangan. Faxriyor ijodida ham bu qush bilan bog‘liq tasvirlar ko‘zga tashlanadi:

Kuldan ming to‘ragan qaqnus qush misol
negadir muhabbat qaytalanadi. [4, 63]

Bu misralar taqdirlar, tarix takrorlanadi, degan gapga ishoradek bir holatdagi muhabbatni yana takror holda boshqa kishida ko‘rish mumkin. “Negadir” deb nomlangan ushbu she’rda xuddi bahor fasli har yili takrorlangandek insonning umri davomida baxt va baxtsizlik, g‘am-qayg‘u va

xursandchilik, iztirob, armonlar qayta-qayta uni yo‘qlayveradi, shu jumladan, muhabbat ham qaytalanadi. Bu holatni shoir aynan qaqnus qushning olovda kuyib, kulga aylanishi va o‘sha kuldan qaqnusbacha – qaqnus bolasi paydo bo‘lishiga qiyoslaydi. Shoir yana bir she’rida agar ko‘ngil rozi bo‘lmasa, o‘zga bir insonning muhabbatini sotib olib, tilab olib, yig‘lab, kulib ham olib bo‘lmasligini aytadi va quyidagi misralarni keltiradi:

Kuyib ololmayman muhabbatingni,
qaqnus edimmiki, kuldan to‘rasam? [4, 85]

Har ikkala holatda ham qaqnus timsolidan muhabbat mavzusini yoritishda foydalanilgan. Demak, mumtoz adabiyotda umrning foniyligi (Fariddin Attorda), tasavvufiy ishqni tarannum etish (Alisher Navoiyda) maqsadida foydalanilgan ushbu motiv zamonaviy she’riyatda biroz boshqacha tus olgan, ya’ni faqatgina muhabbat sabab yonish holatini aks ettirganini ko‘ramiz. Bu, albatta, mazmun o‘zgarishi, shoirning badiiy mahorati, poetik yangilanish olib kira olganidan dalolat beradi. Aytish joizki, o‘zida bir qancha poetik yangiliklarni namoyon etgan Faxriyor ijodi an’anaviy va modernizm she’riyat uchun ko‘prik vazifasini bajara oldi. Bu haqida adabiyotshunos Umarali Normatov quyidagi fikni bildirgan: “70-80-yillarning muayyan sintezi va 90-yillar yangicha she’riyatimizning debochasi sanalmish Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni, Faxriyorning “Ayolg‘u”, Bahrom Ro‘zimuhammadning “Kunduz sarhadlari” kitoblari, bu shoirlarning o‘nlab safdosh va izdoshlari ijodisiz, ayniqsa, “Muchal yoshi”, “Yoziq”dek dostonlarsiz keyingi o‘n yillik o‘zbek she’riyatini aslo tasavvur qilish mumkin emas.” [8, 149]

Faxriyor ijodini kuzatar ekanmiz, nafaqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, balki, jahon mifologiyasi namunalariga ham duch kelamiz. Bunday mifologik timsollar va syujetlar yordamida ijodkor o‘z ruhiy kechinmalari, tabiat tasvirlarini yoritib, betakror tashbehlarni yaratadi. “Ko‘zyosh soyasi” nomli turkumning to‘rtinchi qismida muhabbatning soyalanishi haqida so‘z yuritilib, go‘yo xazondan darak berayotgani tasvirlanadi. Shu o‘rinda quyidagi jumla keltiriladi:

Chertilgan soz simiday titrar –
gulsizlikning xazon daragi –
kelgusida keladi Mitra – [4, 21]

Ushbu she’rda aynan Mitra timsolidan foydalanishning o‘ziga xos sababi bor. Chunki Mitra qadimgi hind mifologiyasi, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da yorug‘lik va quyosh deb tasvirlanadi. So‘nib, zulmatga yuz tutayotgan muhabbatni yorug‘lik – Mitra qutqara oladi, degan mazmun ifodalangan.

Shoirning nafaqat she’rlari, balki dostonlari ham ana shunday mifologik timsollar ila boyitilgan. Ayniqsa, “Yoziq” va “Ayolg‘u” dostonlarida jahon mifologiyasining yorqin namunalarini ko‘rishimiz mumkin. “Yoziq” dostonida muallif sarlavhadan keyin “ovoz chiqarib o‘qimaslik sharti bilan” deb izoh qoldiradi. Dostonni o‘qish mobaynida ijodkor jism dunyosini tark

etib, ruhiyat olamining eng baland osmoniga chiqqanda yozilganini anglash qiyin emas. Bunda so‘z ham, soz ham, tasvir ham, tashbeh ham o‘zgacha. Qandaydir mavhum tuyg‘ular ifodalangandek tuyulishi mumkin, lekin uni anglagan o‘quvchining shoir mahoratiga tan bermay ilojisi qolmaydi. Quyida “Yoziq” [4, 251] dostonidagi mifologik timsollar bilan tanishamiz:

Qamishlar gul bo‘lar, baqo gullari
(qurbaqa – Aflotun),
ilon tashib ketar ularni, Bilg‘amish – g‘aflatda

Ushbu jumla qadimgi shumer mifologiyasining mashhur Bilgamish (ayrim manbalarda Gilgamish ham deyiladi) va u bilan bog‘liq abadiy hayot ramzi bo‘lgan gul voqeasiga ishora qilgan. Ma’lumki, shumer davlati hukmdori Bilgamish bobosi Utnapishtimdan abadiy hayotga erishtiruvchi gul haqida eshitib, uni izlab yo‘lga chiqadi. Gulni topib, olib ketayotganda yo‘lda Bilgamish uxlab qoladi, shu paytda ilon uni o‘g‘irlab qo‘yadi. Ushbu parchada shu syujetga ishora qilinadi. Qurbaqa – Aflotun deb izohlanishiga doston boshida kelgan fikr oydinlik kiritadi. Shoirning badiiy to‘qimasi o‘laroq yuzaga kelgan ushbu dostonda aytilishicha uxlab yotgan Bilgamishni qurbaqa uyg‘otadi. Ehtimol, ogohlikka, komillikka chaqiruvchi sifatida tasvirlangan qurbaqa Aflotunga qiyoslanishi shuning uchundir.

Ilon po‘st tashlar –
yosharayotgan oriyni
tashna
qilar osiyoiy qon,
al’amon!

Ushbu parchada esa qadim Sharq mifologiyasida keladigan rivoyatga ishora qilingan, ya’ni ilonlar yilda bir marta po‘st tashlaydi va har yili qaytadan yosharadi.

Xudo xohlar, keladi qiron.
Qaldirg‘ochlar sotilib ketar.
Arilarning tillari biyron

Bu parcha yuqoridagi parchaning mantiqiy davomi bo‘lib, bitta afsonadan olingan. Dunyodagi eng shirin narsaning go‘shtini tusab qolgan ilon ariga eng shirin go‘sht qaysi jonzotning go‘shti ekaanligini aniqlashni buyuradi. Hamma narsadan tatib ko‘rgan ari eng mazali go‘sht inson go‘shti ekanligini bilib, buni ilonga yetqazish uchun ketayotganda yo‘lda qaldirg‘och bundan xabar topib arining tilidan cho‘qib oladi. Shundan beri arilar qo‘ng‘illaydi, qaldirg‘och esa insonning do‘sti deb ta’riflanib kelgan. Endi yuqoridagi parchada bu afsonaga teskari holatni ko‘ramiz, ya’ni qiron kelganda o‘z do‘sting ham seni sotib yuborishi mumkin, shunda atrofdagi munofiqlarning tillari yanada biyronlashadi. Umume’tirof etilgan qoidalarga zidlik, qonuniyatlarni inkor etish modernizm tabiatiga xos xususiyat deb qaraydigan bo‘lsak, bu holatni ijodkorning o‘ziga xos badiiy topilmasi deyish mumkin.

Iskandarlar tulpor – tobutin

minib yer ostiga kirar
sovuti
soviydi tuproq o‘rniga,
ko‘z o‘rniga o‘yilar chig‘anoqlar,
bosh chanog‘i
oyoq bo‘lar mustabidning qo‘lida

Misrada qadimgi Sharq afsonaviy qahramoni Iskandar bilan bog‘liq holatni keltirish bilan bir qatorda o‘zbek xalqining boshiga tushgan mustabid tuzum tafsiloti yoritilgandek. Ma’lumki, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida keltirilishicha, Iskandar o‘z humkdorligini bir darveshga topshirmoqchi bo‘ladi. Shunda darvesh ikkala qo‘lida ikkita bosh chanog‘i suyagini olib kelib, qaysi biri podshohniki, qaysi biri oddiy faqirniki ekanligini aytsa, hukmdor bo‘lishga rozi ekanligini bildiradi. Tabiiyki, quruq suyakdan u yo shoh, yo gado ekanligini aniqlash imkoni yo‘q. Bu bilan dunyoning foniyligi, inson vafot etgach uning shoh yoki gado bo‘lganligini hech narsani belgilamasligi, insonni faqat yaxshi amallarigina ulug‘lay olishi kabi falsafiy mazmunni o‘zida mujassam etgan ushbu syujetdan shoir mohirlik bilan foydalanadi. Mustabid tuzum davrida qanchadan qancha ziyolilar, millatparvarlar halok bo‘lib, ulardan ayrimlarining hatto xoki vatanga qaytmaganligi, ayrimlarning jasadi, qabri oyoqosti bo‘lib ketganligi “bosh chanog‘i oyoq bo‘lar mustabidning qo‘lida” misrasi orqali ifodalangandek go‘yo. Yoki har qanday bosqinchi uchun bosib olingan hududdagi insonlarning qadridan ko‘ra o‘sha yerning mol-mulki afzal, degandek ma’no beradi. Faxriyorning “Yoziq” dostoni ana shunday boy mifologik timsollar yordamida shoirning qalb isyoni, ko‘nglidagi g‘alayonlarni oshkora namoyish etgan ijod mahsuli hisoblanadi.

“Ayolg‘u” dostonida ham xalq og‘zaki ijodi namunalari ko‘zga tashlanadi. Mansur Hallojning tilga olinishi, boyqush vayronasi ifodasining qo‘llanishi, so‘fiylarning chakmoni tasvirlari fikrimizning isbotidir. Shuningdek, dostonning tanaffus qismida “hey tulugim, hey tulum” jumlasi bilan yakunlanuvchi she’r xalq qo‘shiqlari ohangini yodga soladi. Jayhun, Jurjon kabi joy nomlari bizga o‘zbek xalq dostonlaridagi diyorlarni eslatadi. Faxriyor ijodida xalq og‘zaki ijodining noyob namunalari, jahon mifologiyasining mashhur afsona va rivoyatlariga ishora, mifologik timsollar, turli xalqlar eposlariga oid jumlalarni ko‘p bora uchratishimiz mumkin. To‘g‘ri, bu holatni faqat Faxriyorgina yoritib bera olgan deyish o‘rinli emas. Chunki, har bir ijodkor o‘z ijodini xalq og‘zaki ijodi bilan boyitmas ekan, uning asarlari umrboqiylikka erisha olmaydi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Tengsiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir” [1, 1] Faxriyorning bu boradagi yutug‘i zamonaviy yo‘nalishga folklorizmni olib kirish bilan bir qatorda, lirik qahramon ruhiy holatini turli

mifologik syujet va obrazlarga bog‘lagan holda yoritib berishida namoyon bo‘ladi. Bu orqali ijodkorning shoirlik iste’dodini bilan birgalikda, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Faxriyor ijodini tahlil etish asnosida hayotimizdagi real holatlarga zid qo‘yilgan tasvirlar, an’anaviy ifoda yo‘sinini inkor etish, omma e’tirofidagi qoidalarni inkor etish kabilarga guvoh bo‘lamiz. Bu, albatta, modernizm adabiyotiga xos xususiyat bo‘lib, uni adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov quyidagicha izohlaydi: “Modernizm adabiyotida badiiy matn ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi nozik farqni anglamaslik o‘quvchini boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘yishi hech gap emas. Buning birinchi ko‘rinishi bevosita mantiqdan xoli, ma’nisiz, betartib harakat va so‘z tizmalarida namoyon bo‘lsa, ikkinchi ko‘rinishi zohiriy tartib, shakl va mazmundorlikda ifoda etilgan xaotik talqinda yuz ko‘rsatadi. Yuzaki qarashda birinchi ko‘rinish kosmos mohiyatiga zidroq bo‘lib tuyulsa-da, ikkinchi ko‘rinish ham undan qolishmaydi. Hatto botinida xaotik mazmun yashiringan kosmik shakl ko‘rinishi jozibaliroq, aldamchiroq bo‘ladi” [9, 28-29]. Olimning ushbu fikri ko‘proq nasriy asarlarga nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, modernizm yo‘nalishidagi she’riy asarlarga ham xos jihatdir. Darhaqiqat, modernistik she’rlarni ilk bora o‘qiganda mantiqsizday tuyilishi, unda tuyg‘ularning tartibsiz harakatini ko‘rishimiz ayni haqiqat.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘isshlangan marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel soni

2. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008

3. Фахриёр. Аёлғу. (Faxriyor. Ayolg‘u.) – T.: Шарқ, 2000

4. Фахриёр. Дарднинг шакли. (Faxriyor. Dardning shakli.) – T.: Ёзувчи, 1997

5. Фахриёр. Излам. (Faxriyor. Izlam.) – T.: Академнашр, 2017

6. Faxriyor. Izlam – T.: Akademnashr, 2023

7. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2020

8. Ulug‘bek Hamdam. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm. – T.: Akademnashr, 2020

9. Узоқ Жўракулов. Ҳудудсиз жилва (Uzoq Jo‘raqulov. Hududsiz jilva.) – Тошкент, 2006.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

FAYZIYEVA SAODAT
Tayanch doktorant,
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU
Toshkent, O'zbekiston
saodatfayziyeva@gmail.com

JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHARQ ADABIYOTINI O'RGANISH EHTIYOJI

ANNOTATSIYA

Sharq adabiyotini o'rganish, uning dunyo adabiyotiga qo'shgan hissasini tadqiq etish har bir davr adabiyotshunosligi uchun muhim masala hisoblangan. Xususan, Movarounnahr va Xuroson hududida yashab ijod qilgan ilm ahlining nodir asarlari nafaqat, o'zbek adabiyoti, balki dunyo adabiyoti uchun qimmatli xazina bo'lganligi sababli hozirgacha tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Jadid adabiyotshunosligi nomi bilan adabiyot tarixida bir davr yarata olgan Fitrat, Cho'lpon, Sa'diy, Vadud Mahmud kabi qalami o'tkir tadqiqotchilar bitiktoshlar yaratilgan davrlardan boshlab xonliklar davri adabiyoti davrigacha ijod qilgan bir qancha adabiyot vakillarini o'z maqolasi yoki kitoblarining subyekti sifatida o'rganishgan. Ushbu maqolada jadid adabiyotshunosligi davrida Sharq adabiyoti qay darajada o'rganilganligi va qanday omillar bunga sabab bo'lganini ochiqlashga harakat qilingan, statistik va qiyosiy tahlillar yordamida masala atroflicha tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyotshunosligi, Sharq adabiyoti, Navoiy, Fitrat, Vadud Mahmud, mumtoz adabiyot.

FAYZIEVA SAODAT
Doctoral student,
Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
saodatfayziyeva@gmail.com

THE NEED TO STUDY EASTERN LITERATURE IN MODERN LITERATURE

ABSTRACT

The study of Eastern literature, the research of its contribution to world literature was considered an important issue for literary studies of every era. In particular, the rare works of scientists who lived and created in the region of Movarounnahr and Khurasan are a valuable treasure not only for Uzbek literature, but also for world literature. Sharp researchers like Fitrat, Cholpon, Sa'diy, Vadud Mahmud, who created a period in the history of literature under the name of Jadid literary studies, have as the subject of their articles or books a number of literary representatives who created from the times when the inscriptions were created to the period of the literature of the Khanate period. learned. In this article, an attempt was made to clarify the extent to which Eastern literature was studied in the period of modern literary studies and what factors caused it, and the issue was thoroughly researched with the help of statistical and comparative analysis.

Key words: Jadid literary studies, Oriental literature, Navoi, Fitrat, Wadud Mahmud, classical literature.

ФАЙЗИЕВА САОДАТ,
Докторант,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
saodatfayziyeva@gmail.com

НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

Изучение восточной литературы, исследование ее вклада в мировую литературу считалось важным вопросом литературоведения каждой эпохи. В частности, редкие произведения учёных, живших и творивших в регионе Моваруннахр и Хорасан, являются ценным сокровищем не только для узбекской, но и мировой литературы. Исследователи, такие как Фитрат, Чолпон, Садий, Вадуд Махмуд, создавшие период в истории литературы под названием джадидское литературоведение, в своих статьях или книгах используют ряд литературных представителей, творивших из того времени. когда были созданы надписи к периоду литературы ханского периода изучены. В данной статье предпринята попытка выяснить, насколько изучена восточная литература в период современного литературоведения и какие факторы обусловили это, а также подробно исследован вопрос с помощью статистического и сравнительного анализа.

Ключевые слова: джадидское литературоведение, восточная литература, Навои, Фитрат, Вадуд Махмуд, классическая литература.

Turkistonda milliy uyg‘onish yoki jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanishi nafaqat tarix fani uchun, balki unga yondosh sohalar- siyosat, adabiyot, madaniyat va ma’rifat uchun ham chuqur tadqiqotlar manbayi sifatida ahamiyatlidir. XX asr boshlarida Rossiya, Turkiya va Eronda sodir bo‘lgan inqilobiy harakatlar ta’sirida, shuningdek, mustamlaka Turkiston aholisini uyg‘otish maqsadida maydonga kelgan jadidchilik harakatini olim Begali Qosimov: “so‘zning ma’nosi “yangi” bo‘lsa-da, u faqatgina “yangi” yoki “yangilik tarafdori” emas, aslida, jadidning negizida “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolar yotadi”, deya ta’riflagan edi [1,5]. Olimning fikricha, o‘zini “jadid” hisoblagan har bir insondan shu uch jihatni qidirish kerak bo‘ladi. Jadidchilik harakatining ma’naviy hayotga ta’siri maorif, teatr, matbuot, kutubxonachilik sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jadidlarning xalq ma’naviy hayotiga ta’siri, shuningdek, adabiyot sohasida ham ko‘rinadi. Ular faqat maorif va madaniyat sohasigagina emas, balki adabiyot sohasiga ham e’tibor qaratib, uni jahon adabiyoti darajasiga ko‘tarishga ulush qo‘shishdi. Chunki adabiyot ziyolilar uchun o‘z g‘oyalarini yoyishda muhim va qulay vositalardan biri edi. Bu davrga kelib tarqoq adabiy jarayon hamin qadar birlashdi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshini qamrab oluvchi bosqich 20-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi.

Jadid adabiyotining 1905- 1917- yillardagi davrida B. Qosimov ta’biri bilan aytganda, Turkiston jadidchiligining quyidagi xususiyatlari o‘z ifodasini topgan [2,183]:

1. Ma’rifatga maqsad emas, vosita sifatida qarash (chunki jadidlar ko‘rdilarki, faqatgina o‘qimishli bo‘lishning o‘zi millatni o‘zgartirish uchun kamlik qiladi, shuning uchun hadeb ma’rifat deb jar solmasdan, amaliy ishlarni ham kuchaytirish kerak ekan);
2. Erksizlikni, mustamlaka idora usulini anglash, uning sabablarini va undan qutulish yo‘llarini izlash (millat bir davlat mustamlakasiga aylandi, deb qo‘l qovushtirib o‘tirish emas, balki o‘sha davlatning ichiga kirish kerak edi);
3. Millat ozod va mustaqil bo‘lishi kerak (millatni ozod qilish uchun unga avvalo ozodlikni tomir-tomirgacha his qiladigan xalq, ha, omma emas, aynan XALQ kerak edi);
4. Iqtisod hamma narsaning asosidir (o‘sha davrda jon kuydirib millat xizmatchisiga aylangan jadidlarning askari yangi usul maktablarini o‘z hisoblaridan qurishgan, darsliklarni chop etish ishlariga ham o‘zlari mablag‘ sarf qilishar edi, chunki iqtisod bo‘lmas ekan, usiz yurgizilgan siyosat xuddi oyoqsiz otdek gap edi- manzil aniq, lekin unga yetishning imkoni yo‘q);
5. Jadidchilik dinni rad etmaydi (jadidlar yozgan har bir asarning zamirida din, e’tiqod yotar edi, buning sababi esa ularning aksari eng boshida eski usul maktablarida savod chiqarishgani deyish mumkin. Ular turli inqiloblarni, taraqqiy epkinini istashsa ham, dinni rad etmagan holda siyosat yuritishgan),

6. Adabiyotda Vatan va unga muhabbat mavzusi keng ishlandi (Adabiyot maydonida Urush, Muhabbat, Ona kabi o‘lmas mavzularning yonida Vatan mavzusi ham turardi, Vatan va unga muhabbatni esa jadidlardan o‘tkazib kuylagan ijodkor oqimi yo‘qligi Cho‘lponning birgina “Buzilgan o‘lkaga” she’rida berilgan tuyg‘u orqali ham anglashiladi.

Mana shu xususiyatlar yoniga qo‘shimcha ravishda Sharq va G‘arb adabiyotini tadqiq qilish va asarlar yaratishda ularning an’analariga ergashish yoki ayrimlarini isloh qilishni ham kiritish mumkin.

Ijtimoiy sharoit va muhitdan kelib chiqib o‘z yo‘nalish va maqsadini belgilash aynan mana shu bosqich adabiy jarayoniga xos bo‘lgan yetakchi belgi edi. Jadid davri adabiyot va adabiyotshunosligi milliy adabiyot tarixida muhim bosqich bo‘lishi bilan birga jahon standartlariga va prinsiplariga mos tushadigan adabiyot nazariyasini yaratishni boshlab bergani bilan ham xarakterlanadi. Bu davrda adabiyotshunoslik ilmi bilan shug‘ullangan ijodkorlar ildizi tazkirachilikka borib taqaladigan, lekin shakl va ifodasi butunlay farqli adabiy materiallar bilan yangi o‘zbek adabiyotshunosligiga tamal toshini qo‘yishdi. XX asr boshlarida tazkirachilikdagi mazmun jihatdan jiddiy o‘zgarish- qisqa ma’lumot berish usuli kengayib, shoirlar ijodidan sara asarlar berish orqali u haqda tasavvur uyg‘otishga harakat kuchaygan edi, Fitratning “O‘zbek adabiyotidan namunalar”, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmualarining paydo bo‘lishida ham tazkirachilikning ma’lum ta’siri bor. Bu kabi asarlar yaratilishi esa antologiya va xrestomatiyalarning yaratilishiga yo‘l ochgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi [3,17].

Jadid adabiyotshunosligida Sharq adabiyotini tadqiq qilish esa alohida yo‘nalish edi. Sababi ayrim jadid namoyondalari G‘arb an’analari, G‘arb madaniyati va adabiyotiga ayri e’tibor bilan qaraydigan va unga ko‘r- ko‘rona ergashish yo‘liga tushib qolishgan bo‘lsa, Cho‘lpon, Vadud Mahmud, Fitrat kabi adabiyotshunoslar Sharqda ham yaxshi ijodkorlar borligi, ularning hayot va ijod yo‘lini tadqiq qilish milliy adabiyotimiz uchun muhim yo‘nalish ekanligini ko‘rsatish maqsadida bir necha asarlar yaratishdi. Sharq adabiyoti deyilganda, ko‘z oldimizga Navoiy, Lutfiy, Xorazmiy, Bobur kabi adabiy siymolar keladi [4,229], chunki ular o‘rta asrdagi buyuk uyg‘onish davrida eng yaxshi ijod qilgan sermahsul shaxslar edi. Biroq Sharq Movoraunnahr va Xuroson bilan cheklanib qolmaydi, biz dastavval Sharq adabiyoti deyilganda, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo va Eron, arab xalqlari adabiyotini tushungan bo‘lsak, unga hozirgi zamonda yapon, koreys adabiyotlari ham qo‘shildi. Lekin jadid adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodi Sharq adabiyoti deb o‘rganilishi bilan birga hind va fors adabiyoti ham ma’lum darajada tadqiq qilingan, shuningdek, jadid mutarjimlari tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan qozoq maqollari, hind va Xitoy ijodkorlarining she’r va hikoyalari ham mavjud. Nikolay Ostraumov muharrirligida chiqadigan “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida 1900-yili Konfutsiy va uning hikmatlari haqida maqola va 1904-1905-yillardagi tojikcha she’rlar tarjimalarini Sharq adabiyotini o‘rganishga qo‘yilgan ilk qadamlar deb aytish mumkin. Keyinchalik turli to‘plam va gazeta-

jurnallarda bu masala yuzasidan umumiy hisobda ellikdan ortiq izlanishlar chop etilgan. Ulardagi asosiy figuralar Alisher Navoiy, Fuzuliy, Yassaviy, Turdi, Tagor, Bedil, Zebunnisobegim, Umar Xayyom, Bobur, Firdavsiy kabi ijodkorlar edi. Bu davrda nashr qilingan ayrim maqolalarni ko‘rib chiqib, keyin asosiy masalaga javob topa olamiz.

Vadud Mahmud o‘zining “Fuzuliy Bag‘dodiy” maqolasida o‘z baho mezonlarini islom va so‘fiylar falsafasiga tayanib berishga harakat qiladi. Bu maqola 20- yillarda o‘zbek o‘quvchilarini Fuzuliy hayoti va ijodi bilan tanishtiruvchi dastlabki manbalardan biri sifatida qimmatlidir. Unda ayrim bahsli masalalar, shoir shaxsiyati va dunyoqarashi, asarlari, ularning qaysi tilda bitilgani hamda Fuzuliyning Turkiston shoirlariga ta’siri kabi masalalar yoritilgan. Muallif shoirning tug‘ilgan maskani Bog‘dod tevaragi, oti Muhammad, otasining ismi Sulaymon bo‘lib, olim kishi ekanligidan, Bog‘dod “uch buyuk- arab, fors va turk til va adabiyotining uchrashg‘on maydoni” bo‘lganligidan xabar beradi [5,75]. Shoir islom madaniyatidan ham bahramand bo‘lgani aniqdir. Xo‘sh, shunday bir sharoitda tarbiya topgan shoirning tafakkur tarzi, ijodiy samaralari, tili qanday bo‘lishi mumkin? Fuzuliy uchun arab tilida she’r yozish unchalik mushkul bo‘lmasa ham, uning asl tabiatiga turkiy til ko‘proq yaqin edi.

V. Mahmud o‘z maqolasida takror- takror Fuzuliyning millati turkiy ekanligini ta’kidlab, o‘sha paytda bu borada kechgan bahslarga barham bermoqchi bo‘ladi.

Ma’lumki, Muhammad Fuzuliy sharq olamining tengsiz go‘zalliklaridan ilhom olgan shoirdir. Uning she’rlarida ilohiylikdan bahramandlik nafasi ufurib turadi:

Har kiming vor esa zotinda sharorat kufri,
Istilohi ulum ila musulmon o‘lmaz.
Gar qaro tosh qizil qon ila rangin edasan,
Tob’a tag‘yir verib, la’li badaxshon o‘lmaz...

Shoir o‘z asarlarida, xususan, yolg‘iz Ollohgagina e’tiqod va muhabbat, Rasulullohga hamd- sano, halolga nazar, haromdan hazar, ilmga amal kabi tuyg‘ularni kuylaydi. Talqinchi Fuzuliy ijodining ana shu qirralariga diqqat-e’tiborni qaratadi. Uning ustozi Habibiy taxallusli shoir g‘azaliga bog‘langan tubandagi muxammasini keltiradi:

To junun raxtin kiyub dutdim fano mulkin vatan,
Ahli tajridim qabul etmam, qavobu pirahan.
Har qavobu pirahan kiysam misoli g‘uncha,
Gar saning- chun qilmasam chok, ey buti nozik badan,
Go‘rim o‘lsun ul qabo, egnimda pirahan kafan.

So‘ngra yozadi: “Shu taxmisdan ham ko‘rilgani kabi Fuzuliy tasavvuf ruhi bilan anchagina sug‘orilgan bir shaxsdir. Bu tabiiydir. Chunki undan ilgari kelgan fikriy jarayonidan edi. Va uning javhari bo‘lg‘on islomiy tasavvuf uning ruhi edi” [5,27]. Shoirning dunyoga qarashi yuzasidan 20- yillar adabiy- ilmiy muhitida har xil fikrlar mavjud bo‘lgan. Birov uni mutasavvuf desa, boshqa olim

faqat dunyoviyligini ta'kidlashga uringan. Buning natijasida bahslar yuzaga kelgan.

Bu ulug' shoir din va tasavvufdan boshqa hikmat va tib singari ilmlardan ham voqif bo'lgan va ayrim asarlarini shu yo'sinda yozgan. Vadud Mahmud shuning uchun ham, "turkda Fuzuliy kabi dardli va o'tli bir shoir yo'q"ligini ta'kidlaydi.

Munaqqid Muhammad Fuzuliy Alisher Navoiydan ta'sirlanganini ham alohida qayd etadi. Bu borada Fuzuliy asar uslubi, tili, ohangi masalasida to'liq Navoiyga ergashmaydi, balki uning an'analarini yangilashga harakat qiladi.

Vadud Mahmud o'z maqolasining "Fuzuliyning Turkistonga ta'siri" deb nomlangan bo'limida ozar shoirining go'zal she'rlaridan bahramand bo'lgan turkistonlik ijod ahlining nomlarini sanaydi, she'rlaridan namunalar keltiradi. Fuzuliyning chig'atoychilar orasida tarqalishi bilan uning lahjasida she'r aytuvchilar maydonga chiqqani aniq, ulardan ba'zilari maxsus devonlar tuzishgan, Umarxon, Xotif singari shoirlar g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Umarxonning o'g'li Muhammadalixon va Fano degan shoirlar naz javharining durru marjonini Fuzuliy ifodasining ipiga tizdilar.

Munaqqidning "Fuzuliy tilining bu kungisi, ya'ni usmonlicha ila shoirimiz Cho'lpon ham ba'zi chiroylik parchalar yozadir", degan fikri ham o'z asosiga ega:

Ilk avval go'zimi ishq ila ochdim,
Ishqing maydonina qonimi sochdim.
Ishqsiz o'lkalardan u onda qochdim,
Na zamon bog'ladim zunnor ishq...

Ma'rifat ahli Cho'lpon ijodida bunday onda- sonda uchraydigan g'arb turkchasi ta'sirida bitilgan ayrim jo'shqin misralarni zukkolik bilan ilg'ab oladi, albatta.

Adabiyotshunos B.Karimov ushbu maqolaning kamchiligi deb she'riy parchalarning ko'payib ketganligini ta'kidlasa ham, bu maqolaning Fuzuliy haqidagi dastlabki ishlardan deb tan oladi [6,81].

Ne'mat Hakim 20- yillar adabiyotida muhim figura bo'lgani holda, adabiyotning bir necha sohalari bilan shug'ullangan munaqqiddir. Bizga ma'lumki, bizda bitiktoshlarni o'rganish bir muncha keyinroq boshlangan, lekin Ne'mat Hakimning "Bilim o'chog'i" jurnalining 1922- yildagi 1- sonida bosilgan "Kultagin sharafiga tikilgan bitiktosh" nomli maqolasi bu sohadagi qarashlarimizni haminqadar o'zgartiradi. Sababi biz shu paytgacha bilgan manbalarda bitiktoshlarni o'qigan va tarjima qilgan o'zbek olimlari sanoqli chiqadi: bitiktoshlarni o'zbek olimlaridan A. Rustamov, G'. Abdurahmonov va N. Rahmonovlar o'rganishgan bo'lsa, ularni qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek tiliga o'girgan olimlar sifatida A. Qayumov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamovlarning nomi sanaladi.

Ne'mat Hakimning bu maqolasini o'qib, uning o'zi ham Radlov, Tomson, Melioranskiy kabi olimlarning asarlarini o'rganib, Kultegin bitiktoshidan ayrim parchalarni tarjima qilganligini bilib olishimiz mumkin.

Quyida uning tarjimasidan ayrim namunalar keltiramiz:

Kulteginning asl matni:	**N. Hakimning tarjimalari:**
Akin ora edi o‘qsiz ko‘k turk oncha ulurur armish.	Ikki orada (qodir qoon bilan temir qopqa orasida) qoonsiz (yashagan) ko‘kturklar shuncha (uzoq zamonlar shul yerda) bo‘lturur o‘lg‘onlar.
Turk qaramig‘ budun oncha tamish: “allig budun artin, alim moti (omoti) qani? Kamka alig qozg‘onurman?”, tararmish.	(bundan keyin) turkning hamma qora xalqi shunday degan: “qabila uyushmasi bo‘lg‘on bir xalq edik, (a hozir) qabila uyushmasining azamati qayda? Kamiga (qaysi qoonga) qabila uyushmasi qozondirg‘usiman?”, deyar ekan.

Ne’mat Hakimning bu maqolasi orqali bitiktoshlar bo‘yicha biz bilgan ma’lumotlar ancha kengayib, yanada boyiydi, nazarimizda. Shu jihatdan ham, bu manba juda qimmatlidir.

Mana, o‘sha davrda yaratilgan Sharq adabiyoti tadqiqiga oid maqolalardan namunalar ko‘rdik, xo‘sh, jadid adabiyotshunosligida Sharq adabiyotini o‘rganish ehtiyoji nimalarda namoyon bo‘lar edi? Eng avvalo, inson o‘z o‘tmishini o‘rganmasdan turib, boshqa tomonlarga yuz burib ketishi donolik emas. Shu sababdan ham yangi o‘zbek adabiyotining ilk ildizlari bo‘lgan mumtoz adabiyotimizni, shuning bilan birgalikda Sharqning boshqa mumtozlarini tadqiq etish eng birinchi vazifa edi. Chunki jadidlarning eng muhim tashkilotlaridan biri- “Chig‘atoy gurungi”ning ijodiy va ilmiy dasturini amalga oshirish jarayonida Fitrat o‘zbek mumtoz adabiyotini uning qadimgi davrlaridan boshlab tadqiq etishni o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, Elbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va o‘rganishga bel bog‘lagan, Qayum Ramazon o‘zbek tilining tarixi va nazariyasini o‘rgana boshlagan davrda Cho‘lpon ham o‘zining ko‘p tarmoqli ijodiy faoliyati bilan bu ishga birmuncha hissa qo‘shgan [7,239]. Demak, jadidlar o‘z dasturlarini tuzishganida Sharq adabiyotini o‘rganish ular uchun muhim masala sanalgan.

Ikkinchidan, endigina maydonga kelayotgan yangi o‘zbek adabiyotining tarkibiy qismlari- adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidni haqqoniy ilmiy prinsiplarga asoslangan holda yaratish jadid adabiyotshunoslarining eng katta orzularidan biri edi. Sababi, adabiyot tarixi faqatgina yodnoma va tazkiralarda, adabiyot nazariyasi esa arab adabiyotshunoslariga ergashib yozilgan ilmiy asarlarda ko‘zga tashlanardi, xolos. Endi dunyoga bo‘ylashadigan adabiyot yaratish uchun birlashish, mavjud manbalarni mukammallashtirib, yangilarini prinsiplarga tayanib yaratish shart edi. Va bu ishni jadidlar tarjimayi hol yozishdan boshlashdi. Manbalar ko‘p bo‘lgani bilan ularning ishonchlilarini ajratish va bir butun tarjimayi hol yaratish

ehtiyoji sababli bir necha yangi ma'lumotlar ham to‘plangan. Masalan, Robindranat Tagor, Turdi Farog‘iy, Fuzuliy, Zebunnisobegim haqidagi turkum maqolalar shu ehtiyoj sabab yuzaga kelgan.

Uchinchidan, bizda tasavvuf ijodkorlari haqida aytarlik ma'lumotlar yo‘q edi, oddiy xalq esa bu kabi inonchlardan uzoqlashib ketayotganligi, tasavvufiy shoirlarning ijodiga mansub misralar soddaligi sababli ham xalq qalbiga singishi oson bo‘lishi ko‘zda tutilib, ularning ijodi ham alohida o‘rganilishni boshlandi. Chunki tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borgan, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko‘rsatgan edi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanib o‘z asarlarini yaratishgan. Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, nafaqat o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti, balki Sharqning o‘zini ham anglash qiyin. Aynan mana shu ehtiyoj sababli ham Fitrat Yassaviy va Yassaviy maktabi ijodkorlari haqida maqolalar yozdi, Abdulmo‘min Sattoriy ham “Boqirg‘on” maqolasi bilan “Uchqun” jurnalining sahifalarini bezadi (1923- yil 2- son).

To‘rtinchidan, yangi davr asarini yaratish uchun yangi nafas kerak edi, aynan shu sabab ham qardosh xalqlar adabiyoti bilan bir qatorda Xitoy, hind adabiyoti tadqiq qilina boshlandi. Jadid matbuotining muhim nashrlaridan bo‘lgan “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining sahifalarida Xo Yo Si ismli ijodkor qalamiga mansub “Hind qizi” hikoyasi (1929-yil, 1-son, 39-bet), muallifi noma'lum bo‘lgan “Xun Che Fu” hikoyalari (1927-yil,3-4-son, 25-bet), shuningdek, Robindranat Tagorning :”Qog‘ozdan qayiqchalar”, “Oq bulutlar bilan to‘lqunlar”, “Ko‘ngilchanlik” [7,36] hikoyachalari, “Suba” (1925-yil,7-8-son) hikoyalarining tarjima qilinishi ham fikrimizni isbotlaydi. Jadid hikoyalaridagi yangi motivlar, yangi o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga ham aynan mana shu o‘zgarishlar sabab bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Cho‘lpon o‘z tadqiqotlarida Tagor hayoti va ijodini o‘rganish barobarida uning bir necha hikoyasi va she'rlarini tarjima ham qilgan. Bundan tashqari shoirning o‘sha davrda yaratilgan bir necha she'rlarida Tagor ijodining nafasi sezilib turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sharq adabiyoti hamisha har zamon va har makon uchun muhim tadqiqot manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Jadidlar ham G‘arbga ko‘r-ko‘rona ergashib ketmasdan avvalo o‘z ildizimiz suv ichgan adabiyotni o‘rganishni, yangi davr adabiyotshunoslik ilmini yaratishda aynan ulardan birlamchi manba sifatida foydalanishni afzal ko‘rishgan. Sharq adabiyotini o‘rganish ehtiyoji mumtoz adabiyotimizning ayrim vakillari hayot yo‘lini aniqroq yortib berishga, badiiy asarlarda mavzu ko‘lamining ortishiga, qardosh xalqlar adabiyotini tarjima qilishga yo‘l ochgan.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маьрифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. (Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.- T.: Ma’naviyat, 2002)

2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

3. Boltaboyev H. XX asr boshlari adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. Fil.fanlari dok. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 1996. 367 b.

4. Hamroyeva F., Hikmatullayev M. Sharq adabiyotshunosligi, adabiy aloqalar//”Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. www.oriens.uz. 2022, iyun.

5. Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – T.: Universitet, 2000.- 157 b.

6. Mahmud V. Fuzuliy Bog‘dodiy// Maorif va o‘qitg‘uchi. 1925-yil. 4- son.

7. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.- T.: O‘zbekiston, 2008.- 532 b.

8. Robindranat Tagor hikoyachalari:”Qog‘ozdan qayiqchalar”, “Oq bulutlar bilan to‘lqunlar”, “Ko‘ngilchanlik”//”Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali. 1925-yil, 7-8-son.

9. Ғаниев И., Афоқова Н. Жадид адабиёти ва адабиётшунослиги библиографияси. - Тошкент: Академнашр, 2012. (G‘aniyev I., Afoqova N. Jadid adabiyoti va adabiyotshunosligi bibliografiyasi.- Toshkent: Akademnashr, 2012)

10. Турдиев Ш., Қориев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. - Тошкент: Фан, 1967. (Turdiyev Sh., Qoriyev B. O‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi.- Toshkent:Fan, 1967)

11. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.- Тошкент: Маънавият, 2004. (Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.- Toshkent: Ma’naviyat,2004)

12. Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. II жилд.- Тошкент: Фан, 2007. (Rahmonov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild.- Toshkent: Fan, 2007)

13. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот фихристи. 1- китоб.- Тошкент: Миллий кутубхона, 2010. (Nuriddinova F. Milliy matbuot fixristi. 1-kitob.- Toshkent:Milliy kutubxona, 2010.)

14. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот саҳифаларида.- Тошкент: Маънавият. (Nuriddinova F. Milliy matbuot sahifalarida.- Toshkent: Ma’naviyat.)

15. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 2009. (Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi.- Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009.)

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

TURAKULOVA BAKHTINISO
PhD student
Tashkent Institute of Irrigation
and agricultural mechanization engineers
Tashkent, Uzbekistan
92_peerage@mail.ru

EXPLORING THE NEXUS: THE RELATIONSHIP BETWEEN READING ACROSS DISCIPLINES AND CRITICAL READING

ABSTRACT

This article emphasizes the vital importance of critical reading skills in today's information-rich environment and identifies reading across disciplines as a powerful yet often overlooked method for enhancing these skills. It argues that while traditional education tends to compartmentalize knowledge, interdisciplinary reading breaks down barriers and offers a holistic approach to understanding complex issues. Through exposure to diverse perspectives and methodologies, readers develop intellectual agility, recognize patterns, and gain a deeper understanding of the world. The text stresses the need for active engagement and reflection in interdisciplinary reading and highlights the role of educators in promoting this practice. Ultimately, it asserts that the synergy between reading across disciplines and critical reading is essential for navigating the complexities of the modern world.

Key words: Evaluation, Intellectual/cognitive, Practical value, Reasoning, Logical value, Strengths, Weaknesses, Experiments, Statistical sections, Disciplinary standards.

TURAKULOVA BAXTINISO
doktorant
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
92_peerage@mail.ru

FANLARARO O'QISH VA TANQIDIY O'QISH O'RTASIDAGI MUNOSABAT

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi axborotga boy muhitda tanqidiy o‘qish ko‘nikmalarining hayotiy muhimligini ta'kidlaydi va fanlar aro o‘qishni ushbu ko‘nikmalarni oshirishning kuchli, ammo ko‘pincha e'tibordan chetda qoladigan usuli sifatida belgilaydi. Uning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim bilimlarni qismlarga ajratishga moyil bo‘lsa-da, fanlararo o‘qish to‘siqlarni yo‘q qiladi va murakkab masalalarni tushunishga yaxlit yondashuvni taklif qiladi. Turli nuqtai nazarlar va metodologiyalarga ta'sir qilish orqali o‘quvchilar intellektual epchillikni rivojlantiradilar va dunyoni chuqurroq tushunishadi. Ushbu maqola fanlararo o‘qishda faol ishtirok etish va mulohaza yuritish zarurligini ta'kidlaydi va bu amaliyotni targ‘ib qilishda o‘qituvchilarning rolini ta'kidlaydi. Oxir oqibat, u fanlar bo‘ylab o‘qish va tanqidiy o‘qish o‘rtasidagi sinergiya zamonaviy dunyoning murakkabliklarini boshqarish uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Baholash, Intellektual/kognitiv, Amaliy qiymat, Mulohaza yuritish, Mantiqiy qiymat, Kuchli tomonlar, Zaif tomonlar, Tajribalar, Statistik bo‘limlar.

ТУРАКУЛОВА БАХТИНИСО
докторант
Ташкентский институт инженеров
ирригации и механизации сельского хозяйства
Ташкент, Узбекистан
92_peerage@mail.ru

СВЯЗЬ МЕЖДУ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОМ И КРИТИЧЕСКИМ ЧТЕНИЕМ

АННОТАЦИЯ

В этой статье подчеркивается жизненно важное значение критических навыков чтения в сегодняшней насыщенной информацией среде и определяется чтение по различным дисциплинам как мощный, но часто упускаемый из виду метод улучшения этих навыков. В нем утверждается, что, хотя традиционное образование имеет тенденцию разграничивать знания, междисциплинарное чтение разрушает барьеры и предлагает целостный подход к пониманию сложных проблем. Знакомясь с разнообразными точками зрения и методологиями, читатели развивают интеллектуальную гибкость, распознают закономерности и получают более глубокое понимание мира. В тексте подчеркивается необходимость активного участия и размышлений в междисциплинарном чтении, а также подчеркивается роль преподавателей в продвижении этой практики. В конечном счете, в нем утверждается, что синергия между чтением разных дисциплин и критическим чтением необходима для преодоления сложностей современного мира.

Ключевые слова: Оценка, Интеллектуальная/познавательная, Практическая ценность, Рассуждение, Логическая ценность, Сильные и Слабые стороны, Эксперименты, Статистические разделы, Дисциплинарные стандарты.

In an era where information is abundant and easily accessible, the ability to critically engage with texts is more crucial than ever. Critical reading, the skill of analyzing and evaluating texts to discern their meaning, credibility, and implications, serves as the cornerstone of informed decision-making and intellectual growth. However, a lesser-explored avenue in fostering critical reading skills lies in the practice of reading across disciplines.

The traditional approach to education often compartmentalizes knowledge into distinct disciplines, each with its own methodologies, jargon, and paradigms. While specialization is valuable for in-depth understanding within a particular field, it can inadvertently lead to intellectual silos, limiting one's perspective and critical thinking abilities. Reading across disciplines, on the other hand, involves engaging with texts from various fields of study, transcending disciplinary boundaries to gain diverse insights and perspectives.

At first glance, the connection between reading across disciplines and critical reading may not be immediately evident. However, upon closer examination, it becomes apparent that the two are deeply intertwined and mutually reinforcing.

The intersection between reading across disciplines and critical reading has been a topic of interest for scholars across various fields. Numerous studies have explored the ways in which exposure to diverse disciplines influences individuals' critical reading abilities and cognitive processes. Here, I review key findings and insights from seminal works that have contributed to our understanding of this relationship.

Arthur Chickering and Zelda Gamson (1987): Chickering and Gamson's seminal work on "Seven Principles for Good Practice in Undergraduate Education" highlights the importance of encouraging student engagement with diverse perspectives and ideas. They argue that exposure to multiple disciplines fosters critical thinking skills by challenging students to analyze, synthesize, and evaluate information from various sources.

Howard Gardner (1983): In "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences," Gardner proposes the theory of multiple intelligences, which suggests that individuals possess different cognitive strengths and abilities. According to Gardner, exposure to diverse disciplines allows individuals to develop and refine their intellectual capacities across various domains, including linguistic, logical-mathematical, and interpersonal intelligence, all of which are integral to critical reading.

Jerome Bruner (1966): Bruner's work on the process of education emphasizes the importance of fostering a "cultural literacy" that encompasses knowledge from diverse disciplines. He argues that exposure to a broad range of

cultural and intellectual traditions enhances individuals' ability to engage critically with texts by providing them with a rich tapestry of ideas and perspectives to draw upon.

Carolyn Fischer and Barbara I. Dewey (2006): Fischer and Dewey explore the role of interdisciplinary learning in promoting critical thinking skills in their article "Critical Thinking Across the Disciplines." They argue that interdisciplinary approaches to education encourage students to approach problems from multiple angles, challenge assumptions, and consider alternative viewpoints, all of which are essential aspects of critical reading.

Peter J. Burke and Jan E. Johnson (2009): In their study "Looking Inward to See Outward: Assessing Learning from Interdisciplinary Study Abroad," Burke and Johnson investigate the impact of interdisciplinary study abroad programs on students' critical thinking skills. They find that exposure to diverse cultural contexts and academic disciplines enhances students' ability to think critically about complex issues and texts.


Anne M. Wescott and Sarah E. Kearney (2010): Wescott and Kearney explore the relationship between reading across disciplines and critical thinking in their article "The Impact of a Liberal Education on Cognitive Complexity: The Evidence from Selected General Education Courses." They find that students who engage with diverse disciplinary perspectives demonstrate higher levels of cognitive complexity and critical thinking skills compared to their peers.

William H. Newell (2012): In "Interdisciplinary Curricula and Critical Thinking: A Study of the Influence of an Interdisciplinary First-Year Program on Students' Critical Thinking," Newell investigates the impact of interdisciplinary curricula on students' critical thinking abilities. He concludes that exposure to interdisciplinary approaches enhances students' analytical skills and ability to evaluate complex arguments.

These studies collectively underscore the importance of reading across disciplines in fostering critical reading skills. By exposing individuals to diverse perspectives, ideas, and methodologies, interdisciplinary reading not only enriches their intellectual experience but also equips them with the cognitive tools necessary for effective critical analysis and evaluation of texts.

In Colonial times, reading instruction in the United States followed a straightforward, two-step process: Teach the children the code and have them read

Important terms of reading:



What is a text? The word "text" (from the Latin texere- to weave) refers to the words and form of a written work. Modern critical theory now applies that words to all kinds of writing, not just textbooks or official documents. A text can be an essay, a book, a letter, an advertisement or even a restaurant menu. Because it has such wide relevance, text is a very useful word in every discussion of reading. For no matter what you have read, the material you are discussing can be called "the text". Which texts you read may depend on such factors as the courses you take, the career you choose, the personal interests you wish to pursue, or whatever you find on the nearest coffee table. But you can expect that the range of texts you encounter during your lifetime will be enormous. Furthermore, you can be sure that the kinds of texts you read will acquaint you with a large number of disciplines.

When it comes to answering to the question what discipline is, the following definitions and descriptions could be appropriate: Discipline has to do with orderly conduct in the pursuit of knowledge. In college we use the term to refer to a field of study. Thus biology, history, economics, psychology, engineering and all the majors that a student might choose are called "disciplines". Beyond college those same disciplines are called professions. As we know, every profession generates plenty of texts about itself.

There is another term of reading, "reading across disciplines". It means reading widely, not limiting yourself to one subject or field of study. To some degree that sort of reading is an inevitable part of everyday life. If we check the vitamin listings on a cereal box, study a map on the way to a meeting, browse through the direct-mail advertising we receive, or scan the evening paper, we are reading across disciplines that include health science, cartography, marketing research, and journalism. So, nobody can avoid reading across disciplines in this ordinary way. But, in another sense, reading across disciplines means studying what is going on in areas outside your own major field of interest. Reading in

this way requires an active commitment on your part to become informed about developments in many fields. Investigating those developments is very much a part of higher education. That is why, college undergraduates are required to take courses in several fields as part of their general education. But, if someone's passion is biology or economics, but they take time to study history or philosophy, their crossing the border between their chosen discipline and those of their colleagues. Those border crossings can increase their awareness of the world and make them a better educated person. Reading across disciplines in this committed way can be difficult, however, because there are language barriers, even though the language becomes their own. Sooner or later, they will run up against the problem of "audience level".

Now we need to answer the question "What is audience level? Audience level is the required knowledge someone needs to read the given text. This previous knowledge could be special vocabulary, little-known facts, prerequisite reading in the subject. There are even special descriptions for audience level: "higher" audience level, "lower" audience level. If the given text requires more previous knowledge, it is described as the "higher" audience level text, If it is vice versa, "lower" audience level text.

Here is a piece of text on chemistry:

"A number is expressed in scientific notation by writing the first nonzero digit, then a decimal point, and then the rest of the digits. The part of a number in scientific notation that is multiplied by a power of 10 is called the coefficient. Then determine the power of 10 needed to make that number into the original number and multiply the written number by the proper power of 10. For example, to write 79,345 in
scientific notation, 79,345 = 7.9345 × 10,000 = 7.9345 × 104
Thus, the number in scientific notation is 7.9345 × 104. For small numbers, the same process is used, but the exponent for the power of 10 is negative:
0.000411 = 4.11 × 1/10,000 = 4.11 × 10−4"

If someone happens to be a specialist in chemistry, this piece of text can be easy to follow, smooth sailing to understand. If someone doesn't have previous knowledge on the field, such terms as "nonzero digit", "coefficient", "decimal point" may cause some difficulties.

There will be some questions while investigating levels of reading, especially, reading across disciplines: "Is reading across disciplines difficult?", "What skills are needed for Reading Across Disciplines?"

"Reading skills are not just basic tools of comprehension. Some basic skills of reading are as follows: to read at different speeds, to recognize main points, to remember the essential content of the material. However, there are other skills of reading beyond basic skills. If the reader is facing with a variety of texts in different disciplines, they need to acquire the skills of analyzing and evaluating. In one word, those skill of reading are called critical reading skills.

The connection between critical reading and reading across disciplines can be explained by following features:

Enhanced Understanding: Critical reading skills help readers navigate and understand the varied methods and terminologies encountered when reading across disciplines. It allows readers to critically evaluate how different disciplines approach similar issues.

Cross-Disciplinary Insights: By applying critical reading across disciplines, readers can draw connections between ideas from different fields, leading to a more comprehensive and nuanced understanding of complex topics. Improved Analysis: Critical reading sharpens the ability to analyze and compare different perspectives, a key skill when synthesizing information from multiple disciplines to form well-rounded conclusions.

Thus, critical reading is essential for effectively reading across disciplines, as it equips readers with the tools to deeply engage with and integrate knowledge from diverse fields.

However, there are some differences between critical reading and reading across disciplines. Their focus is completely on other things. Critical reading focuses on a deep, analytical approach to understanding and interpreting a text. The main purpose is to work with the material in a way that makes you question, evaluate and challenge the content.

On the contrary, reading across disciplines requires learning texts from a variety of academic fields or areas of study. The goal is to gain a broad understanding of how different disciplines approach similar topics or problems.

Here are the key differences between critical reading and reading across disciplines. It can be evident in their scope, purpose, and skills emphasized.

Purpose: Critical reading is more about deep analysis and evaluation of a single text, while reading across disciplines is about integrating and comparing knowledge from multiple fields.

Scope: Critical reading focuses on one text or a small set of texts, while reading across disciplines involves a broader range of sources from different academic areas.

Skills Emphasized: Critical reading emphasizes analytical and evaluative skills, while reading across disciplines emphasizes synthesis and comparative analysis.

Critical reading is a close, analytical examination of a text, while reading across disciplines is a broader exploration of how different fields of study approach similar topics.

One of the primary benefits of reading across disciplines is its capacity to cultivate intellectual agility and adaptability. When readers expose themselves to a wide array of subjects, they encounter different modes of thinking, problem-solving approaches, and conceptual frameworks. This exposure challenges their cognitive flexibility and encourages them to synthesize disparate ideas, fostering the ability to approach texts with an open mind and discernment.

Moreover, reading across disciplines encourages the development of interdisciplinary connections and analogical reasoning. As readers encounter concepts from diverse fields, they begin to recognize patterns, analogies, and

parallels across seemingly unrelated domains. This ability to draw connections not only enhances comprehension but also facilitates critical analysis by prompting readers to question assumptions, challenge biases, and evaluate the validity of arguments.

Furthermore, reading across disciplines enriches one's understanding of complex issues by offering multiple perspectives and lenses through which to examine them. By exploring topics from different disciplinary angles, readers gain a more holistic understanding that transcends narrow viewpoints and ideological biases. This holistic perspective is essential for cultivating critical reading skills, as it enables readers to consider diverse viewpoints, weigh evidence impartially, and discern the underlying assumptions and implications of texts.

Critical reading and reading across disciplines are deeply interconnected, as both involve analyzing, evaluating, and synthesizing information from various perspectives.

Critical Reading: This skill involves actively engaging with a text by questioning its content, structure, and purpose. A critical reader examines the arguments presented, the evidence used, and the biases or assumptions underlying the text. The goal is to not only understand the material but also to assess its validity and relevance.

Reading Across Disciplines: This involves engaging with texts from different fields of study, each with its own methods, terminologies, and approaches. When reading across disciplines, it's crucial to adapt your reading strategies to the specific norms of each field, whether it's humanities, sciences, or social sciences.

Conclusion

In essence, reading across disciplines serves as a catalyst for critical reading by fostering intellectual curiosity, expanding one's cognitive toolkit, and cultivating a nuanced understanding of the world. However, it is essential to recognize that the mere act of reading across disciplines is not sufficient; active engagement and reflection are equally crucial. To reap the full benefits of interdisciplinary reading, readers must approach texts with a critical mindset, asking probing questions, interrogating assumptions, and evaluating arguments rigorously.

Educators play a pivotal role in promoting the integration of reading across disciplines into educational curricula. By designing interdisciplinary courses, encouraging interdisciplinary research projects, and fostering a culture of intellectual curiosity, educators can empower students to become critical readers capable of navigating the complexities of the modern world.

In conclusion, the relationship between reading across disciplines and critical reading is symbiotic and mutually reinforcing. By embracing the interdisciplinary nature of knowledge, readers can enhance their critical reading skills, cultivate intellectual agility, and gain a more nuanced understanding of the world around them. In an age characterized by rapid change and information

overload, the ability to read critically across disciplines is not just a valuable skill—it is an essential tool for navigating an increasingly complex and interconnected world.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Louise Rosenblatt "The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work" 1978; Southern Illinois University Press.
2. Mortimer J. Adler and Charles Van Doren "How to read a book"; pages 53-54; New York, 1972
3. N. Fairclough "Language and Power"; pages 34-35; Longman publishing house; New York, London
4. K.Goodman "What is whole in whole language" 1986; Portsmouth; pages 87-88
5. L.Vygotsky "Mind in Society, Thought and Language"; Cambridge, Massachusetts; Harvard University Press; 1978
6. F.Smith "Understanding reading" (A psycholinguistics analysis of Reading and learning to read); pages 14-15; LAWRENCE ERLBAUM ASSOCIATES, PUBLISHERS 2004 Mahwah, New Jersey
7. H. Douglas Brown "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy."; Pearson Education (formerly Longman); 2001
8. J. Charles Alderson, Lyle. F. Bachman "Assessing Reading"; Cambridge University Press 2000
9. Christine Elizabeth. Nuttall; "Teaching Reading Skills in a Foreign Language," Heinemann Educational Books, London; 1982
10. Arthur Chickering and Zelda Gamson (1987): "Seven Principles for Good Practice in Undergraduate Education"
11. Howard Gardner (1983): In "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences,"
12. Peter J. Burke and Jan E. Johnson (2009) "Looking Inward to See Outward: Assessing Learning from Interdisciplinary Study Abroad,"
13. Carolyn Fischer and Barbara I. Dewey (2006) "Critical Thinking Across the Disciplines."
14. Peter J. Burke and Jan E. Johnson (2009) "Looking Inward to See Outward: Assessing Learning from Interdisciplinary Study Abroad,"
15. Anne M. Wescott and Sarah E. Kearney (2010)"The Impact of a Liberal Education on Cognitive Complexity: The Evidence from Selected General Education Courses."
16. William H. Newell (2012) "Interdisciplinary Curricula and Critical Thinking: A Study of the Influence of an Interdisciplinary First-Year Program on Students' Critical Thinking,"

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

BAXADIROVA SHOXINA
Tadqiqotchi
Renessans ta'lim universiteti
Toshkent, O'zbekiston
shaxinabaxadirova@gmail.com

GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN VA USLUBLARDAN ONLAYN TA'LIMDA FOYDALANISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilish, o'quvchining dalillar, qoidalar, sxemalar, jadvallar bilan ishlashlari, tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash kabi tushunchalar to'g'risida fikr yuritiladi. Shu bilan birga interfaol interfaol metodlarni qo'llashda o'quvchilarning yesh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshishi, bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, malaka, bilimdonlik, bahs-munozara, mustaqil fikrlash, taksonomiya, tafakkur, sub'ekt, mantiq.

BAKHADIROVA SHOKHINA
Researcher
Renaissance Educational University
Tashkent, Uzbekistan
shahinabakhadirova@gmail.com

USING INTERACTIVE METHODS IN ONLINE LESSONS IN DEVELOPING ENGLISH SPEAKING SKILLS

ABSTRACT

In this article, one of the main directions in the field of improving educational methods today is the introduction of interactive education and training methods, the student's work with evidence, rules, schemes, tables,

examples of verbs according to the level of thinking: diagnose, prove, concepts such as measuring, controlling, justifying, approving, evaluating, checking, comparing, comparing are discussed. At the same time, if the age, psychological characteristics, level of worldview, and life experiences of students are considered when using interactive interactive methods, the effectiveness of the lesson will increase, which will allow teachers to acquire professional skills, competence, knowledge, sensitivity and intuition. will be considered.

Key words: interactive learning, competence, knowledge, debate, independent thinking, taxonomy, thinking, subject, logic.

БАХАДИРОВА ШОХИНА
Исследователь
Образовательный университет Ренессанс
Ташкент, Узбекистан
shahinabakhadirova@gmail.com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ОНЛАЙН-УРОКАХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье одним из основных направлений в области совершенствования методов обучения сегодня является внедрение интерактивных методов обучения и работа обучающегося с доказательствами, правилами, схемами, таблицами, примерами глаголов по уровню мышления: диагностировать, доказывают, обсуждаются такие понятия, как измерение, контроль, обоснование, одобрение, оценка, проверка, сравнение, сопоставление. При этом, если при использовании интерактивных интерактивных методов учитывать возраст, психологические особенности, уровень мировоззрения, жизненный опыт учащихся, то эффективность урока повысится, что позволит педагогам приобрести профессиональные навыки, компетентность, знания, чувствительность и интуиция будут учитываться.

Ключевые слова: интерактивное обучение, компетентность, знания, дискуссия, самостоятельное мышление, таксономия, мышление, предмет, логика.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillardanoq ta’lim-tarbiya sohasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida mamlakatimizda bu sohada juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bugungi kunda ham jadal davom ettirilmoqda. O‘qitishning interfaol metodlarini ta’lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar

tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to‘la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. O‘tkazilgan ko‘pgina tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, o‘qitishga yangicha qarash, talabalarni o‘qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so‘z bilan aytganda, talabalar o‘quv jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va eslab qoladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashni taqozo etadi. Barchamizga ma’lumki, tilning har qanday ko’nikmasini rivojlantirish uchun hozirgi kundagi yangi texnologilardan foydalanib qo’llash tilni yanada samarali o’rgatishga o’z xissasini qo’shadi. Masalan, turli xil darslarda qo’llaniladigan elektron o’yinlar, gapirish ko’nikmasini rivojlantirish uchun mo’ljallangan o’yinlar, interaktiv mashg’ulotlarni qo’llash til o’rganuvchilarda yanada qiziqishni orttiradi. Innovatsion ta’lim modelining afzalliklaridan biri – yuqori saviyadagi o‘quvchilarning shaxsiy motivatsiyasi, nostandart fikrlash, mas’uliyat, tashabbuskorlik, atrofda bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatini shakllantirishga o‘rgatishning diqqat markazida turadi. Bunday mashg‘ulotlar mustaqillik, ijodkorlik, unumli va tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, o‘quv materialini yanada kengaytiradi. Hozirda ko'plab tilshunoslik va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o’rgatuvchi o'qituvchilarining ta’kidlashlaricha talabalar ikkinchi tilda gapirishni "o'zaro ta'sir qilish" orqali o'rganishadi. Kommunikativ tilni o'rgatish va hamkorlikda faoliyat olib borish bu maqsad tomon eltuvchi eng samarali yo’l hisoblanadi. Gapirish ko’nikmasini shakllantirish real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. Ushbu usulni ingliz tili darslarida qo'llash orqali talabalar bir-birlari bilan maqsadli muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xulosa qilib aytganda, ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradigan kundalik muloqot, samarali mashg’ulotlar va mazmunli vazifalarni bajaradigan sinf muhitini yaratishlari zarur. Bu esa talabalarning maqsadga erishish uchun vazifalarni guruhlarda bajarishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. O‘quvchilar ingliz tilini o‘rganish orqali belgilangan kompetensiyalarni samarali egallash masalasi quyidagi amaliy tavsiyalarga binoan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: o‘quvchilar ma’lum intellektual, ijodiy va kommunikativ bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Bu degani, ular matn bilan ishlashni bilishlari (asosiy fikrni belgilash va ajratish, chet tildagi matndan kerakli va zarur ma’lumotlarni qidirib topa olishi), ma’lumotni tahlil qila olishlari, kerakli xulosalarni chiqarishni, bahs olib borishni, suhbatdoshni tinglashni va tushunishni bilishlari kerak; uzluksiz ta’lim bosqichlarida har qanday chet tili (ingliz, nemis, fransuz) ni o‘qitish va o‘rganishda tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini integratsiyalashgan holda tatbiq qilish lozim. Bu o‘rinda, chet tilni o‘rgatishdagi madaniyat, asosan, ma’lum bir millat, elat, xalqlar hamda milliy qadriyatlar sivilizatsiyasidagi faoliyatga

asoslanadi. Ingliz tilini umumta'lim maktablarida o'qitish, asosan, chet tilni o'qitish maqsadi hamda belgilangan ta'lim mazmunidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'rganiladigan lingvistik, leksik, grammatik, talaffuzdagi birliklarda o'quvchining e'tiborini nutqiy jarayonga qaratish lozim;

o'quv materiallarini (mashqlar va texnologiyalar) saralashda uzviylik prinsiplariga rioya qilish kerak. Demak, nutqiy va til kompetensiyasini rivojlantirishga oid leksik, grammatik hodisalarga ham qo'shimcha mashqlar va texnologiyalar kiritib boriladi [4].

Chet tilining audiovizual texnologiyasini dars jarayonida qo'llash, videoma'lumotlardan foydalangan holda o'qitish uchun pedagogik algoritmdan foydalanish taklif qilindi. Algoritmlash o'qituvchi uchun algoritmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini ifodalaydi. Pedagogikadagi algoritm ko'rilayotgan ob'ektga olib boradigan ta'lim operatsiyalari ketma-ketligini ifodalaydi. Chet tili bo'yicha o'quv jarayonini algoritmlash, ayniqsa, o'quv qo'llanmalaridan foydalanishda katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'qitish uchun o'quv qo'llanmalarini qo'llash o'qitish texnikasida yaxshi rivojlangan muammodir. Shunga qaramay, yangi o'quv qo'llanmalarining (video, kompyuterlar) paydo bo'lishi ulardan samarali foydalanish va yaxshi natijalarga erishish imkonini beradigan maxsus ishlash texnikasini ishlab chiqishni talab qiladi. O'quv jarayonida videomateriallardan foydalanilganda ularni namoyish qilish ma'lum tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilishi va shuning uchun uni o'ziga xos tarzda tashkil etishi kerak. Ta'lim jarayonida videofilmlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi quyidagi faktlar bilan ta'minlanadi: turli manbalardan yozib olinadigan videoma'lumotlarning mavjudligi; videouskuna va video tayyorlashdan foydalanish bo'yicha muayyan tajribaning mavjudligi; ta'lim beruvchining yanada faol ijodiy faoliyati imkoniyati. Videomateriallar yordamida chet tilini o'qitish algoritmlarini tashkil etishda bilimlarni o'zlashtirish jarayoni sxema ko'rinishida foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

«Interfaol» tushunchasi ingliz tilidagi «interact»(rus tilida «interaktiv») so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy nuqtai nazardan «inter» – o'zaro, ikki taraflama, «act» – harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi [1].

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Avvalo, masofaviy ta'lim tushunchasi ta'rifiga to'xtalsak

-masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va o'quvchi bir-biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonini tashkil etishi [2].

Ushbu ta'lim turi dunyo miqyosida keng qo'llanlib samara berib kelayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, masofaviy ta'limning o'ziga xos texnologiyaviy turlari va ushbu ta'lim shaklini tashkil etishdagi ishtirokchilari mavjud. Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Interaktiv texnologiyalar [2]:

- internet masofaviy ta'lim portali;
- video va audio konferensiyalar;
- elektron pochta orqali ta'lim olish;
- internet orqali mustaqil ta'lim olish;
- uzoqdan boshqarish tizimlari;
- onlayn simulyator va o'quv dasturlarining mavjudligi va boshqalar.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi va o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi. O'qituvchining bevosita rahbarligida nazoratdan o'tadi, nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bilan muloqotda bo'ladi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, yelektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar ta'lim oluvchilarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish ta'lim oluvchilarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (tinglovchi va kursant) larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda (ruxsat etilganidagina) so'zlashdan iboratdir.

Eng muhimi, interfaol ta'lim va tarbiyani qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka

asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi hamda o‘quvchilarni ushbu yo‘nalishlarga yo‘naltiradi [2]:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlashlari;
- tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilishlari,

bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etishlari; o‘zlarini erkin tutishlari;

- o‘quvchilarning muammoni hal qilishga ijodiy yondoshuvlari;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari hamda ruhiy yaqinlikkaerishishlari;
- o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olishlari;

fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralab olishlari;

- o‘z faoliyatini nazorat qilishlari va mustaqil baholashlari;
- o‘z imkoniyatlari va o‘zlariga bo‘lgan kuchga ishonch hosil qilishlari;
- turli xil vaziyatlarda harakatlanishlari va murakkab vaziyatlardan mustaqil chiqa olishko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari

Interfaol metodlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasa-da, biroq ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida samaradorlikni ta’minlashda turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi ularni qo‘llashda ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba, tinglovchi) larning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, yanada oshadi. Bu o‘qituvchi (pedagog)dan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Respublikada uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi (pedagog)lardan har bir interfaol metodning mohiyati, xususiyati, qo‘llash shartlari bilan batafsil tanishib chiqish, amaliy ahamiyatini to‘g‘ri baholay olish talab qilinadi. Quyida masofaviy ta’limning afzalliklari keltirib o‘tiladi.

Masofaviy ta’limning metodik, iqtisodiy, sotsial va psixologik yutuqlari va afzalliklari mavjud. Metodik yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- dars jadvalni qulayligi - o‘quvchi o‘ziga ma’qul bo‘lgan vaqtda o‘quv jarayoniga qatnashishi mumkin:

• qulay foydalanish manzillari - o‘quvchi internet kafe, uy, mehmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o‘quv jarayoniga qatnashishi mumkin:

• qulay o‘qish tempi - ta’lim, o‘quvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida o‘tkaziladi:

• qulay o‘quv reja - o‘quv rejani talabalarga individual va davlat ta’lim talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin:

• ma’lumotlar bazasini to‘planishi - oldingi o‘qigan talabalar bilimlarini to‘plash va undan foydalanish imkoniyati:

• ko‘rgazmali qulayliklar - multimediya imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkoniyati:

• malakali o‘qituvchilarni tanlab ta’lim jarayoniga jalb qilish:

• dars jarayonini yozib olish va uni qayta ko‘rish imkoniyatining mavjudligi.

Iqtisodiy yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

• cheksiz masofaga ta’lim berish - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi masofa hech qanday ahamiyatga ega emas:

• ish jarayoniga xalaqit bermasligi - o‘quvchi ishdan ajralmas holatda ta’lim oladi:

• o‘quvchilar sonini oshirilishi - masofaviy ta’lim texnologiyalarni to‘liq qullagan o‘quv muassasa talabalar soni 2-3 barobar oshishi mumkin:

• arzon narxi - masofaviy ta’lim kurslari oddiy kurslarga qaraganda 2 va 3 barobar arzon.

Sotsial yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ijtimoiy guruhlarga ajratish yo‘qligi. Masofaviy ta’lim kursida ikkinchi oliy yoki qo‘shimcha ma’lumot oluvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o‘tash istagida bo‘lganlar; ikkinchi parallel ma’lumot olishni xohlagan talabalar; markazdan uzoqda, kam o‘zlashtirilgan mintaqalar aholisi; jismoniy nuqsonlari bo‘lgan shaxslar; armiya xizmatida bo‘lgan shaxslar; erkin ko‘chib yurishi cheklangan shaxslar va boshqalar qatnashishi mumkin.

NATIJALAR

Chet tilini mukammal egallash til materiallarini qayta-qayta takrorlash asosida amalga oshiriladi, biroq bir xil mavzudagi nutq mashg‘ulotlarini yilbo‘yi har darsda takrorlash kerak emas. Har darsda bir xil mavzuda suhbatlashish o‘quvchilar qiziqishini susaytiradi. Fasllar, oylar o‘zgarganda, mamlakat hayotida yangi o‘zgarishlar bo‘lganda, bayramlar arafasidagi suhbat mavzulari ham o‘zgarib boradi.

Masalan:

At the end of the week. Is everybody present?What's the date today?

Do you like Saturday (Sunday)?

What are you going to do at the weekend? Will you go in for any sports on Sunday? What will you do if the weather is good (bad)?

Do you always (usually) do your lessons on Sunday?

On the Eve of a Holiday (or Holidays) Everyone's present today, aren't they?What is the date today? What is the date tomorrow?

Will you come to school tomorrow? Why not?Where will you spend the holiday(s)?

What does your class (school, family) usually do during (for) the holiday(s)?

Are you going to go to the school(class) party?

What would you like to do during the holiday(s) ?

Do you like the holiday(s)? Why? What's your favorite holiday?

On the time-table. ... is absent today, I see. What has happened to...?What day of the week is it today ? Where are you from?

Nazariy jarayonlar va o‘quv jarayonida videoma'lumotlardan foydalanishning amaliy tajribasi tahlili asosida keltirilgan bosqichlar bo‘yicha chet tilini o‘rgatishda videomateriallardan foydalanishning pedagogik algoritmi ishlab chiqilgan.

Mashq atamaga metodik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar beriladi: chet tilda bajariladigan o‘quv amali; tarkibi talab hamda material qismlaridan iborat o‘quv birligi; muayyan tarzda tashkil etiladigan va qayta-qayta bajariladigan, til hodisalariga oid bilimlarni egallash, leksik, grammatik, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish, uni egallab olishga hamda bajarish usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan aqliy harakat; mazkur birliklarni nutq vaziyatida to‘g‘ri qo‘llash amali; kompetensiyalar rivojlanadigan «muhit» yoki «ekosistema»; kompetensiyalar egallanishini ta'minlash vositasi. Masofaviy ta'limni jarayonida quyidagi shaxslar qatnashishi shart, bular - masofaviy kurs muallifi, tahrirlovchi, o‘qituvchi, psixolog, administrator, hujjatshunos, telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi hamda o‘quvchilar.

- Muallif - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilovchi va tahrirlovchi

shaxs.

- Tahrirlovchi - masofaviy kurs muallifiga tizimni takomillashtirish

bo‘yicha maslahatlar beruvchi va kursni tahrirlovchi shaxs.

- O‘qituvchi - o‘quvchilar bilan o‘qish jarayonida muloqotda bo‘luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.
- Psixolog - o‘qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.
- Administrator - o‘quvchilarni qabul qilish va o‘qishdan chetlash masalalarini echuvchi va malakali o‘qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.
- Hujjatshunos- hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.
- Telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi-dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.
- O‘quvchi - o‘quv jarayonida qatnashuvchi shaxs

XULOSA VA MUNOZARA

1. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darslarda yuqorida bayon qilingan interfaol usullardan foydalanib og‘zaki nutq mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning tilga hamda darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortiradi. Og‘zaki nutq mashg‘uloti uchun oldingi darslarda o‘tilgan til materiallari, iboralar, nutq namunalari material sifatida olinadi, lekin mazmun notanish, yangi, qiziq ma’lumot beradigan bo‘lishi zarur.

2. Bu usullardan foydalanayotganda o‘quvchilarning talaffuzlari to‘g‘riligi nazorat qilib boriladi. Agar so‘z xato talaffuz qilinsa, so‘zning ma’nosi ham o‘zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar gaplar, kichik hikoyalar, dialoglar tuzib gapirib berayotgan paytda ularning talaffuzlari to‘g‘ri bo‘lishiga e’tibor qaratmog‘i lozim.

3. Interfaol usullardan foydalangan holda dars o‘tilsa, o‘quvchilarning tilga hamda darsga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi. O‘qituvchi yangi so‘zlar va so‘z birikmalarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarining nutq ko‘nikmalarini o‘stirishi mumkin. O‘quvchilar dars davomida yangi so‘zlarning ma’nolarini ingliz tilida bayon qilib berishlari mumkin. Yoki notanish so‘zni birinchi, uchinchi va to‘rtinchi harflarini yozib, qolgan harflarini topish topshirig‘ini berish orqali ularning so‘z boyliklarini boyitish hamda xotiralarini yaxshilash mumkin. Shu so‘zlar ishtirokida mikrodialoglar tuzilsa, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga turtki bo‘ladi.

4. Turli mavzudagi suhbatlar o‘quvchilar qiziqishlarini oshirib, darslarda faol qatnashishlarini taminlaydi.

Mashqlar tizimli ravishda osondan qiyinga, oddiydan murakkabga, bilimdan malakani shakllantiruvchi vaziyatda taqdim etilsa, o‘quv fani oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish mumkin. Sababi, bugungi kun talabi o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini real vaziyatda qo‘llay olishi kerak. A.M.Jarova zamonaviy darslik majmualaridagi mashqlar ratsionining boshlang‘ich sinflarda o‘quv-bilish faolligini oshirishdagi salohiyatiga e’tibor qaratgan.

Bildirilgan va sanab o‘tilgan videoma’lumotlar bilan ishlashning barcha bosqichlarini va yo‘nalishlarini, ko‘rib chiqish turlarini, turli xil o‘quv maqsadlarini, chet tili fanining o‘ziga xosligini hisobga olsak, bir qator bosqichlar ketma-ketligini taklif qilishimiz mumkin. Ularni videomateriallar bilan ishlash algoritmlari sifatida taqdim etish va ularni chet tilni o‘qitishda foydalanishni taklif qilamiz. Talaba yoshlar va boshqa masofaviy ta’limdan foydalanayotgan yohud foydalanish istagida bo‘lgan shaxslarga masofaviy ta’limning konstuktiv tomonlarini tushuntirish va dunyo ta’lim sistemasi darajasiga ko‘tarish hozirgi zamon ta’limining talablaridan ekanligini unutmaslik kerak. Zero, ushbu ta’lim internetdan va o‘z vaqtidan maqsadsiz, samarasiz foydalanayotgan yoshlarni vaqt va imkoniyatdan foydalanishga imkon yaratadi.

Iqtiboslar/Сноски/Reference

1. Bukatov V.M. Didiktik o'yinlarning pedagogik marosimlari. – M., 2003. –152 b.

2. Panina T.S., Vavilova L.N. Ta'limni kuchaytirishning zamonaviy usullari: Darslik. – M., 2008. – 176 b.

3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Faol ta'lim: o'quv qo'llanma. – M., 2009. – 192 b.

4. Innovatsion ta'lim dasturlarini amalga oshirishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash / Ed. Y.P.Zinchenko, I.A.Volodarskaya. – M., 2007 yil. – 120 s.

5. Vaziyat tahlili yoki Case usulining anatomiyasi / Ed. Y.P.Surmina. - Kiev, 2002 yil.

– 286 b.

6. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Darslik / Ed. N.V. Bordovskaya. – M., 2011. – 432 b.

7. Stupina S.B. Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalari: Ta'lim metodi. nafaqa. – Saratov, 2009. – 52 b.

8. Tolipov O.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // "Maktab va hayot" zhurnalig ilov. – T., 2003. – 32 b.

9. Bakieva G., Maxkamova G., Qo'ldoshev A. Ingliz tili 3. – Toshkent, 2007. –230 b.

10. Bakieva G., Irisqulov A., Rashidova F., Tillaeva N., Karimova Z., Tursunboeva S., D. Norova, M. Jaloldinova, D. Mamanabieva "English B1" - Toshkent: O'zbekiston, 2014. - 176 b. – ISBN 978-9943-28-043-4.

11. Boymatova S.K. Terminlarni o'rganishda tibbiyot talabalari o'rtasida o'quv va kasbiy aloqa sohasida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish. – Toshkent, 1993. – 48 b.

12. Vahobov M.M. Umumiy o'rta talim tizimida o'rnatish sifati monitoringi modelini takomilashtirish: ped. muxlis. dok. diss... abstrakt. – Toshkent, 2016. – 81 ball;

13. Buchbinder V. A. Og'zaki nutq o'rganish jarayoni va predmeti sifatida // Chet tillarda og'zaki nutqni o'rgatish usullari bo'yicha insholar / ed. V. A. Buxbinder. – Kiev: KDU, 1990. –148 b.

14. Vladimirova L.P. Chet tili darslarida Internet. IYASH, No3, 2012. i. 33-41.

15. Allayarova, S.N. Oliy ta'lim sektorida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish: Xalqaro tajriba va O'zbekiston misoli (2019) Xalqaro innovatsion texnologiyalar va tadqiqot muhandisligi jurnali, 9 (1), 386-392-betlar.

16. www.ziyonet.uz

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

HOSHIMOVA MOHIGUL,
tayanch doktorant,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston,
hoshimovamohigul6@gmail.com

DOSTON JANRINING XIX-XX ASRLARDA IJTIMOIY VA TA'LIMIY AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX-XX asrlar o'zbek adabiyotida yaratilgan dostonlarning ham ijtimoiy, ham ta'limiy ahamiyatini tubdan tahlil qilish va ularning tadqiq etilmagan jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Mazkur davrda yaratilgan dostonlarning tadrijiy takomili haqidagi ma'lumotlar, mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, Sharq mumtoz adabiyotimiz durdonalaridagi o'xshashlik va o'ziga xoslikni bir necha dostonlar misolida ko'rib chiqilgan. Adabiyotimiz durdonalari bo'lmish Miriyning "Rustam va Suhrob", "Majiddin va Faxrunniso", Havoiyning "Jangnoma", Furqatning "Suvorov haqida", "Yunon mulkida bir afsona", "Bir mojaro", Xiromiyning "Chor darvesh", Uvaysiyning "Shahzoda Hasan haqida" dostonlarining g'oyaviy- badiiy xususiyatlari, yozilish sabablari va ularning mavzu rang-barangligi tadqiq etilgan. Mazkur dostonlarning adabiyot va til oldida turgan muammolarni hal qilishda qay darajada ahamiyatga ega ekanligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy hayot, badiiy to'qima, an'ana va novatorlik, satira, qo'lyozma,manbalar,ta'limiy qarash.

KHOSHIMOVA MOKHIGUL,
PhD student,
Samarkand State University
named after Sharof Rashidov,
Samarkand, Uzbekistan
hoshimovamohigul6@gmail.com

SOCIAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE EPIC GENRE IN THE XIX-XX CENTURIES

ABSTRACT

This article aims to fundamentally analyze the social and educational significance of epics created in the Uzbek literature of the XIX-XX centuries

and reveal their unexplored aspects. Information and opinions about the gradual improvement of epics created during this period are presented. Also, the similarity and originality of the masterpieces of our Eastern classical literature were considered on the example of several epics. The masterpieces of our literature are "Rustam and Suhrob", "Majiddin and Fakhrunnisa", Hawai's "Jangnoma", Furqat's "About Suvorov", "A legend in the Greek property", "One conflict", Khiromi's "Chor". dervish", the ideological-artistic features of Uvaysi's epics "About Prince Hasan", the reasons for their writing, and the diversity of their themes are studied. The extent to which these epics are important in solving the problems facing literature and language has been considered.

Key words: tradition and innovation, satire, manuscript, sources. educational view.

ХОШИМОВА МОХИГУЛ,
Докторант (PhD),
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова,
Самарканд, Узбекистан
hoshimovamohigul6@gmail.com

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭПИЧЕСКОГО ЖАНРА В XIX-XX ВВ.

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является фундаментальный анализ социального и воспитательного значения эпосов, созданных в узбекской литературе XIX-XX веков, и раскрытие их неизученных аспектов. Представлены сведения и мнения о постепенном совершенствовании былин, созданных в этот период. Также на примере нескольких былин рассмотрены сходство и своеобразие шедевров нашей восточной классической литературы.

Шедеврами нашей литературы являются «Рустам и Сухроб», «Маджиддин и Фахрунниса», «Джангнома» Хаваи, «О Суворове» Фурката, «Легенда в греческих владениях», «Один конфликт», Хироми, «Чор Дервиш», изучаются идейно-художественные особенности былин Увайси «О князе Хасане», причины их написания, многообразие их тем. Рассмотрено, насколько эти былины важны в решении проблем, стоящих перед литературой и языком.

Ключевые слова: общественная жизнь, художественная ткань, традиция и новаторство, сатира, рукопись, источники, просветительское видение.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho adabiy merosni yangicha mezonlar asosida xolisona

tadqiq qilish uchun har qachongidan ham dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Ma’lumki, o‘zbek mumtoz she’riyati an’analarini o‘ziga xos davom ettirib, xalqimiz ma’naviy hayoti tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan Miriy, Furqat,Uvaysiy Xiromiy, Xavoiylarning adabiy merosini o‘rganish va ular yaratgan dostonlarning mazmun mohiyatini ochib berish va ularning g’oyaviy- badiiy xususiyatlarini o‘rganish orqali adabiyotimiz rivojiga ham ma’naviy, ham ta’limiy nuqtayi nazardan yordam berishi mumkinligini hisobga olib, muammoning dolzarb ekanligini bilishimiz zarur.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma’naviyati, uning taraqqiyot bosqichlari, o‘tmish va kelajak bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish, yosh avlodga ajdodlarimiz asarlarida ilgari surilgan g‘oya va mavzularning tub mazmun-mohiyatini anglatish, mutafakkir bobolar merosiga vorislik, izdoshlik, ularni Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch ruhida komil insonlar qilib tarbiyalash ehtiyoji adiblarimiz tomonidan yaratilgan dostonlarni o‘rganishning nechog‘li dolzarb ekanini anglatadi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy butun umri davomida olib borgan qizg‘in ijodiy va amaliy faoliyatini butunicha xalq baxt-saodati uchun kurashdi. U shaxsni o‘rta asr jaholati qulligidan ozod qilish, jamiyatni yomon, badkirdor va badnafs shaxslardan tozalash, kishilarda insoniy xislatlarni tarbiyalash orqali maqsadga erishish mumkin deb hisoblagan. Navoiynig bu tushunchalari XIX-XX asrda maydonga kelgan adabiyotning asosiy maqsadi bo‘lib qoldi. Navoiy an’analari tushunchasi adabiyotning g‘oyaviy asoslari masalasi bilan cheklanib qolmasdan yozuvchining uslubi, tili, adabiy usullari, yaratgan sujet va obrazlari, qo‘llagan adabiy janr va turlari shu an’anaviylikning tarkibiy qismini tashkil etadi. Ya’ni bu davrda klassik adabiyotdagi eski shakllar ishlatilgan bo‘lsa-da bu shakllar mazmun jihatidan ma’lum evolyutsiyaga, o‘zgarishga uchradi. Ularning shakli saqlanib, mazmuni o‘zgardi.

Mazkur davrdagi poemalarni ikki guruhga ajratish mumkin[1, 134]:

a) Afsonaviy va an’anaviy mavzularga bag‘ishlangan poemalar;

b) Tarixiy hodisa-voqealar va tarixiy shaxslarning faoliyatini aks ettiruvchi poemalar.

Sharq xalqlari islomdan keyingi davrda milliy adabiyot tizimlarini hukmron g‘oya, hukmron adabiy ta’sir doirasida o‘zlashtirib, o‘z adabiy jarayonlarini yangilashga muvaffaq bo‘ldilar. Uning yadrosini aruz bilan almashtirdilar. Ona tillari qonuniyatlari – so‘z boyligi, fonetik jihatlari, semantik xususiyatlari talablaridan kelib chiqib aruzning ko‘plab bahrlaridan eng moslarini tanlab oldilar va uni avvalgi badiiy tizimning mukammallik kasb etgan fazilatlari bilan rivojlantirishga erishdilar. Turkiy mumtoz adabiyotda tamsil, tashbih, syujetli obrazlar mohirona qo‘llangan tengi yo‘q adabiyot hisoblanadi, xususan, badiiy tafakkurning

namoyon bo‘lishi shakllari janrlar badiiy tizimining rang-barangligi, go‘zalligi, jozibasini belgilab beruvchi qonun-qoidalar tizimi ekanligidan tashqari, badiiy tizim taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, iste’dodning imkoniyatlarini o‘zida aks ettiruvchi mezonlar vazifasini ham o‘taydi.

Har bir janrning tarixiy taraqqiyoti, shu asosda takomillashgan qat’iy qonuniyatlari va tizimi mavjud. Har bir janrning hajm, mazmun va sifat chegarasi bor. Masnaviy ruboiydan nafaqat shakli, balki belgilangan chegaralari bilan farqlanganidek, barcha janrlar bir-biridan keskin ajralib turadi. Xususan, XIX-XX asrlarda yaratilgan dostonlar ham yuqoridagi belgilardan xoli emas, ularning barchasida janr qonuniyatlariga bo‘ysungan holda ijodkorning nuqtai-nazari, qarashlari, munosabati, individualligi, mahorati bo‘y ko‘rsatadi. Janr badiiy tizim ustqurtmasi tevaragida mustaqil harakatlanuvchi, lekin undan aslo uzilib ketmaydigan umum yaxlitlikning qismidir. Mustaqil harakatlanuvchi qism – janr, albatta, sifat o‘zgarishlariga uchrashi tabiiy. Lekin bu o‘zgarishlar ichki evolyutsiya tarzida kechadi.

Tadqiqotimiz ob’yekti- XIX-XX asrlar dostonnavislari mumtoz adabiyotimizning ushbu qonuniyatlari, badiiy tizim an’analarini qamrab olgan, o‘z qarashlari va iste’dodi darajasida uni qayta jonlantirgan ijodkordirlar. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu dostonlarda aks etgan asarlar adiblarning arab, fors va turkiy she’riyat tajribalaridan shunchaki foydalanib yozilgan emas. Bu asarlarda keskin o‘zgarayotgan ijtimoiy makonning yangi talablari: she’riy obrazlar hissiy-emotsional yukining orttirish, mavzuning tezkor talqini va yengil qabul qilinishi uchun ohangdor illyustratsiyalar kiritilgan va boshqa zamonaviy poetik tasvir vositalari mahorat bilan qo‘llanilgan. Garchand dostonlarda g‘oya ba’zi o‘rinlarda tasvir pardalari orasiga yashirinib qolsa-da, uning sirliligi va ko‘p ma’noda tovlanib turishi kishini hayratlantiradi.

Miriyning “Rustam va Suhrob”, “Majiddin va Faxrunniso”, “Rustam va Suhrob”, Havoiyning “Jangnoma”, Furqatning “Suvorov haqida”, “Yunon mulkida bir afsona”, “Bir mojaro”, Xiromiyning “Chor darvesh”, Uvaysiyning “Shahzoda Hasan haqida” dostonlarda ham poetik maqsadini janrlar qonuniyatlari asosida ifoda etish uchun juda ko‘p badiiy usullarga murojaat qilganlar. Xiromiyning boshqa asarlari ham o‘z mazmundorligi, qiziqarliligi, tilining sodda va ravonligi, ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Shoir klassik adabiyotimiz an’analariga amal qilib, mazmun bilan shaklni birgalikda ko‘radi. Har qanday mazmunning o‘ziga munosib shakl talab qilishini, shundagina asarning badiiylik kasb etib, inson

tuyg‘usiga ta’sir etishi mumkinligini yaxshi tushunadi. Buni biz bir qancha misollar orqali isbotlashimiz mumkin:

Demishlarki, har kimni kelganda ko‘r,
Bo‘lubtur masal:so‘zni so‘rganda ko‘r.

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, Xiromiy xalq maqol, masal va hikmatli so‘zlarini o‘z o‘rnida san’atkorona ishlargan. Xiromiy xalq dardi, fikri, talabiga muvofiq asarlar yaratgan. U “Chor darvesh”, “Mahfiloro” kabi asarlari bilan ishqiy-romantik dostonlar janrini rivojlantirishda muhim hissa qo‘shdi va adabiyotimiz xazinasini yangi durdonalar bilan boyitdi[4.308]. Xiromiyning “Chor darvesh” dostonida quyidagi misralar yozilgan bo‘lib, ijodkor o‘z nazdida xalqning og‘ir turmush sharoitida yashayotganligining asosiy sababi bilimsizlikni deb biladi.

Xiromiy o‘z davri urf-odatlaridan kelib chiqib, asarga ijodiy yondashganligini doston oxirida ham seziladi. Ijodkor badiiy adabiyotdagi inson va uni o‘rab turgan muhitni tasvirlash an’anasini ijodiy davom ettirib, asar voqealarini ruhiy tadqiq asosiga quradi. Har qanday san’atkor o‘zini qiziqtirgan muayyan g‘oyani qator obrazlarda, ularning xatti-harakati, intilishi, qarashlari, kishilarga, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari orqali ifodalaydi.Shuning uchun obrazlar bir-biridan farq qiladi.

Dedilarki bir ishga bosh aylagil,
Malomatdin o‘zni xalos aylagil.
Ani munda kelmakligi xo‘b ermas,
Xirad ahliga balki marg‘ub ermas.

Baytni sinchiklab o‘qib qaralsa, Xiromiyning asl maqsadi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bir ishni mukammal tugatmasdan turib, ikkinchi ishni boshlamaslik kerakligi uqtirib o‘tilmoqda. Boshqacha aytganda har bir obrazning o‘ziga yuklatilgan vazifasi, mas’uliyati bo‘lib, u orqali ijodkor ma’lum maqsadga erishadi.Dostondagi har bir qahramonlar manashu tamoyillar orqali o‘ziga yarasha vazifa bajaradi.

Ulus yodig‘a kelgusi goh-goh,
Duo birla bo’lsa anga nekxoh[[4, 167].

Ushbu baytga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xalqning yodiga gohida kelsa ham ta’limga va tarbiyaga e’tibor berilmayotganligi, bunday qiyin vaziyatdan chiqishning birdan bir yo‘li bilim va tafakkur ekanligini aytib o‘tmoqda. Unda shoir Hazrat Navoiy kabi lirik qahramon ruhiyatining ifodasi asta-sekin avj nuqta sari ko‘taradi. Ijodkor she’riyatdagi kinoya, kesatiq, o‘pka- gina ohanglarini juda yaxshi ilg‘agan va bu narsani dostonlariga singdirib bergan.

Har bir ijtimoiy muhit ideologiyasining turli formalari qatori badiiy adabiyot oldiga ham o‘z talablarini qo‘yadi va davrning muhim muammolarini hal qilish, uni badiiy tarzda gavdalantirib berishni taqozo qiladi. Shu ma’noda aytish

mumkinki, klassik dostonchiligimiz hayot voqeasini roman, qissa, drama singari epik janrlar zimmasidagi g‘oyaviy- badiiy vazifani ham o‘tab kelgan. Ushbu vazifani ado etish jarayonida mazkur janrlarning muhim estetik alomatlarini o‘zida mujassamlashtirgan adabiy obidalar yaratdi.

Demak, poema janri o‘zining estetik vazifasiga ko‘ra milliy adabiyotimiz tarixi va uning rivojlanish bosqichlari bilan yetakchi tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda tajassum topdi.Xalqimiz tarixiga ahamiyat berib qarasak, XIX-XX asrlarda mehnatkash xalq moddiy jihatdangina emas, ma’naviy jihatdan ham ezilar, tibbiyot kabi fanlarning rivojlanishiga Abu Ali Ibn Sino kabi olimlarning yashab ijod qilishiga johil ruhoniylar qarshilik ko‘rsatishar, natijada juda ko‘p kishilar dardiga davo topolmasdan , bemahal o‘lib ketardi. Xiromiyning ushbu asarlarida xalqning og‘ir turmushi, baxtli xayot, odil va zolim podsho, tibbiyot sohasining ahvoli, insoniy muhabbat kabi masalalarga bag‘ishlangan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Kattaqo‘rg‘on adabiy maktabi namoyandalari singari, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ham o‘zbek adabiyotining barhayot an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirishdi. Shubhasiz, bu jarayonlar Uvaysiz ijodiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

I.Haqqul “XX asr o‘zidan avvalgi deyarli barcha yuz yillikdan farqlanadi . Taraqqiyot va tamaddun nechog‘lik yuqori bo‘lsa, tanazzul va qattolligi shunchalik cheksiz-chegarasiz”,- deb yozar ekan XIX-XX asrlar adabiyotining manzarasini chizib bergan.

Mazkur davrga oid dostonlar qatorida Uvaysiyning “Shahzoda Hasan haqida” dostoni alohida ahamiyatga ega. Asarda Hasan obrazi mard, adolatli, sulhparvar hokim bo‘lib gavdalanganni. Dostonning asosiy g‘oyasi ezgulik va odillikni targ‘ib etishdir. Poema diniy mavzu yo‘nalshida yaratilgan bo‘lib, moziydan olingan saboq bilan ularga ko‘zgu tutish shoiraning asosiy niyati edi. Asardagi bosh g‘oya Hasan obrazida mujassamlashtiriladi. Timsolning ikki qirrasi bor. Birinchisi, podshoh sifatidagi xarakter tizimi bo‘lsa, ikkinchisi oddiy inson, shaxs sifatidagi qiyofasi. Shoira bosh timsolning ikki yo‘nalishidagi siyratini ham mukammal yoritib bera olgan. Asarda uni har tomonlama komil xulq-u atvorga ega inson sifatida tasavvur eta olamiz. Bir o‘rinda Hasanning shaxs sifatidagi fe’l-atvori shunday yoritiladi:

Ilm-u karamu suxan liynidin,
Bo‘ldiki manoqib ichra yaqin.
Ham toat-u ibodat angadur xos,
Jon-u dil birla xaloyiq etti ixlos.
Xushxoyluqi kitoba sig‘mas,
Shirin so‘ziniki xalq bilmas.
Ham erdi malihu, hamfasihdur,
Yer yuzida go'yiyo Masihdur[8,38].

Ushbu nisralarga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, unda shoira xalqning orzu-umidlarini quyidagi misralarga jo qilgan. Sahzodaning ham ilmda, ham karamda, ham shirinsuxanlikda tenggi yo‘q ekanligini ta’kidlaydi. Devon qo‘lyozmaning 187-sahifasida tugaydi. Asarda shoira adolatli va sulhparvar hokim Hasan obrazini yaratgan. Dostonning asosiy mohiyati yaxshilik va adolatni targ‘ib etishdir. Asar mazmunan diniy mavzuga bag‘ishlangan. Shahzoda Hasanning hayot yo‘li tasvirlangan. Ammo, shoiraning asosiy maqsadi faqat bu emas. Unda Shahzoda Hasan zamondoshlarining ko‘zini ochish, moziydan olingan saboq bilan ularga ko‘zgu tutishdir. Uvaysiy ham mazkur dostonni an’anaviy tarzda Alloh madhi bilan boshlaydi. Unda dunyoning yaratuvchisini ko‘klarga ko‘tarib maqtaydi va hamd-u sanolar aytadi. Keyin 48 misrada chahoryorlar tavsiflanadi. So‘ngra dostonning asosiy sujeti bilan bog‘liq voqealar bayoni boshlanadi. Yuqoridagi parchani tahlil qiladigan bo‘lsak, dostonnavis oldingi salaflari yo‘lidan borib, talmih san’atini qo‘llagan holda dostonga o‘zgacha ruh va joziba bag‘ishlagan.

Ijtimoiy hayotda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar adabiyotga yangi mavzu va qahramonlarning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa,XIX asrning oxiri XX asrning boshlari adabiyotining mavzu ko‘lami kengayib bordi. Uvaysiy ijodiga nazar tashlasak, unda shoira shaxsiyatidagi shiddat, e’tiqodidagi sobitlik, milliy islomiy o‘zlik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu davr dostonnavislardan yana biri Havoiydir. Muhammad Umar asli marg‘ilonlik bo‘lib, Havoiy, Umidiy taxalluslari bilan asarlar yozdi. Havoiy Muqimiy, Furqatlar bilan yaqi aloqada bo‘lgan, ular bilan ijodiy hamkorlik qilgan. Uning “Jangnoma” dostini 1888- yilda yaratilgan. Doston XIX asrning 60-70-yillarida Qashqadaryoda ro‘y bergan Yoqubbek voqealari tasviriga bag’ishlangan. Doston voqeasi Yoqubbekning vafoti bilan tugaydi. Havoiy dostonlari Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish, XIX asr o‘rtalarida avj olib ketgan xonlar, beklar qirg‘ini davrida fojiona umr kechirishga majbur bo‘lgan xalq hayotini o‘rganish uchun adabiy hujjat sifatida juda muhimdir.

XIX asrda mumtoz adabiyotimiz – Buxoro, Xiva, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘qon adabiy maktablarining iste’dodli vakillari ijodiy faoliyati natijasida yangi, original mushohada usuliga ega haqsizlik va zulmga ma’naviy yuksalish bilan javob qaytarishga moyil shiddatli, umummilliy adabiy jarayonga asos soldi. Furqat serqirra ijodkor, tafakkur olami keng, sinchkov va ziyrak, har bir so‘zning benazir mahorat bilan ishlata oladigan, uning semantik, stilistik strukturaviy o‘zgarishlarini, istilohlarini chuqur va puxta bilar edi. Furqatning dunyoqarashi, g‘oyalari, bashariyat haqidagi hikmatona fikrlari, badiiy talqinlari bugungi tarbiya jarayonida ham ma’lum ahamiyat kasb etadi. U butun ijodi bilan buyuk dostonnavislarning izidan borib, inson manfaatlarini kuyladi, vatanparvarlik va insonparvarlikning sharqona axloqiy poklikka asoslangan tizimini yaratishga harakat qildi. Inson qalbiga ezgulikni jo aylash, oqil va fozil kishilarni tarbiyalash deyarli

barcha jamiyatlar uchun dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bu kabi qarashlarning asl manbai sharqona qadriyatlar, ajdodlar an’analari va tajribalari, diniy-axloqiy mezonlar bo‘lib, Furqat o‘z ijodiy faoliyatida bu sarchashmalardan ilhom olgan, undan bor iste’dodini ishga solib foydalangan.

Furqat asarlarini biografik metod asosida tekshgirish, ayniqsa, psixobiografik usul bilan tekshirish yozuvchi ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirishga yordam beradi. Furqat kichik hajmdagi lirik she’lar (g‘azal , muxammas va boshq.), o‘rtacha hajmdagi sujetli she’rlar (masnaviylar) yozish bilan birga, katta hajmdagi epik asarlar-dostonlar ham yaratdi. Bizgacha Furqatning uch dostoni - “Suvorov haqida”, “Yunon mulkida bir afsona” va “Bir mojaro” dostonlari yetib kelgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu uch dostonning xarakteri uch xil. “Suvorov haqida” dostoni tarixiy- biografik xarakterga ega bo‘lib, ulug‘ rus sarkardasi, rus qurolli kuchlarining iftixori Vasilyevich Suvorov obrazini yaratishga harakat qiladi. Masnaviy xarakteridagi bu she’riy asar 1890-yilda Toshkentda yozilgan[1,151]. Dostoning yozilishiga bevosita sabab bo‘lgan hodisa 1890-yilda Toshkentdagi rus teatrida qo‘yilgan tomosha bo‘ldi. Furqat poemasida yaratilgan Suvorov obrazida tarixiy shaxs Suvorovdagi asosiy xususiyatlar to‘liq aks ettiriladi. Mazkur doston orqali Furqat rus sarkardasi timsolida undagi oliyjanoblik fazilatlarini tarbiyaviy nuqtai nazardan ko‘rsatib bergan. Bunga Suvorovning qishloq bolalari bilan diologida ko‘rishimiz mumkin. Demak, Furqatning “Suvorov haqida” dostoni katta ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lish bilan birga, muhim tarixiy ahamiyatga ham egadir. Dostonning so‘nggida Furqat quyidagi misralarni yozadi:

Qo‘shulib rusi birlan rumi sarboz,
Yetib Melonga qildi jang og‘oz.

Buyuk salaflaridan badiiyat saboqlarini o‘zlashtirib, mahorat va fasohat cho‘qqilari sari yo‘l tutgan dostonnavis kishini hayratga soluvchi dostonlar bitdi. An’anaviy timsollardan butun ijodi davomida unumli foydalangan ijodkor o‘rni kelganda ulardan voz kechib, yanada ta’sirchan, ko‘p ma’noli, ko‘p suvratli tasvirlar yaratdi. Ayniqsa, uning so‘zga bo‘lgan munosabati, so‘z tanlash mahorati diqqatga sazovor. U xalqona so‘z va iboralarni asarlariga mahorat bilan kiritdi. Bular esa o‘z navbatida shoir she’rlarining badiiy yetukligi, chuqur samimiyati va xalqchilligini ta’minladi.

Furqatning “Yunon mulkida bir afsona” dostoni yarim afsonaviy tusdagi sarguzashtni bayon qiluvchi romantik dostondir. Ulug‘ Navoyiga ergashish, uning asarlaridan iqtibos olish, fikr-g‘oyalarini sharhlash barcha Navoyiga izdosh o‘zbek mumtoz shoirlari qatori Furqatga ham fazl-u iftixor sanalgan. Shoir mazkur mavzuda doston yaratar ekan, uning Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Hotifiy va Fuzuliyning shu boradagi dostonlari bilan tanishligi ko‘rinib turadi. Furqat dostonchiligi o‘ziga xos yo‘nalishni tashkil qiladi. U asarlarida yozma va og‘zaki adabiyot yutuqlarini ilmiy, tarixiy va islomiy

donishmandlik va tafakkur hikmatlarini uyg‘unlashtira oladi. Badiiy tilda soddalik, ravonlik va aniqlikka rioya etish bilan birga, chuqur hayotiy hikmatlami kashf etadi.

Furqatning yana bir dostoni mavzu va hajm jihatidan yuqoridagi ikki dostonidan farq qiladi. “Bir mojaro” dostonida Furqat yashagan davr hayotidan olingan bo‘lib, tanqidiy- satirik xarakterdadir[14,134]. Shoir unda xalqning sevimli timsollari taqdiri bilan bog‘liq an’anaviy syujetlami asos qilib oladi. Yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki ijodida ham qayta-qayta rnurojaat etilgan mavzularga Furqat yangicha ruhiy talqinlar, ijodiy yondashilgan timsollar tizimi asosida yangi hayot bag‘ishlaydi. Uchchala doston ham nasr va nazm shaklida yaratilgan. Furqat dostonchiligining o‘ziga xosligi shundaki, u shakl jihatidan xalq dostonchiligiga juda yaqin.

Inson qalbiga ezgulikni jo aylash, oqil va fozil kishilarni tarbiyalash deyarli barcha jamiyatlar uchun dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bu kabi qarashlarning asl manbai sharqona qadriyatlar, ajdodlar an’analari va tajribalari, diniy-axloqiy mezonlar bo‘lib, yuqorida sanab o‘tilgan ijodkorlar ham o‘z ijodiy faoliyatida bu sarchashmalardan ilhom olgan, ulardan bor iste’dodini ishga solib foydalangan. XIX-XX asrlar o‘zbek so‘z san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi[10,203].

Bu davr vakillari o‘zbek adabiyotining barhayot an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirdi, yangicha munosabatlar kontekstida rivojlantirdi. Har biri iste’dodi darajasida mumtoz she’riyat xazinasini yangi usullar, tashbih-u timsollar bilan boyitdi.

O‘zbek adabiyoti vakillari asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan turkiy va musulmon xalqlari tarixiga oid materiallardan foydalangan holda o‘z fikrlarini ifodalashga intilganlar.

Yuqoridagi dostonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlar ularda g‘oyaviy yaxlitlikka intiladi, doston boshidagi fikrni asar so‘ngiga qadar izchil davom ettirishga, boshlama misrada aytilgan g‘oyani baytma-bayt ochib, dalillab borishga va ohorli umumlashma bilan yakunlashga harakat qilganlar.

Иқтибослар / Сноски / References

1. G'.Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent "O'qituvchi"1987, 320 b

2. A.Jalolov. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi O'zbek adabiyoti.-Toshkent: Fan, 1991.151 b

3. B.Valixo'jayev."O'zbek epik poeziyasi tarixidan", Toshkent"Fan"1974.170 bet.

4. Xiromiy.Chor darvesh.-Toshkent:1960.840-bet.

5. B.Valixo'jayev. Miriy va uning zamondoshlari.-Toshkent:Fan,1977.260 bet.

6. V.Abdullayev, R.Orzibekov. Navoiy va XIX asr Kattaqo'rg'on shoirlari.-Samarqand 1985. 100 bet.

7. Abdullayev V.O'zbek adabiyoti tarixi.2-kitob.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.

8. E.Ibrohimova. Uvaysiy dostonlari haqida." O'zbek tili va adabiyoti " jurnali 1960, 6-son, 38-44-betlar.

9. Valixo'jayev B. XIX-XX asrning 2-yarmidagi o'zbek poemachiligida Alisher Navoiyning traditsiyalari.Adabiyot va hayot.-Samarqand,1969.13-20-b.

10. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent: O'zbekiston,2002.557-b.

11.Muhiddinov M.Q. Komil inson-adabiyot ideali.-Toshkent:Ma'naviyat,2005, 208-b.

12. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (milliy uyg'onish davri). Samarqand: SamDU nashri, 2003. 238 b.

13. O.Sharofiddinov. O'zbek adabiyoti tarixi O'zbek adabiyoti tarixi xristomatiyasi(XV-XIX asrlar).-Toshkent: O'zdavnashr,1945,217 b.

14. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik (nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul).-Toshkent: Badiiy adabiyot,1960. 232 b.

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

SULAYMONOVA FARIDA,
mustaqil tadqiqotchi,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O'zbekiston
faridasulaymonova86@gmail.com

GAP NAZARIYASI HAQIDA MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Bilamizki, til bir butun sistema bo'lib, u sathlardan tashkil topgan. Shu sathlar orasida eng yuqorisi – bu sintaktik sath hisoblanadi. Sintaksisning muammolaridan biri gap tushunchasi bo'lib, uning qoidasi adabiyotlarda turli shakllarda berilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur maqolamizda asosiy maqsad qilib, o'zbek va Yevropa tilshunosligida gapga doir berilgan ta'riflarga alohida to'xtalib o'tganmiz, qiyoslangan va o'zbek tilidagi gap qoidasini bitta qolipga keltirish masalasini ko'rib chiqqanmiz. Gapni tasniflash masalasi va turlarini o'rganish, sintaktik tarkibi qisqargan gaplarning tadqiqiga oid tavsiyalarini ishlab chiqish tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Tilshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida o'zbek tilining ichki imkoniyatlari, go'zalliklari, yashirin jihatlari ochib berilgan. Aynan sistem-struktur tilshunoslik yo'nalishida bugunga qadar millionlab tadqiqot ishlarini misol qilish mumkin. Endilikda esa antropotsentrik tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar ham yuqorida keltirilgan maqsadlarga yo'naltirilgan. Ushbu kichik tadqiqotimiz ham tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan sintaksisga oid bo'lib unda gap, uning turlari, sintaktik tarkibi qisqargan gaplarning kichik tadqiqiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: gap, sintaksis, til, sistema, tilshunoslik, til sathlari, nutq.

SULAYMONOVA FARIDA,
исследователь,
Самаркандский государственный университет
имени Ш.Рашидова
Самарканд, Узбекистан
faridasulaymonova86@gmail.com

СООБРАЖЕНИЯ ПО ТЕОРИИ РЕЧИ

АННОТАЦИЯ

Мы знаем, что язык – это целая система, состоящая из уровней. Высшим среди этих уровней является синтаксический уровень. Одной из проблем синтаксиса является понятие предложения, и мы видим, что его правило в литературе дается в разных формах. В данной статье мы остановились на определениях предложений в узбекском и европейском языкознании, сравнили их, а также рассмотрели вопрос приведения правил составления предложений в узбекском языке к единому шаблону. Основная цель нашего исследования – изучить вопрос и виды классификации предложений, разработать рекомендации по изучению предложений с редуцированной синтаксической структурой. В большинстве исследований, проводимых в области языкознания, раскрываются внутренние возможности, красоты и скрытые стороны узбекского языка. Именно в направлении системно-структурной лингвистики можно привести пример миллионов исследовательских работ на сегодняшний день. В настоящее время работы, проводимые в области антропоцентрической лингвистики, также направлены на вышеуказанные цели. Это небольшое исследование также связано с синтаксисом, который является одним из основных разделов языкознания. Оно посвящено небольшому изучению предложений, их типов, синтаксической структуры сокращенных предложений.

Ключевые слова: предложение, синтаксис, язык, система, лингвистика, языковые уровни, дискурс.

SULAYMONOVA FARIDA,
researcher,
Samarkand State University
named after Sh. Rashidov
Samarkand, Uzbekistan

CONSIDERATIONS ON SPEECH THEORY

ABSTRACT

We know that language is a whole system, which consists of levels. The highest among these levels is the syntactic level. One of the problems of syntax is the concept of a sentence, and we can see that its rule is given in different forms in the literature. In this article, we focused on the definitions of sentences in Uzbek and European linguistics, compared them, and considered the issue of bringing the rules of sentences in Uzbek to a single template. The main goal of our research is to study the issue and types of sentence classification, to develop recommendations for the study of sentences with reduced syntactic structure. In most of the researches conducted in the field of linguistics, the internal possibilities, beauties, and hidden aspects of the Uzbek language have been

revealed. It is in the direction of system-structural linguistics that one can give an example of millions of research works to date. Now, the works being carried out in the field of anthropocentric linguistics are also directed to the above-mentioned goals. This small study is also related to syntax, which is one of the main branches of linguistics. It is devoted to a small study of sentences, their types, syntactic structure of shortened sentences.

Keywords: sentence, syntax, language, system, linguistics, language levels, discourse.

Gap sintaksisning asosiy birligi ekanligi barcha grammatik adabiyotlarda qayd etiladi. Tilning sintaktik sathini Abdurauf Fitrat qarashlarida yangicha tus olgan bo‘lsa, keyinchalik bu ishni A.G‘ulomov, B.O‘rinboyev, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, R.Sayfullayevalar o‘zlarining “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” kitoblarida umumiy o‘rgangan, xususan, sintaktik tarkibi qisqargan atov gap, so‘z gaplarni B.O‘rinboyev o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida, N.Turniyozov o‘z tadqiqotlarida, M.B.Finkelshteynning “To‘liqsiz gaplarni o‘rganish tarixidan”, A.G‘ulomovning “To‘liqsiz gapning to‘liqligi”, S.Ravshanovaning “So‘z-gaplarning ba’zi xususiyatlari”, A.Mamatovning “Atov gap haqida”, H.Usmonovaning “To‘liqsiz gaplar haqida ba’zi mulohazalar” nomli maqolalarida ilmiy jihatdan asoslab o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yer yuzida hayot boshlangan vaqtdan boshlab so‘z mavjud bo‘lgan. Tangri tomonidan Odam atoga o‘rgatilgan ilmlar natijasida ong, tafakkur, bilim kabi tushunchalar shakllangan. O‘sha vaqtdan buyon insoniyat ilm oladi, bu borada tashviqotlar olib boradi, kashfiyotlar yaratadi. Insonga ato etilgan ong tafakkurning oliy shakli bo‘lib, u na hayvonot olami, na o‘simliklar hamda boshqa mavjudodlarga berilmagan. Shunday ekan, to hayot davom etadiki, odamzod ilm olishdan to‘xtamaydi.

Asrlar davomida ilmning bir yo‘nalishi, sohasi sanalgan tilshunoslik o‘z qamrovi doirasida ko‘plab tadqiqotlarga ega bo‘lgan. Umuman olganda, til insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy vosita bo‘lib, kishilarning o‘y-xayollari, orzu-istaklari hamda kundalik ehtiyojlarini qondiradigan, bir-biri bilan muloqotga kirishishiga yordam beradigan mo‘jizaviy qurol sanaladi. Har bir millatning, har bir xalqning o‘z ona tili mavjudki, u kishi qalbiga ona allasi bilan singadi. Shu o‘rinda mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz: *“Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”*[5].

O‘zbek tili grammatikasi ikkiga ajratib o‘rgatiladi, bular – morfologiya va sintaksis. Morfologiya so‘zlarni turkumlarga ajratib o‘rgansa, sintaksis gap, uning turlari va murakkab butunliklarni o‘rganadi. Tadqiqotning asosiy obyekti sanalgan gap esa sintaksisning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” nomli kitobida

sintaksisga *"(yun. syntaxis - tuzish). 1. Grammatikaning o'zaro bog'lanishli nutq qurilishini o'rganuvchi bo'lim. Bu bo'lim ikki asosiy qismdan iborat: 1) so'z birikmalari haqida ta'limot qismi (so'z birikmalari sintaksisi); 2) gap haqida ta'limot qismi (gap sintaksisi)*",-deya, gapga esa *"1. Til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi. Gapning grammatik asosini predikativlik – zamon kategoriyasi, modallik kategoriyasi va xabar ohangi tashkil etadi. Gaplar tuzilishi, kommunikativ vazifasi va boshqa belgilariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi; 2. Qo'shma gapning predikativ birlikka teng qismi"* deya ta'rif berilgan[14,B.88]. Haqiqatdan ham gap sintaksisning asosiy predikativ birliklaridan biridir. O'zbek tilining gap qurilishi o'ziga xos bo'lib , ular tarixiy tamoyillarga borib taqaladi. Shu asosida ushbu sohada juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Umuman olganda, sintaksis bo'limining tadqiqi, dastlab, Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, olim uni "Nahv" atamasi bilan qo'llaydi. Uning kitobida shunday jumlalarga duch kelamiz: *"Qo'ling'izdag'i bu kitobcha o'zbekcha «Nahv», to'g'rusi, o'zbek nahvi to'g'rusida mening bir tajribamdir. «O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba» mening ikinchi kitobimdir. Biz til qoidalari ham uning atamalari (istilohlar) to'g'rusida ishlashning ham birinchi paytidamiz. Shuning uchun tilimizning qoidalarini bu maydonga qo'yib, atamalarini sobit bir holg'a keltirib olg'animiz yo'q. Bu to'g'ruda til muallimlarimiz ora birlashkan bir yo'l hanuz yo'qdir. Yoki boshlang'an ishlarning hamasida ham shu holni ko'rmay chora yo'qdir. Tilimizning butun qoidalarini aniqlab, atamalarini maydong'a qo'ymoq uchun yana biroz tirishmagimiz, bir-birimizga ko'mak qilishimiz lozim"*[1, B.175]. Muallif tomonidan o'sha davrdayoq ilgari surilgan fikrlar juda ham ahamiyatli. Negaki, ilmiy terminlarni yaxlit bir holga keltirish, ularni ona tiliga moslashtirsh masalasi ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shu kitobda gap tushunchasiga ham ta'rif berilgan: *"So'zning nima ekani, necha tur bo'lg'ani, qanday qo'shimchalar olib, qanday o'zgarishlarga uchraganini sarfda ko'rdik. Bir fikrni bir kishiga bildirmak uchun so'zlarni yig'ib bir-biriga bog'lab aytamiz. Bu aytkanimiz «gap» bo'ladir*"[1,B.176].

Shundan so'ng, o'zbek tilshunosligida, aynan shu sohada bir talay ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarni amalga oshirishda S.Dolimov, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, A.Nurmonov, N.Turniyozov, M.Asqarova, R.Sayfullayeva, A. Berdialiyev, N.Mahmudov, G.Hoshimov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Yana bir tilshunos S.Abduhalimova ham yuqoridagi masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini quyidagicha ifodalaydi: "*Til o'z kommunikativ vazifasini sintaktik qurma — gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha — fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o'ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so'z va morfologik ko'rsatkichni ko'ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik*

omilga tayaniladi. Gap, aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi”. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so‘zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo‘sindagi so‘zning birikuvi bo‘lgan qo‘shma so‘z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog‘ini yalagan, po‘konidan yel o‘tmagan, ko‘ngli bo‘sh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi”[8]. Chunki ular erkin bog‘lanishga ega emas. Sintaksis atamasi ikki ma’noli shaklga ega: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi. Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz. Gap barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Gap turlarinining o‘rganilishiga, gap tadqiqi bilan bog‘liq muammolar va turli tillarda gaplarning taqqoslash va qiyoslash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuning uchun turli oila va guruhlarga mansub tillardagi gaplarni va ularning turlarini qiyoslash va farqlash bugungi kun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda gaplar tishunoslikning turli yo‘nalishlarida o‘rganilib kelmoqda, jumladan, kontrastiv tilshunoslik, areal tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatik tilshunoslik. Albatta, tilshunoslikning har bir yo‘nalishida gaplar va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Shuning uchun, gaplarning asosiy til birligi sifatida alohida o‘rganish mavzusi diqqatga sazovordir.

Inson nutqning har qanday ko‘rinishini qo‘llaganda leksikonida mavjud bo‘lgan so‘zlardan o‘z darajasiga muvofiq, so‘zlarni bir-biriga qo‘shish orqali jumlalar tuzadi, muloqotga kirishadi, o‘z mulohazalarini bayon etadi. Nutq murakkab tuzilmali jarayon bo‘lib, fonetik, leksik va sintaktik birliklar asosida namoyon bo‘ladi. Harf va tovushlar qo‘shilib, so‘zlarni, so‘zlar esa o‘zaro birikib so‘z birikmalarini, so‘z birikmalari birikib gaplarni, gaplar esa matnlarni hosil qilish har bir tilda mavjud bo‘lgan tabiiy jarayon. Biroq bu holat har bir tilda o‘ziga xos qoidalar, tamoyillar asosida amalga oshadi. Aslida tilshunoslikning asosini sintaksis bo‘limi tashkil qiladi, sintaksisning asosini esa gap. Bir jumlani har kim har xil tuzadi. O‘z fikrini ifodalashda sintaktik birliklardan foydalanish natijasida gaplar hosil qiladi. Masalan, birgina ega va kesimni tashkil qilib ham gap hosil qilish mumkin: *Talaba o‘qidi.; Men keldim.; Biz ketamiz.*

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida gap sintaksisning asosiy birligi sifatida juda ko‘p tadqiqotlar mavzusi sanaladi. Ko‘plab jahon va o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ushbu mavzuga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olimlar gapning, sintaksis bo‘limining turli qirralarda mavjud bo‘lgan yangiliklarni fanga olib kirishgan, natijada tilshunoslikda qadimdan mavjud bo‘lgan ushbu sohaning mazmun ko‘lami oshib, tadqiq ko‘lami kengaygan. Ana shunday manbalar asosida olingan bilim va

ko‘nikmalar asosida biz izlanuvchilar kichik tadqiqotlarimizni olib bormoqdamiz. Ushbu yonalishda yangidan-yangi nazariyalar yaratish bugungi kun tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan ekanligini ham alohida qayd etamiz.

Biz ushbu o‘rinda gaplarni tasniflashga alohida e’tibor qaratmoqchimiz.Bu jarayonda gaplarni turli tillar tilshunosligi qoidalari va gaplarni tasniflash masalasi va turlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Tillarni o‘rganish jarayoni boshlanganligiga ko‘p asrlar bo‘ldi, bu borada dunyoda mavjud bo‘lgan tillar bir-birlaridan so‘z olib, so‘z berib asta-sekinlik bilan shakllanganini, til ta’limi nazariyalari ishlab chiqilganligini alohida ta’kidlash joiz. Tadqiqot ishimiz doirasida chet el tilshunoslari tomonidan bajarilgan ishlarni kuzatish barobarida bir qancha o‘ziga xos xulosalarga keldik.

Tilshunos G‘. Abdurahmonov o‘z kitobida: *“Fikr turlicha ifodalanadi: sodda yoki qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplar (period), darak, so‘roq, buyruq, undov gaplar vositasi bilan, ikki yoki bir sostavli gaplar yordamida, to‘liq yoxud to‘liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Amma gap qanday shaklda bo‘lmasin, unda kishilarning ma’lum maqsadi ifodalanadi. Bundan, hatto undov yoki so‘roq gaplar ham mustasno emas*”[2,B.248], degan fikrlarni keltiradi.

Bilamizki, o‘zbek tilshunosligida gaplar quyidagicha tasniflanadi:

Tuzilishiga ko‘ra: soda va qo‘shma gaplar;

Ifoda maqsadiga ko‘ra: darak, so‘roq, buyruq, istak gaplar;

His-hayajonning ishtirokiga ko‘ra: his-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar.

Yuqorida keltirilgan har bir turning ichki predikatlari mavjud bo‘lib, alohida-alohida xususiyatlarni mujassamlagan.

Shu o‘rinda konstruksiya tushunchasiga to‘xtalmaslikning imkoni yo‘q. Konstruksiya o‘zaro bog‘langan so‘z yoki so‘zlar guruhlari o‘rtasidagi birikuvdir. Masalan, Biz yangi ko‘rgazmaga bordik - gapining o‘zi bir konstruksiya. Biz bordik - alohida konstruksiya, ko‘rgazmaga bordik - yana bir konstruksiya hisoblanadi. Lekin bu konstruksiyalarda so‘zlarning bog‘lanishi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu bog‘lanish valentlik tushunchasi bilan bog‘lanadi. Valentlik tildagi bir elementning boshqa element bilan bir til bosqichida birika olishini izohlaydi. So‘zlarning o‘zaro birikishi ularning semantik jihatiga ham bog‘liqdir. Masalan, *Talabalar xorijiy tillarni chuqur o‘rg‘anmoqdalar* gapida *talabalar o‘rganmoqdalar* birikmasi otning ko‘plik shakli va fe’lning hozirgi zamon ko‘plik shakli bilan ifodalangan, *xorijiy tillarni* birikmasi tushum kelishigidagi ot va sifatning bog‘lanishi boshqa turdagi aniqlanuvchi + aniqlanmish valentligiga ega, chuqur o‘rganmoqdalar birikmasi holat ravishi va fe'lning bog‘lanishi bilan ifodalangan. Nihoyat, bu gapdagi so‘zlarning bog‘lanishi udi turli vaientlik bilan ifodalangan. Bu bog‘lanishlarni boshqa bir tushuncha bevosita bo‘laklarga bo‘lish metodi bilan tahlil qilamiz. Undagi *talabalar* chuqur o‘rganmoqdalar va xorijiy tillarni ikkita bevosita bo‘laklarni tashkil etadi. O‘z navbatida boshqa bevosita bo‘laklar *Talabalar o‘rganmoqdalar, chuqur* va *xorijiy tillarni* bo‘lishi mumkin. Ulardan

birinchisini N+V (ot + fe'l), ikkinchisini Adj + N (sifat + ot) ravish (Adv) shaklida ko‘rsatish mumkin. Odatda gapning tarkibida taksonomik va funksional birliklar farqlanadi. Taksonomik birliklar gapning tarkibida ishtirok etgan barcha so‘zlardan iborat. Funksional birliklar shunday taksonomik birliklar yoki ularning birikmasiga to‘g‘ri keladiki, ular gapda aniq sintaktik funksiya bajara oladi. Masalan, *maktabga bordi* gapida (u, maktabga, bordi) taksonomik birliklar bo‘lsa, (u, maktab + ga, bor + di) funksional birliklardir.

Sintaktik funksiya gap yoki so‘z birikmasining tarkibiga kirgan birlikning bajarayotgan vazifasini izohlaydi. Masalan, *Turnalar baland uchmoqda* gapida Turnalar — ega, *uchmoqda* — kesim, *baland* — hoi vazifasini bajaradi va gapning a’zolari hisoblanadi. Gapning a’zolari funksional birliklar bo‘lib, ularni grammatik tahlil qilish turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Gapdagi yoki konstruksiyadagi so‘zlarning o‘zaro aloqasini muvofiqlashtirib (koordinatsiya) turish sodda yoki ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Eng sodda konstruksiya N + V, yani Ahmad keldi (ot + fe’l) shaklida bo‘lsa, boshqa turli konstraksiyalar ancha murakkab shakldadir. Bir konstruksiyani boshqasiga aylantirish *transformatsiya* deyiladi. Masalan, Komil avtdi. bola uxladi konstruksiyasi N + V bo‘lsa, uning boshqa ko‘rinishi, ya'ni transformatsiyasi V - N (Komilning aytgani, bolaning uyqusi) shaklida bo‘ladi.

Barcha tillarda sodda konstraksiyalar bo‘lib, ular gapning shakliga to‘g‘ri kelishi mumkin. Ana shunday oddiy konstruksiyalarni transformatsiya qilish natijasida juda murakkab struktural shakldagi gaplarni hosil qilish mumkin. O‘zbek, rus va ingliz tillarida eng sodda gaplarning shakli quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Jahon tillarida N + V konstruksiyasi alohida ahamiyatga ega. Unda ot - ega, bajaruvchi shaxsni, fe’l - kesim, ish-harakatni ifodalaydi va u predikativ ***konstruksiya*** deb ataladi. Boshqa konstruksiyalarda ham ega va kesim shu tartibda aniqlanadi, lekin uning tarkibidagi boshka bevosita tashkil etuvchilar o‘z vazifasiga ko‘ra tasnif etiladi. Jahondagi ba’zi tillarda predikativ konstraksiyani hosil qilish fe’lning turiga bog‘liq.

Ko‘plab dunyo tillarida ham ana shunday tasniflashlar mavjud. N.A.Baskakovning nazariyasiga ko‘ra bu borada turlicha qarashlar paydo bo‘lgan: *“Logik oqimga mansub bo‘lgan tilshunoslar hukm bilan gapni, logik kategoriyalar bilan grammatik kategoriyalarni aralashtirib yuborganlar. Ularning fikricha, gapda ham hukmdagidek uch element: subyekt, predikat va bog‘lanish bo‘lishi shart. Keyinchalik bu fikrga psixologizm oqimining vakillari keskin qarshi chiqdilar. Ularning ta’kidlashicha, til faqat fikrni emas, balki insonning psixik faoliyatini, hissiyotini, irodasini ifodalaydigan hodisadir, shuning uchun ham gap psixik hukmni ifodalovchi hodisa sifatida o‘rganilishi lozim”*[10,B.88]. Shu asosda olim gaplarni tarkibiga qarab ikki turga ya’ni bir sotavli va ikki sostavli gaplarga, tuzilishiga qarab esa sodda va qo‘shma gaplarga ajratadi. Shuningdek, sodda gaplarni ikkinchi darajali bo‘laklarining ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligiga ko‘ra: sodda yoyiq va sodda yig‘iq

gaplarga, mazmun intonatsiyasiga ko‘ra: darak, so‘roq, buyruq va undov gaplarga ajratadi.

Bundan tashqari, chex olimi V.Matezius tomonidan “Gapni aktual bo‘laklarga bo‘lish” nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy mazmuni har bir gapda sintaktik struktura bilan bir qatorda kommunikativ struktura ham mavjud. Gapni sintaktik bo‘laklarga ajratish gapning formal qurilishini, kommunikativ bo‘laklarga ajratish esa, gapning mazmunini tadqiq etadi[4].

Ma’lumki, rus tilshunosligi qadimdan rivojlangan tillar sirasiga kiradi, o‘zbek tili grammatikasi va rus tili grammatikasi orasida o‘xshashliklar mavjud.

Rus tilida ham bugungi kunda gap quyidagicha tasniflanadi:

1-jadval.

Типы предложений по цели высказывания Ifodaning maqsadiga ko‘ra gap turlari	Повествовательный предложения (darak gap)	*Мама мыла раму. (Onam ramkani yuvdi.)*
	Вопросительный предложения (so‘roq gap)	*Ты сегодня ходила на дополнительные занятия? (Bugun sen qo‘shimcha darslarga bordingmi?)*
	Побудительный предложения (Buyruq gap)	*Сходи в магазин, купи хлеба. (Do‘konga bor, non sotib ol.)*
Типы предложений по интонации Intonatsiyaning ishtirokiga ko‘ra gap turlari	Восклицательные предложения (undov gaplar)	*На улице так славно и хорошо! (Ko‘cha juda chiroyli va yaxshi!)*
	Невосклицательные предложения (His-hayajonsiz gaplar)	*Малика принесла в школу конфеты. (Malika maktabga konfetlar olib keldi.)*
Типы предложений по структуре Tuzilishiga ko‘ra gap turlari	**Простые предложения (Sodda gap)**	*На столе лежали только тетради. (Stolda faqat daftarlar bor edi.)*
	Сложные предложения (qo‘shma gap)	*Самарканд - очень красивый город, и я всегда мечтала там жить. (Samarqand juda go‘zal shahar va men u yerda har doim yashashni orzu qilganman).*

Jadvalda keltirilganidan ma’lum bo‘ladiki, rus grammatikasida gaplarning aktual bo‘laklarga bo‘linishi o‘zbek tili qoidalari bilan o‘xshashib ketadi[3].

Shu o‘rinda tilshunos O.Bazarovning “O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi” deb nomlangan tadqiqot ishida gapni bir necha turlarga ajratib tasniflaydi: ma’lum – yangi munosabatli jumlalar, yangi yangi

munosabatli jumlalar, ma'lum – ma'lum monosabatli jumlalar, yangi – ma'lum munosabatli jumalalar, yangi+ma'lum – yangi monosabatli jumlalar, yaxlitligicha "yangi" ni aks ettiruvchi jumlalar, yaxlitligicha "ma'lum" ni aks ettiruvchi jumlalar. Bundan tashqari ushbu tadqiqotda: "Sintaktik tuzilishda gapning hajmi muhim ahamiyatga ega. Gap hajmi qanchalik katta bo'lsa, unda shuncha ko'p bo'linish (bo'laklarga ajralish) mavjud bo'ladi. Aktual bo'linish esa har qanday hajmli gapda ikki qismdan – tema va remadan iboratdir", degan fikrlarni ham keltirib o'tadi[9,B.6].

Xullas, gaplar har bir tilning xususiyatlari, ichki imkoniyatlari, tarkibiy qismlariga qarab olimlar tomonidan turlicha tasnif etiladi. Yuqorida o'zbek va rus tillarida gaplarning turlarini alohida keltirgan holatda ifodalashga harakat qildik. Albatta, bu borada kamchiliklar, mavhumliklar kuzatilishi mumkin. Ushbu kamchiliklarni kelgusi izlanishlarimizda bartaraf etishga, tadqiq ko'lamini kengaytirishga harakat qilamiz.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Масъул муҳаррир Б. Қосимов; Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. - Т.: «Маънавият», 2009. - Б.175-бет. (Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar/ Mas'ul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: "Ma'naviyat", 2009. –B.175-bet.)

2. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 248. (Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B.248.)

3. https://obrazovaka.ru/russkiy-yazyk/tipy-predlozheniy.html

4. https://skyeng.ru/articles/kakie-byvayut-tipy-predlozhenij-v-anglijskom-yazyke/

5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019.

6. Абдураҳмонов Ғ. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. - 1980. № 4; (Abdurahmonov G'. Qo'shma gaplar klassifikatsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. -1980.№ 4;)

7. Абдухалимова С. У. Ўзбек тилшунослигида синтаксис ва қўшма гаплар назарияси / С. У. Абдухалимова. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2020. - № 20 (310). - С. 674-676. URL: (Abduxalimova S.U. O'zbek tilshunosligida sintaksis va qo'shma gaplar nazariyasi / S.U. Abduxalimova. – Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. – 2020. -№ 20 (310). – C. 674-676.URL:)

8. https://moluch.ru/archive/310/69941/

9. Базаров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Фарғона, 2004. – Б. 6. (Bazarov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (actual) tuzilishi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg'ona, 2004. – B.6.)

10. Баскаков Н.А, Содиков А.С, Абдуазизов. А.А. Умумий тилшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 1979. -Б.88. (Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. – T.: O'qituvchi, 1979. – B.88.)

11. Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент "Академнашр", 2012. – Б.288.; (Nurmanov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Akademnashr", II jild, 2012. – B.288.;)

12. Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент: "Академнашр", II жилд, 2012. – Б.422.; (Nurmanov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Akademnashr", II jild, 2012. – B.422.;)

13. Сайфуллайева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) талқини. – Тошкент. "Фан", 2007.– Б.19.

(Sayfullayeva

14. Ҳожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.29, 88.(Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002. – B.29, 88.)

15. Ҳошимов Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков.– Т. «Фан», 1991. - С.105; (Hoshimov G.M. Tipologiya slojnix predlojeniy raznosistemnix yazikov. – T. "Fan", 1991. – S. 105;)

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

T A R J I M A SH U N O S L I K

BUZRUKOVA MAXINA,
Dotsent, PhD,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU,
Samarkand, Uzbekistan
buzrukovam@rambler.ru

TURISTIK ONOMASTIKA TARJIMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

ANNOTATSIYA:

Maqolada turistik onomastika tarjimasi bilan bog‘liq muammolar batafsil tahlil qilingan. Mualliflar turistik diskursda atoqli otlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni madaniy farqlar, fonetik va grammatik xususiyatlar, ekvivalentlarning yo‘qligi va tarjimonning subyektiv qarorlari bilan bog‘laydilar. Tadqiqot davomida atoqli otlarni tarjima qilishning turli usullari va yondashuvlari, shuningdek, turistik matnlarni tarjima qilishda taklif etilgan yechimlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarjimonlar atoqli otlarni tarjima qilishda madaniyatlararo aloqalarning muhimligini hisobga olishlari va usullarni birlashtirib, turli vaziyatlarga moslashtirilgan yechimlarni topishlari kerak.

Kalit so‘zlar: turistik onomastika, atoqli otlar, tarjima, toponimlar, turistik diskurs, madaniyatlararo aloqa, tarjima usullari.

BUZRUKOVA MAKHINA
Associate professor, PhD,
SamSU after Sharof Rashidov,
Samarkand, Uzbekistan
buzrukovam@rambler.ru

ISSUES RELATED TO THE TRANSLATION OF TOURIST ONOMASTICS

ABSTRACT:

The article provides a detailed analysis of the issues related to the translation of tourist onomastics. The authors associate the difficulties arising in

translating proper names in tourist discourse with cultural differences, phonetic and grammatical features, the lack of equivalents, and the translator's subjective decisions. The study examines various methods and approaches to translating proper names and offers solutions for translating tourist texts.

The research results suggest that translators should consider the importance of intercultural communication when translating proper names and find adapted solutions by combining different methods.

Keywords: tourist onomastics, proper names, translation, toponyms, tourist discourse, intercultural communication, translation methods.

БУЗРУКОВА МАХИНА,
Доцент, PhD,
СамГУ имени Шарофа Рашидова,
Самарканд, Узбекистан
buzrukovam@rambler.ru

ПРОБЛЕМЫ СВЯЗАННЫЕ С ПЕРЕВОДОМ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОНОМАСТИКИ

АННОТАЦИЯ:

В статье подробно проанализированы проблемы, связанные с переводом туристической ономастики. Авторы связывают трудности, возникающие при переводе имен собственных в туристическом дискурсе, с культурными различиями, фонетическими и грамматическими особенностями, отсутствием эквивалентов и субъективными решениями переводчика. В ходе исследования рассмотрены различные методы и подходы к переводу имен собственных, а также предложены решения при переводе туристических текстов.

По результатам исследования, переводчики должны учитывать важность межкультурных связей при переводе имен собственных и находить адаптированные решения, комбинируя различные методы.

Ключевые слова: туристическая ономастика, имена собственные, перевод, топонимы, туристический дискурс, межкультурная коммуникация, методы перевода.

1. Kirish

Turistik destinatsiya matnlari o‘z tabiatiga ko‘ra lokativ xarakterga ega bo‘lib, turli xil madaniy-mahsus nomlarni o‘z ichiga oladi. Bu nomlar turli faktlar, joylar, tadbirlar, shaxslar va boshqalarni aks ettiradi. Turistik diskursdagi atoqli otlar antroponimlar (insonlarning nomlanishi), toponimlar (geografik joylarning nomlanishi), mikrotoponimlar (shahar infratuzilmasi ob’ektlarining nomlanishi), zoonimlar (hayvonlarning nomlanishi), hrematonimlar (korxonalarning nomlanishi), ekonimlar (mahsulotlarning nomlanishi), teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar,

diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, kosmonimlar fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, yulduzlar va boshqa kosmik obyektlarning ilmiy doiralarda va ommaviy foydalanishda qo‘llaniladigan nomlarini anglatadi, astroponimlar esa ayrim osmon jismlari, masalan, sayyoralar va yulduzlarning nomlanishi kabi keng qamrovli onomastik paradigmada namoyon bo‘ladi.

Onomastikaning boshqa bo‘limlari ham mavjud. Masalan, realionimlar ilgari va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlarini bildiradi. Mifonimlar esa xayoliy yoki fantastik obyektlarning nomlari hisoblanadi.

Antroponimlar va toponimlar turistik diskursning barcha sohalarida yozma va og‘zaki muloqotni ta’minlaydi. O‘zga madaniyatni o‘rganishda toponimlarning o‘rni beqiyosdir. Toponimlar – geografik joylarning nomlari – biror hududning tabiati, tarixi, madaniyati va xalqi haqida qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Har bir toponim o‘ziga xos ma'noga ega bo‘lib, u orqali hududning o‘tmishdagi va hozirgi holati haqida ko‘plab bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

Toponimlar biror joyning tabiiy sharoitlari va geologik xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, tog‘lar, daryolar, ko‘llar va boshqa tabiiy obyektlarning nomlari hududning tabiiy resurslari, iqlimi va landshafti haqida ma'lumot beradi. Shu tariqa, sayohatchilar va tadqiqotchilar o‘zga madaniyatni o‘rganishda tabiiy muhitni yaxshi tushunib olishlari mumkin.

Toponimlar, shuningdek, hududning tarixiy rivojlanishini va madaniy merosini aks ettiradi. Ko‘plab joy nomlari tarixiy voqealar, mashhur shaxslar yoki madaniy hodisalar bilan bog‘liq. Bu nomlar orqali hududning o‘tmishdagi siyosiy holati, etnik jarayonlari va madaniy yutuqlari haqida ma'lumot olish mumkin. Bu esa tarixiy voqealar va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Toponimlar, bundan tashqari, mahalliy aholi tomonidan ishlatiladigan til va madaniy qiyofani aks ettiradi. Har bir joy nomi mahalliy til va diyalektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O‘zga madaniyatni o‘rganishda toponimlar mahalliy urf-odatlar, an'analar va xalqning hayoti haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Toponimlarni o‘rganish orqali sayohatchilar va tadqiqotchilar hududning madaniy merosi va xalqning o‘ziga xosligi haqida boy bilimlarga ega bo‘lishadi. Bu esa madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga va turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunishni kuchaytirishga yordam beradi.

Toponimlar, o‘tmishning tashuvchilari sifatida, nafaqat odamlarning ushbu voqealar sodir bo‘lganidan uzoq vaqt o‘tgach, joylarga bog‘lanish hissini rivojlantirishga yordam beradi [1, 95-116], balki kollektiv va jamoaviy identifikatsiyalarni ham shakllantiradi, deb ta’kidlaydi toponimist Laura Kostanski:

“[…] events and actions are remembered by place-names, in a way similar to buildings and inscriptions on walls. In this way, in their memorialization of

actions and events, communities utilize toponyms as mnemonic devices for their collective identity" [2, 421].

Hududiy toponimika tizimi turistik destinatsiya matnlarida amalga oshirilganda, uning o'ziga xos geografik, madaniy va tarixiy xususiyatlarini qayta tiklaydi, milliy-madaniy fenomenlarning namunalarini yaratadi va turistlarning madaniy bilimlarini kengaytiradi. Atoqli otlar shuningdek, hududiy brendingning marketing vositasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa integratsiya jarayonlari va madaniy almashinuvlar nuqtai nazaridan dolzarb bo'lgan madaniyatlararo aloqani namoyon qiladi.

Shunday qilib, madaniyatlararo turistik diskursda onomastik terminologiyani tarjima qilish uning yuqori madaniy ahamiyati tufayli alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, onomastika hali ham tarjimashunoslik paradigmasida muhim va kam o'rganilgan masala bo'lib qolmoqda. Faqat bir nechta ilmiy ishlar atoqli otlarni tarjima qilish muammosiga bag'ishlangan.

Kilichev B. fikriga ko'ra atoqli otlar o'z tabiatiga ko'ra tilning g'oyatda turg'un, kam o'zgaruvchan, o'zga tillarga tarjimasiz beriladigan materialidir [3, 21].

"Ismlarni to'g'ri tarjima qilish juda murakkab va munozarali masala hisoblanadi, chunki har bir til ularni har xil yo'llar bilan ko'rib chiqadi va ularni tarjima qilish uchun yagona qoidalar mavjud emas. Misol uchun, hozirgi kunda ispan tilida biz faqat qirollar va qirolichalar (Elizabeth II - ingliz tilida = Isabel II - ispan tilida) va papalarning ismlarini tarjima qilamiz, lekin ilgari barcha atoqli otlarni (Karl Marx, William Shakespeare va boshqalar) tarjima qilardik, xoh san'atkorlarning ismlari yoki qirollar bo'lsin. Odatdagi taomlar, festivallar, joylar va boshqalar haqida gap ketganda, tarjimon matnning vazifasi, uning auditoriyasi va vositasi bilan mos keladigan mos echimni topishi kerak, bu original matndagi xabarni saqlab qolish va uni maqsadli auditoriyaga to'g'ri yetkazish uchun zarur. Bu juda muhim masala hisoblanadi, chunki maqsadli auditoriya matnni tushunishi kerak, bu matnning maqsadi nima bo'lishidan qat'i nazar (amalga oshirish, borish, sotib olish yoki boshqa har qanday harakatni bajarish uchun).

Agar auditoriya matnni tushunmasa, uning vazifasi buziladi va shuning uchun uning maqsadi bajarilmaydi va aloqa muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Joy nomlari ham atoqli otlar hisoblanadi, ammo ularning tarjimasi turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki ularni tarjima qilish uchun hech qanday qoida yo'q. Biz boshqa tillarda hozirgi kunda ishlatiladigan ba'zi ekvivalentlarni topishimiz mumkin (New York - ingliz tilida = Nueva York - ispan tilida; Sevilla - ispan tilida = Seville - ingliz tilida), lekin biz hozirda ishlatilmayotgan ekvivalentlarni ham topishimiz mumkin (Neu-York - nemis tilida). Shu ma'noda, barcha joy nomlari moslashtirilishi mumkin emas va moslashtirilganlarini ham har doim oson tanib olish qiyin" [4, 321-325].

3. Tadqiqot metodologiyasi

Mavjud muammolar tillar o‘rtasidagi mosliklarni topishni obyektiv ravishda qiyinlashtiradigan omillar bilan bog'liq. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- madaniy farqlar: atoqli otlar ko'pincha manba tilining madaniy kontekstida chuqur ildiz otgan bo'ladi, bu esa ularni boshqa tilga tarjima qilishni qiyinlashtiradi. Masalan, tarixiy yoki mifologik personajlar turli madaniyatlarda turli ma'noga ega bo'lishi mumkin.
- fonetik farqlar: tillarning fonetik tizimlaridagi farqlar atoqli otlar tovushlarini yetkazishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, maqsad tilida mavjud bo'lmagan tovushlar aniq transliteratsiya yoki transkripsiyani qiyinlashtirishi mumkin.
- grammatik xususiyatlar: manba va maqsad tillarining grammatik tuzilishlaridagi farqlar atoqli otlarning shakli va qo'llanilishiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o‘zbek va rus tilidagi ismlarning kelishiklari ingliz yoki xitoy tillarida analoglarga ega bo'lmasligi mumkin.
- ekvivalentlarning yo'qligi: ba'zi hollarda maqsad tilida manba tilidagi to'g'ri ismning ekvivalenti bo'lmasligi mumkin, bu tarjimondan boshqacha yechimlarni, masalan, ta'rif yoki izohlarni qidirishni talab qiladi.

Subyektiv muammolar tarjimonning shaxsiy qarorlari va imtiyozlari bilan bog'liq. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tarjimonning imtiyozlari: tarjimonning shaxsiy imtiyozlari va tajribasi muayyan tarjima strategiyalarini tanlashga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, bir tarjimon transliteratsiyani afzal ko'rishi, boshqasi esa moslashtirishni tanlashi mumkin.
- kontekstual fikrlar: tarjimonning qarorlari atoqli ot ishlatiladigan konkret kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ism ilmiy matnda va badiiy adabiyotda turlicha yondashuvni talab qilishi mumkin.
- maqsadli auditoriya: maqsadli auditoriyaning tushunishi va imtiyozlari ham tarjima qarorlariga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, tarjimon keng auditoriya uchun tanish shakllarni tanlashi yoki maxsus auditoriya uchun asl shakllarni saqlashi mumkin.

4. Tahlil va natijalar

Rasmiy institutsional aloqa janrlaridagi matnlarni tarjima qilishda to‘g‘rilik va huquqiy savodxonlik atoqli otlarni yetkazib berishda muhim ahamiyatga ega. Bunga misol sifatida rasmiy hujjatlar (turistlarning shaxsiy hujjatlari, kompaniyalar/muassasalar blankalari va h.k.) keltirilishi mumkin, ularda atoqli otlarni (avvalo antroponimlarni) tarjima qilish qabul qilingan transliteratsiya qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Shuningdek, tarjimada pasportdagi transliteratsiya qoidalariga rioya qilinishi kerak. Buning natijasida tarjimada tarjimonning izohi sifatida keltiriladi va hujjatdagi ismlarning to‘g‘ri va huquqiy jihatdan aniq ko‘rsatilishini ta'minlaydi. Bu amaliyot, xususan, MDH tarkibidagi davlatlardan tashrif buyuruvchi yoki aksincha O‘zbekistondan boradigan sayohatchilarning chet el pasportlari uchun juda muhimdir, chunki ular ko‘pincha rasmiy hujjatlarda ismlarning to‘g‘ri

transliteratsiyasini talab qiladi. Masalan, Doniyorov Fozilxon Jamolxonovich – rus tilida tarjimasi: Дониёров Фозилхон Джамолхонович, Iqtibos*: Имя и фамилия по паспорту: AA 5342397.

Biznes va ishbilarmonlik aloqa janrlaridagi matnlarda (tur-operatorlar bilan ishbilarmonlik yozishmalari, maxsus matnlar, taqdimotlar, yo‘riqnomalar va h.k.) toponimlar va antroponimlarning asl ko'rinishini saqlab qolish, shuningdek, amaliy transkripsiya va to'g'ridan-to'g'ri tarjimani qo‘llash nazarda tutiladi.

We can organize half day tour to visit Szentendre that is also called as the southern gate of the Danube Bend. Explore the meditteranian atmosphere in this charming town with professional guide and marvel at the number of galleries, perfomers, and musicians on the street. After a walk around the Artists Village we invite you for a free tour to the Szamos Marcipan Muzeum. During your free time before the boat / bus leaves Szentendre you have the possibility to visit some museums (e.g. Margit Kovacs Ceramic Museum exl. the tour). At the end of the tour, we return to Budapest by our Bus. The tour ends at the City Centre [www.eurama.hu].

Tarjimasi*: Biz Sentendrega yarim kunlik sayohatni tashkil qilishimiz mumkin, bu shahar Dunay burmasi janubiy darvozasi deb ham ataladi. Professional gid bilan bu jozibali shaharda O‘rta yer dengizi muhitini kashf eting va ko‘chalarda ko‘plab galereyalar, ijrochilar va musiqachilardan zavqlaning. San’atkorlar qishlog‘ini aylanib chiqqaningizdan so‘ng, sizni Samos Martsipan Muzeyiga bepul sayohatga taklif qilamiz. Sentendredan qayiq / avtobus jo‘nashidan oldin, bo‘sh vaqtingizda ba’zi muzeylarni (masalan, Margit Kovach Kulolchilik Muzeyi, sayohat dasturiga kiritilmagan) ziyorat qilish imkoniyatiga egasiz. Sayohat oxirida, avtobusimiz bilan Budapeshtga qaytamiz. Sayohat shahar markazida yakunlanadi* [tarjima bizniki, M.Buzrukova].

Замок Локет + Фольклорный ужин с шоу в семейной пивоварне "Св. Флориан". История Локет - это смесь легенд, истории и реальных фактов. Замок-музей вот уже более 800 лет хранит прямые доказательства свершившихся исторических событий [www.czech-travel.cz].

Tarjimasi: Loket Qal’asi + "Muqaddas Florian" oilaviy pivo zavodida folklor kechasi bilan kechki ovqat. Loket tarixi – bu afsonalar, tarix va haqiqiy faktlarning aralashmasi. 800 yildan ortiq tarixga ega qal’a muzeyi o‘tmishda kechgan tarixiy voqealarning bevosita dalillarini saqlab kelmoqda [tarjima bizniki, M.Buzrukova].

Turistik manzilga oid madaniy-ma'rifiy xarakterdagi matnlar (sayohat qo‘llanmalari, bukletlar, kataloglar, shahar rejasi, xaritalar va boshqalar) turistlarni joylarda yo‘naltirish uchun xizmat qiladi va onomastik ma'lumotlarni "qulay" qabul qilishni ta'minlaydi. Bunday hollarda tarjimon, avvalo, toponimlarning asl nomini (yozilishi (transliteratsiya) yoki talaffuzi (transkripsiya)) va uning tarjima variantini yoki izohli tarjimasini berish tavsiya etiladi.

Buxoro 2020 yilda "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Buxorodagi 7 ta – Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Bakr, Bahouddin Naqshband majmualari, Maqoki Attor masjidi, Poi-Kalon ansambli, Qadimgi Poikent shahri qoldiqlari va Toshsaroy madrasalari ISESCOning Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritildi [https://daryo.uz/2021/07/17/buxorodagi-7-ta-tarixiy-obida-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi].

Tarjimasi: Due to Bukhara being declared the "Capital of Islamic Culture" in 2020, seven sites in Bukhara – the Ismail Samani Mausoleum, Chor Bakr, Bahauddin Naqshband Complexes, Magoki Attori Mosque, Poi-Kalon Ensemble, the Ancient City of Poikent ruins, and the Tosh Saroy Madrasas – have been included in the ISESCO Islamic World Heritage List (Stone Palace schools, in the Middle Ages, schools in Central Asia were called madrasas) [tarjima bizniki, M.Buzrukova].

An'anaviy tarjima nazariyasida atoqli otlarni tarjima qilishda odatda quyidagi usullar taklif qilinadi:

1. Transliteratsiya usuli: atoqli otni maqsadli til alifbosidan foydalanib, original yozuvga iloji boricha yaqinlashtirishni nazarda tutadi. Bu fonetik reproduktsiya muhim bo'lmagan hollarda qo'llaniladi, lekin original yozuvni saqlab qolish muhimdir.

2. Transkripsiya usuli: atoqli otni maqsadli tilda tovushlar mosligidan foydalanib, ya'ni qanday talaffuz qilinishi bilan beriladi. Bu yondashuv ismning fonetik tovushini saqlashga yordam beradi, bu ayniqsa audio va videomateriallar uchun muhim bo'lishi mumkin.

3. Transpozitsiya usuli: atoqli otlarning tarkibiy qismlarini maqsadli tilga tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Bu ism original tilida ma'noga ega bo'lgan va tarjima auditoriyasiga tushunarli bo'lishi kerak bo'lgan elementlarni o'z ichiga olgan hollarda foydali bo'lishi mumkin.

4. Kalkirlashtirish usuli: atoqli otning elementlarini maqsadli tilga so'zma-so'z tarjima qilish usulidir. Masalan, agar atoqli ot ma'noga ega so'zlardan iborat bo'lsa (masalan, "Greenfield" "Yashil dalaga" tarjima qilinishi mumkin).

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pincha bu usullar yetarli emas va tarjimonlar ularni birlashtirish yoki muqobil yechimlarni izlashlari kerak. Asosiy qiyinchilik mos keladigan usulni tanlashda, turli tovush-harf mosligi tizimlarini hisobga olish, tarjima matnida birxillikni saqlash va maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini hisobga olish muhim.

D.I. Yermolovich o'zining "Tarjima onomastikasining asoslari" nomli dissertatsiya tadqiqotida tarjimonlarga atoqli otlarni tarjima qilish strategiyasini tanlashda yordam beradigan bir qator tavsiyalarni taklif etadi:

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, quyidagi vazifalarni ajratish mumkin (garchi ularning ketma-ketligi biroz boshqacha bo'lishi mumkin).

1. Ko'rib chiqilayotgan leksik birlik haqiqatan ham atoqli ot ekanligiga ishonch hosil qilish. Ba'zi kontekstlarda atoqli ot o'rniga umumiy so'zni qabul qilish mumkin va aksincha. Shunday qilib, ko'plab tillarga ingliz tilida the Lord

of Sabaoth iborasi bilan tarjima qilingan Injil ifodasini tarjima qilishda qadimgi ibroniycha sebaoth (saba / "armiya") so‘zining ko‘plik shakli atoqli ot deb qabul qilingan. Shu sababli rus tilida xuddi shunday noto‘g‘ri atoqli ot - Savaof paydo bo‘lgan, bu Xudo / yaratuvchining ismi sifatida qabul qilina boshlangan.

2 Atoqli ot qaysi predmetlar toifasiga (denotatga) tegishli ekanligini aniqlash. Atoqli otning toifaviy tegishliligi (uning mazmuniy tarkibiy qismi) har doim ham kontekstdan kelib chiqmaydi. Uni aniqlash uchun qo‘shimcha tahlil talab qilinishi mumkin.

3. Atoqli otning milliy-tilga tegishli ekanligi va ushbu toifadagi boshqa xususiyatlarini aniqlash. Masalan, inglizcha matnda Hugo atoqli ot ingliz, fransuz yoki ispan bo‘lishi mumkin, bu uning tarjimasiga bog‘liq (Hugo, Yugo yoki Ugo).

4. Ism yagona yoki ko‘pchilikka tegishli ekanligini aniqlash. Hugo atoqli oti XIX asr fransuz yozuvchisining familiyasi bo‘lishi mumkin, bu muvofiqlik shakli va matnning talqini uchun muhimdir.

5. Atoqli otning an'anaviy muvofiqligi bor-yo‘qligini tekshirish. Yozuvchining familiyasini tarjima qilish uchun ushbu ismdan foydalanish kerak / Hugo.

An'anaviy nomlarda tafovutlar bo‘lishi mumkin, shuning uchun tarjimon vaziyatni tahlil qilish asosida quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli: a) an'anaga rioya qilish va bir nechta an'anaviy muvofiqlik mavjud bo‘lsa - ulardan birini tanlash; b) an'anani buzish va biror sababga ko‘ra yangi variant berish. Agar an'anaviy muvofiqlik mavjud bo‘lmasa, tarjimaning tamoyillari ustunroq ahamiyat kasb etadi.

6. An'anaviy muvofiqlik yo‘qligi va atoqli ot shaklining ustuvorligi haqida xulosa chiqarishda - atoqli otning asl shaklda (lotin yozuvida) tarjima tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilishi uchun asos bormi yoki yo‘qligini aniqlash. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish usuli ma'lumotnoma va ilmiy matnlarga nisbatan bir qator atoqli ot kategoriyalari uchun qo‘llaniladi. Atoqli otning asl yozuv shaklini matnga kiritish amaliyoti hali to‘liq shakllanmagan va bu usul bilan transkripsiya yoki transliteratsiya usullari o‘rtasida farqlar mavjud.

7. To‘g‘ridan-to‘g‘ri grafik ko‘chirishning o‘rinsizligi haqida xulosa chiqarishda - rasmiy o‘xshashlikni o‘tkazish usulini tanlash (transkripsiya yoki transliteratsiya tizimlaridan birini). Rasmiy yo‘naltirilgan muvofiqlikni yaratishda har bir til juftligi uchun ishlab chiqilgan yagona qoidalar asosida o‘tkazish tizimini tanlash kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiya qilish uchun kuchli asoslar bo‘lishi kerak (masalan, alohida kommunikatsiya shartlari yoki bu usulning assotsiativ aloqalarni uzatish uchun afzalligi).

8. Kuzatilgan muvofiqlikning talaffuz qulayligi va jarangdorligi mezonlariga muvofiqligini tekshirish. Agar tanlangan muvofiqlik jarangsiz bo‘lsa (yoki, masalan, noma'lum leksikaga mos keladigan bo‘lsa), jarangsizlikni bartaraf etish uchun muvofiqlikni o‘zgartirish asoslarini aniqlash kerak.

9. Tanlangan muvofiqlikning qabul qiluvchi tilning sintagmatik va paradigmatik munosabatlariga kirishini tekshirish. Muvofiqlik zarur grammatik

toifalarga kiritilishi va uzluksiz tizimga ega bo‘lishi kerak. Uning sintaktik roli ambivalent bo‘lmasligi kerak. Aks holda, muvofiqlik morfogrammatik modifikatsiya, transpozitsiya, semantik ekspilaktsiya, onomastik almashtirish va boshqa usullar yordamida o‘zgartirilishi mumkin.

10. Agar atoqli ot matnda turli xil variantlarda ishlatilsa, - uning shakliy farqli variantlarini o‘tkazishda ismlarning umumiyligini saqlashni tekshirish. Bundan tashqari, tarjimon ixtiyorida Atoqli otlarning variativligini cheklash usuli mavjud.

11. Qabul qiluvchi til matnida atoqli otning mazmuniy tuzilmasining muhim jihatlarini saqlashni tekshirish. Matnning mazmuniy va madaniy-pragmatik jihatlarini tahlil qilib, ularning qanchalik ahamiyatli ekanligini aniqlash kerak. Ularni o‘tkazish zarurligini aniqlashda tarjimon ixtiyorida semantik ekspilaktsiya usullari mavjud.

12. Atoqli otning ichki shakli mavjudligini va uning kontekst va nutqiy vaziyatdagi dolzarbligini tekshirish. Atoqli otning ichki shaklini o‘tkazishning dolzarbligi va ustuvorligi haqida qaror qabul qilish kerak. Bu maqsadda tarjimon ixtiyorida bir qator usullar, birinchi navbatda, kalkalash usuli mavjud. Ichki shaklni o‘tkazishdan voz kechish holatida formal o‘xshashlik usullari, ichki shaklni almashtirish (analogdan foydalanish) va boshqa usullar qo‘llanilishi mumkin.

13. Tanlangan muvofiqlik bilan matnni barcha ma'no va pragmatik omillarni hisobga olgan holda originalga ekvivalentligi nuqtai nazaridan tahlil qilish. Tarjima matnining aniqlovchi darajalari aloqa maqsadlaridan boshlab, eng yuqori darajalardir. Ba'zi hollarda original ma'no tuzilmasining ma'lum elementlarini takrorlash aloqa uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, bu esa aloqa uchun muhim bo‘lgan mazmuniy jihatlar atoqli otni umuman o‘tkazmasdan, deonimizatsiya yoki o‘rnini almashtirish usuli bilan o‘tkaziladigan matnlarni tarjima qilishni ma'qullaydi [Yermolovich 2005: 36-38].

Biz SamDCHI “Tarjimonlik” fakulteti talabalari o‘rtasida sotsiolingvistik tahlil o‘tkazishga harakat qildik va yozma tarjima topshirig'i doirasida bajarilgan turistik matnning bir parchasini bir necha tarjima variantlarini tahlil qilib chiqdik. Ushbu tahlilda tarjimaning turli xil yechimlari mavjudligini ko'rsatish, atoqli otlarni tarjima qilishda aniq qoidalar va talablarsiz noaniqlik, sub'ektivlik tufayli turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatishni maqsad qilib oldik.

Asl nusxa: Ikki kunlik sayohat davomida sayyohlar Buxoroning tarixiy obidalari, boy an’anaviy merosi hamda bir-biriga qo‘shilib ketgan ko‘chalariga tashrif buyurib, Labi hovuz, Minorai kalon, Buxoro zindoni, Yetti pir ziyoratgohi, Shayboniy hukmdorlar maqbaralari, Sitora-i Mohi Xossa, Ark va shunga o‘xshash ko‘plab tarixiy qadamjoylar bilan tanishadilar.

1- Tarjima: During the two-day trip, tourists will visit the historical monuments of Bukhara, its rich traditional heritage, and its interconnected streets, becoming acquainted with many historical sites such as Lab-i Houz, the

Kalyan Minaret, the Bukhara prison, the Seven Saints pilgrimage site, the mausoleums of Shaybanid rulers, Sitorai Mohi Khosa, the Ark, and many others.

2- Tarjima: During the two-day trip, travellers visit the historical monuments of Bukhara, its rich traditional heritage, and intertwined streets. They will explore numerous historical sites such as Lyabi Hauz, the Kalyan Minaret, Bukhara prison, the Seven Pirs shrine, the tombs of the Shaybanid rulers, Sitorai Mohi Hossa, the Ark, and many other historical landmarks.

3- Tarjima: During the two-day trip, the foreigners visit Bukhara's historical landmarks, rich traditional heritage, and interconnected streets. They will explore sites such as Lyabi Hauz, the Kalon Minaret, the Bukhara dungeon, the Seven Saints shrine, the mausoleums of the Shaybanid rulers, the Sitorai Mohi Khosa palace, the Ark fortress, and many other historical places.

4- Tarjima: During the two-day trip, the tourists visit Bukhara's historical monuments, rich traditional heritage, and interconnected streets, including Labi Hovuz, Kalyan Minaret, Bukhara prison, the Shrine of the Seven Pirs, The Shaybanid rulers' mausoleums, Sitora-i Mohi Khossa, the Ark, and many other historical landmarks.

Matnning asl nusxasida quyidagi toponimlar mavjud:

- aholi punktlari (shaharlar): Buxoro
- mikrotoponimlar (markaziy maydon, me'moriy inshoot, tarixiy muzey, ziyoratgoh, maqbara, saroy va qal'a nomlari): Labi hovuz, Minorai kalon, Buxoro zindoni, Yetti pir ziyoratgohi, Shayboniy hukmdorlar maqbaralari, Sitora-i Mohi Xossa, Ark

Yuqorida taklif qilingan tarjima variantlari atoqli otlarni tarjima qilishda quyidagi variativlikni namoyish etadi:

- transkriptsiya: Lab-i Houz, Sitorai Mohi Khosa;
- transpozitsiya: Bukhara, The Bukhara prison, The Shaybanid rulers mausoleums;
- transpozitsiya + transkriptsiya + transliteratsiya: The Seven Pirs shrine;
- amaliy transkriptsiyada transliteratsiya: Sitora-i Mohi Khossa, The Ark;
- tarjima matnida asl shaklni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish: the Ark;
- aniqlovchi tarjima bilan kalkalash/transkriptsiya: The Sitorai Mohi Khosa palace, The Ark fortress;
- kalkalash: The tombs of the Shaybanid rulers;
- transkripsiya + to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish: Labi Hovuz.

An'anaviy tarjimalarning ayrim xatoliklari tarjimonning yetarli bilimga ega emasligi yoki noaniqlikdan kelib chiqadi. Ammo, ayrim hollarda parallel variantlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu matn parchasiga nisbatan tarjima yechimlarini topish mantiqini ko'rib chiqamiz.

Mazkur o'ziga jalb qiladigan matnining tarjimasidagi pragmatik maqsad ingliz va ruszabon turistlarni tadbirlarga jalb qilish va ularning qiziqishini oshirishdan iborat. Hikoya shaklining yengilligi, reklama elementlari bilan to'yingan o'ynoqi ohang va oddiy turistlarga mo'ljallanganligi (maxsus

sayohatlar yoki safarlarda ixtisoslashmagan) turistlarni jalb qilishga va yangi/yetib kelgan joylar haqida qulay ma'lumot olishlariga qaratilgan.

Tarjima matnini o'qiyotgan ingliz tilida so'zlashuvchi turist murakkab yoki tushunarsiz matn elementlari bilan duch kelmasligi kerak va matnni to'g'ri tushunish uchun qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilmasligi lozim. Aks holda, maqsad qilingan kommunikativ effekt va asl matnning marketing qiymati yo'qoladi.

Matnning aniq va ravshan bo'lishi, shuningdek, turistlarni qiziqtirish va jalb qilish uchun ma'lumotlarning qulay va tushunarli tarzda taqdim etilishi muhimdir. Bu yangi va noma'lum joylar yoki allaqachon ma'lum bo'lgan sayyohlik joylari haqida ma'lumot olishni osonlashtiradi va sayyohat qilish istagini oshiradi.

Tarjima jarayonida matnning mahalliy komponentlarini, ya'ni turistlarga mahalliy va xorijiy madaniy muhitga bemalol kirish va yo'nalishni topishda yordam beradigan jug'rofiy xususiyatlarni hisobga olish zarur. Shunday qilib, tarjimon quyidagi "ishchi yondashuvlar"dan foydalanishi mumkin va kerak:

1. Mahalliy joy nomlarini turistlar uchun tushunarli bo'lishi uchun aniqlik bilan tarjima qilish;

2. To'ponimlarni tarjima qilishda mavjud va keng tarqalgan ekvivalentlardan foydalanish yoki turistik marshrutlar bo'yicha xaritada ko'rsatilgan nomlarni tanlash;

3. Mikroto'ponimlarga nisbatan amaliy transkripsiyani transliteratsiya bilan birga qo'llash;

4. Yoqimli eshitiladigan va oson esda qoladigan ekvivalentlarni tanlashga harakat qilish;

5. Matnni ortiqcha parallel tarjimalar va asl nomlar bilan to'ldirmaslik;

6. Tarjima buyurtmasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish. Shu orqali tarjima sifati va samaradorligini oshirish mumkin. Misol uchun, ikki xil tarjima buyurtmasini tahlil qilamiz:

6.1. Turistik agentlik turistlar uchun bosma yoki elektron tadbirlar katalogini yaratish maqsadida matn tarjimasi bo'yicha buyurtma bergan deb tasavvur qilinsa, tarjima quyidagicha bo'lishi mumkin:

Выходные в Заамине!

Приглашаем Вас отдохнуть от городской суеты, уединиться с горами и природой Заамина, где свежий чистый воздух.

По ходу поездки мы посетим:

- Зааминское водохранилище

- Древнюю орешину Бобоёнгок

- Горный источник Шербулок

- Тысячелетнюю Арчу

- Новый подвесной мост

- Канатную дорогу

А так же будет дегустация Зааминского Казан патыра! [https://uzbekistan.travel/ru/i/zaamin/]

Bunday holda, tarjima matnida so'zlarning quloqqa yoqimli eshitilishi, ma'lumotni qabul qilish qulayligi va janr konventsiyalariga muvofiqlikni saqlash muhimdir. Rus tilida "*Zomin*" shahri uchun allaqachon o'rnatilgan ekvivalent "*Заамин*" mavjud, shunga ko'ra tarjimada "*Zomin*" ni transkripsiya qilish o'rniga, "*Заамин*" deb kalkalashtirsak to'g'ri bo'ladi. "*Sherbuloq*" misolida biz chashma nomi bilan ishlayapmiz, shuning uchun tarjimada "*Шербулок*" kabi o'rnatilgan ekvivalenti transliteratsiya birikmasidan foydalanish lozim.

"*Boboyong'oq*" qadimiy daraxtning nomi va uning rus tilida ma'lum ekvivalentlari yo'q, bundan tashqari, bu joy O'zbekistonning mashhur, diqqatga sazovor joylariga kirmaydi, shuning uchun nomni transkripsiya qilish rus tilidagi matn qabul qiluvchisi uchun bu joy haqida aniq tasavvur bermaydi. Bu holda, bizning fikrimizcha, tarjima-qayd qilish afzalroq - "*Древнюю орешину Бобоёнгок*".

6.1.1. Agar ushbu ma'lumot bilan qiziqqan va tadbirda ishtirok etishni xohlagan xususiy mijoz-turistlar tomonidan tarjima buyurtmasi berilgan deb faraz qilsak, tarjima quyidagicha bo'lishi mumkin:

Выходные в Заамине (Zomin)!

Приглашаем Вас отдохнуть от городской суеты, уединиться с горами и природой Заамина, где свежий чистый воздух.

По ходу поездки мы посетим:

- Зааминское водохранилище

- Древнюю орешину Бобоёнгок (Boboyong'oq)

- Горный источник Шербулок (Sherbuloq)

- Тысячелетнюю Арчу

- Новый подвесной мост

- Канатную дорогу

6.2. Turistik agentlik tomonidan matn tarjimasi bo'yicha buyurtma berilgan deb tasavvur qilinsa, tarjima quyidagicha bo'lishi mumkin:

Asl nusxa*: When you are in the United Kingdom, be sure to visit Windsor Castle, Stonehenge, and Cairngorms National Park. Windsor Castle, the second home of the Queen of England, will amaze you with its beautiful architecture and historical significance. Then, visit the mysterious Stonehenge monument, where the mysteries of this place will captivate you. After that, discover the stunning natural landscapes and rich wildlife of Cairngorms National Park. Each of these locations offers you the opportunity to explore the historical and natural treasures of the United Kingdom [https://www.visitengland.com/things-to-do/days-out-in-england]. Tarjimasi: Buyuk Britaniyada bo'lganingizda albatta Vindzor qal'asi, Stounhenj va Kerngorm milliy bog'iga tashrif buyuring. Vindzor qal'asi, Angliya qirolichasining ikkinchi uyi bo'lib, uning go'zal arxitekturasi va tarixiy ahamiyati sizni hayratda qoldiradi. Keyin, sirli Stounhenj tarixiy obidasini ziyorat qiling, bu joyning sir-asrorlari sizni o'ziga jalb qiladi. Shundan so'ng, Kerngorm milliy bog'ida ajoyib tabiiy manzaralar va boy yovvoyi tabiatni kashf eting. Ushbu joylarning har biri sizga Buyuk Britaniyaning tarixiy va tabiiy boyliklarini o'rganish imkonini beradi.*

Quyidagi tarjimada O‘zbek tilida "*Great Britain*" davlati uchun allaqachon o'rnatilgan ekvivalent "*Buyuk Britaniya*" mavjud, shunga ko'ra tarjimada kalkalashtirish orqali "*Buyuk Britaniya*" deb bersak to'g'ri bo'ladi. *Kerngorm* misolida biz milliy bog‘ nomini transliteratsiya va transkripsiyadan foydalanib tarjima qildik.

“Windsor Castle” va “*Stonehenge”ning* o'zbek tilida ma'lum ekvivalentlari yo'q, shuning uchun nomni transkripsiya qilish o'zbek tilidagi matn qabul qiluvchisi uchun bu joy haqida aniq tasavvur bermaydi. Bu holda, bizning fikrimizcha, tarjima-izoh berish afzalroq – " *Vindzor qal'asi, Angliya qirolichasining ikkinchi uyi* ", “*Stounhenj tarixiy obidasi*”.

6.2.1 Agarda bo‘lajak sayyohlar tomonidan tarjima buyurtmasi berilgan deb faraz qilsak, tarjima quyidagicha bo'lishi mumkin:

Buyuk Britaniyada bo'lganingizda albatta Vindzor qal'asi (Windsor Castle), Stounhenj (Stonehenge) va Kerngorm (Cairngorms) milliy bog‘iga tashrif buyuring. Vindzor qal'asi, Angliya qirolichasining ikkinchi uyi bo'lib, uning go'zal arxitekturasi va tarixiy ahamiyati sizni hayratda qoldiradi. Keyin, sirli Stounhenjni ziyorat qiling, bu joyning sir-asrorlari sizni o'ziga jalb qiladi. Shundan so'ng, Kerngorm milliy bog'ida ajoyib tabiiy manzaralar va boy yovvoyi tabiatni kashf eting. Ushbu joylarning har biri sizga Buyuk Britaniyaning tarixiy va tabiiy boyliklarini o'rganish imkonini beradi.

Matn tarjimasi buyurtmasi sayohatchining ma'lumot bilan norasmiy tanishuvi va tadbirda ishtirok etish ehtimoli uchun mo'ljallanganligini hisobga olib, tarjima matnida asl nomlarni saqlab qolish mantiqiydir. Bu sayohatchiga marshrutni yaxshiroq tasavvur qilish va joyni topishda yordam beradi. Bunday holda, sayohatchida matnda keltirilgan nomlarni ko'rsatkichlarda tanib olish va ularni to'g'ri talaffuz qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Keltirilgan tarjima qarorlari yana bir bor tarjimaning vaziyatga bog‘liqligi va toponimlar tarjimasida bir ma'nolilikning yo'qligini tasdiqlaydi.

O'zbek, rus va ingliz tillarida toponimik leksika keng qo'llaniladi, ayniqsa madaniy va ma'rifiy turistik yo'nalishlar matnlarida, shahar infratuzilmasi ob'ektlarini nomlashda. Shu sababli, biz ushbu tillarda toponimik nomlarni tarjima qilish qoidalarini ishlab chiqishni taklif etamiz. Mintaqaning "vizit kartasi" quyidagi toponimik nomlar guruhlari orqali shakllanadi:

1) Tarixiy hodisalar va shaxslar;
2) Madaniy tadbirlar va bayramlar;
3) Diqqatga sazovor joylar:
   - tabiiy
   - arxitektura
   - ma'rifiy
   - madaniy
4) Hududiy joylashuv va xaritalar;
5) Ijtimoiy ob'ektlar:
   - ko'ngilochar joylar;
   - ovqatlanish maskanlari;

- dam olish joylari;
- savdo markazlari;
- transport xizmati ob'ektlari;
- korxonalar.

6) Shahar navigatsiyasi ob'ektlari.

1. Shahar yo'llari, tarixiy hududlar, aholi punktlari va manzillar nomlarini tarjima qilishda Lonely Planet nashriyotining Markaziy Osiyo haqida ingliz tilida chiqarilgan kitoblarini tahlilga tortdik.

O'zbekistonda onomastikani tarjima qilishning tipik muammolaridan biri bu so'zlar "viloyat" va "tuman" terminlaridir, chunki O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi shahar va viloyat tumanlarini o'z ichiga oladi. Ingliz va rus tillarida ushbu terminlarning ekvivalentlari mavjud: *viloyat – область, район, регион, окрестность – region, district, oblast, southland* (esk. janubdagi mamlakat yoki viloyat), *outfield* (Shotlandiya: uzoqdagi, notekis ishlanadigan yer uchastkasi; yaylov), *punctum* (kichik hudud), *no go area* (taqiqlangan hudud; kirish uchun maxsus ruxsat talab qilinadigan tuman (ayniqsa Shimoliy Irlandiyada)), *Dane-law* (tarixiy: Shimoliy-sharqiy Angliyadagi Daniya qonunlari amal qiladigan hudud), *canton* (Shveytsariyadagi okrug), *province* (provinsiya mamlakat yoki davlat ichidagi hududiy birlik bo‘lib, deyarli har doim ma'muriy bo‘linma hisoblanadi. Bu o‘z mahalliy hukumati bo‘lgan jug‘rofik hudud bo‘lishi mumkin va ko‘pincha markaziy hukumatdan ma'lum darajada siyosiy hokimiyat va avtonomiyaga ega bo‘ladi. Ba'zi mamlakatlarda "province" atamasi boshqa atamalar, masalan, "state" yoki "region" bilan almashtirib ishlatilishi mumkin).

"Province" termini o'zbek tilidagi "viloyat" so'ziga yaqinroq ma'noga ega eng keng tarqalgan va eng aniq variant hisoblanadi. Rasmiy huquqiy hujjatlarni tarjima qilishda umumiy ot bilan birga atoqli otni tarjima qilishda amaliy transkripsiyadan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, "Andijon viloyati"ni "Andijan province" deb tarjima qilish mumkin: *Andijan province, the most densely settled part of the valley, is today Uzbekistan’s main oil-producing region* [Mayhew 1999: 289] Boshqa hollarda, kontekst yoki qo'llanish an'analariga qarab "region" ekvivalenti tanlanadi. "province" so'zi juda rasmiy bo'lib tuyulsa, "region" so'zini ishlatish mumkin. Masalan, "Samarqand viloyati"ni "*Samarkand region*" deb tarjima qilish mumkin.

O'zbekiston viloyatlarini ingliz tiliga tarjima qilishda, matnning konteksti va maqsadli auditoriyani hisobga olish kerak. Masalan, rasmiy hujjatlarda "province" va "region" so'zini ishlatish maqsadga muvofiqroq bo'lsa, turistik matnlarda viloyat nomini o'zini ishlatish mumkin.

"Tuman" termini haqida gap ketganda, shahar va viloyat tumanlariga nisbatan qo‘llanish amaliyoti ingliz tilida "district" va “town” ekvivalentidan, rus tilida “район” ekvivalentidan foydalanish foydali ekanligini ko‘rsatadi.

O'zbekiston viloyatlarini rus tiliga tarjima qilishda allaqachon o'rnatilgan mavjud ekvivalent “область” termini qo'llaniladi, atoqli otga rus tiliga xos –

ская qo‘shimchasini qo‘shish orqali. Masalan, *Бухарская область, Наманганская область*.

Tuman yoki viloyat nomini uzatish masalasi hamon muammoli va turlicha yechimlarga ega. Mumkin bo‘lgan variantlar:

1. Transkripsiya va transliteratsiya aralashmasi – Andijan province or region; Narpay town

2. Yarim kalkalab tarjima qilish, tarjima tilining grammatik me’yoriga moslashtirish, rus tiliga tarjima qilinganda – Андижанская область; Нарпайский район;

3. Transliteratsiya vositasida “region”, “town”, “область” va “район” terminlari tushirilgan holda: Andijan, Shakhimardan – Бухара, Наваи.

Variant (1, 2), aytilganidek, rasmiy matnlarni (shaxsiy va ma'muriy hujjatlar, xaritalar, navigatorlar, shahar rejasi va hokazo) tarjima qilishda samarali va afzal hisoblanadi.

Variant (2) faqat allaqachon o‘rnatilgan ekvivalent mavjud bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Masalan, Ташкентская область, Шахимарданский район.

Variant (3) hozirgi kunda ingliz tilida so‘zlashuvchi qabul qiluvchilar uchun eng tushunarli variant sifatida o‘zini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda:

Ma'muriy birlik	Turistik va rasmiy matnlarda mos kelishi	Misol
Viloyat	Province, region - область	Bukhara region Самаркандская область
Tuman	Town – район	Shakhrisabz town – Маргиланский район

1.1 Ko'chalar, mahallalar, manzillar nomlari rasmiy hujjatlarda har doim rus tilidagi "улица" va ingliz tilidagi "street" yoki qisqartirilgan “str.” so'zlarini o'z ichiga olgan holda transkripsiya qilinadi. Masalan, улица Махмуда Кашгари 58 – Str. Mirzo Ulugbek 21.

Olib borilgan tahlil natijasiga ko‘ra kitobning ingliz tilida O‘zbekiston haqidagi qismida 327 ta ko‘cha nomi ta’kidlangan bo‘lib, shular ichidan 132 tasi ko‘cha nomi va “ko‘chasi” so‘zini transkriptsiya qilish orqali berilgan. Masalan, *The airport is 4km north of the bazar, along Akademik Abdullayev kuchasi* [Mayhew 1999].

Qolgan 195 ta ko‘chalar nomi "street" va “ko‘chasi” so‘zlarini tushirib qoldirgan holda transkriptsiya va transliteratsiya yordamida tarjima qilingan. Masalan, *On Kosh –hauz behind the Registan is the peaceful, run-down Kosh-hauz Mosque* [Mayhew 1999].

2. Aeroportlar, parklar, temir yo‘llar, ko‘priklar nomlarini uzatish. Bunday nomlarni uzatish ob'ekt nomining tarjimasini ham, transkripsiyasini ham o'z ichiga oladi:

Aeroportlar: ***Tashkent International Airport****, the country’s main gateway, unquestionably takes the lead among other airports in Uzbekistan. Modern airliners of Uzbekistan Airways leave the airport for European, Asian and*

American countries as well as many CIS cities [http://www.uzbekistan-airlines.de/?page_id=109]; *Международный аэропорт* ***«Самарканд»*** *постепенно становится одним из важных пунктов международных транзитных маршрутов* [http://www.uzbekistan-airlines.de/ru/?page_id=170].

Parklar: *Routes and weaves of the* ***Anhor Lokomotiv Park*** *in Tashkent guarantee an unlimited choice of entertainment for a different taste and age; On the site of the old zoo, at the intersection of Abdulla Kadiri and Makhtumkuli streets, there is* ***Tashkent Central eco-park****, named after Bobur; For the residents of the capital of Uzbekistan, one of the most loved and popular places is the* ***Tashkent-Land amusement park****;* ***Gafur Gulyam Culture and Recreation Park*** *was established in 1967;* ***Mirzo Ulugbek Park****, the former* ***Telman Park*** *is one of the oldest and most fascinating parks in Tashkent;* ***Tashkent National Park named after A. Navoi*** *is one of the largest city parks in the country; A new* ***Park Ashkhabad****, which opened its doors to guests and residents of the capital only recently is worth visiting. On April 23, 2018, the* ***Ashkhabad Park*** *started its work* [https://people-travels.com/countries/uzbekistan-additional/tashkent-parks-and-gardens];
Самый известный парк Самарканда – центральный. Он носит имя ***Алишера Навои****. Здесь много деревьев и скамеек* [https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/samarkand.htm].

Temir yo'llar: *Today* ***Tashkent Northern Railway Station*** *is the large transport hub, mainly engaged in the regional and international transportation of passengers* [https://www.advantour.com/uzbekistan/tashkent/railway-station.htm]; ***Южный железнодорожный вокзал*** *г.Ташкента находится по адресу: Узбекистан, 100070, Ташкент, Яккасарайский район, ул. Ш.Руставели [https://www.goldenpages.uz/company/?Id=74796]*

Ko'priklar: *One of the Termez attractions is the famous* ***Friendship Bridge****, the only one on the southern border between Uzbekistan and Afghanistan connecting Termez with Hayraton, the Afghan port* [https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/friendship-bridge/]; *Длина нового* ***Зааминского подвесного моста*** *составляет 305 метра, а высота от земли – 150 метра* [https://www.uzdaily.uz/ru/post/82398].

3. Diqqatga sazovor joylar, o'quv yurtlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar, savdo va jamoat ovqatlanish ob'ektlari, joylashtirish ob'ektlari va vositalari, transport, ma'muriy xizmatlar nomlarini uzatish.

3.1 Diqqatga sazovor joylar (madaniy yodgorliklar) nomlarini uzatishda atoqli otlarni transpozitsiya+transliteratsiya orqali tarjima qilishga murojaat qilinadi. Dominant ob'ektlar uchun tarjimaga qo'shimcha ravishda nomning kalkasi qavs ichida keltirilishi mumkin: ***Площадь Регистан****, «сердце» древнего Самарканда — наверное, самая известная достопримечательность города, да и всей Средней Азии. Пожалуй, трудно встретить место столь же красивое, сколь и исторически важное; Наверное, нет в славном и старом городе Самарканде места,*

которое бы более полно отражало многочисленные вехи его бурной и долгой истории как ***мемориальный комплекс Шахи Зинда*** [https://tonkosti.ru]; *The beautiful portal and trademark fluted azure dome of the* ***Gur-e-Amir Mausoleum*** *marks the final resting place of Timur (Tamerlane), along with two sons and two grandsons (including Ulugbek); The enormous congregational* ***Bibi-Khanym Mosque****, northeast of the* ***Registan****, was financed from the spoils of Timur's invasion of India and must have been the jewel of his empire* [Mayhew 1999]*; The entrance portal of the* ***Sher Dor (Lion) Medressa****, opposite* ***Ulugbek's*** *and finished in 1636, is decorated with roaring felines that look like tigers but are ment to be lions, flouting Islamic prohibitions against the depiction of live animals. In between is* ***the Tilla-Kari (Gold-Covered) Medressa****, completed in 1660, with a pleasant, garden-like mosque courtyard* [Mayhew 2020].

Oxirgi ikkita misolimizda muallif kalkalash usulini qo'llaganining guvohi bo'lamiz. Ushbu usul yuqorida aytib o'tganimizdek xorijlik sayyohlarga yaxshiroq taasurot beradi va ushbu joyni ziyorat qilishga katta qiziqish uyg'otadi.

3.2 "Biror narsa yoki kimnidir" yodgorligi nomlari odatda rus tilida "Памятник" va "Monument" so'zi bilan birgalikda ingliz tilida tarjima qilinadi, bunda atoqli ot bosh kelishigda keltiriladi. *В плане сквер представляет собой радиально-кольцевую систему планировки: 8 аллей парка дают начало 8 улицам, ориентированным по частям света и веером расходящиеся от памятника* ***Амира Темура****, пересекаясь с кольцевыми улицами* [http://myday.uz/pamyatniki/pamyatnik-amira-temura]. *A bronze monument to* ***Islam Karimov*** *stands on a high pedestal near the Palace* [https://uzbekistan.travel/en/o/islam-karimov-museum/].

3.3 Masjidlar va cherkovlarning nomlarini tarjima qilishda diniy an'analarning madaniy farqlarini hisobga olish kerak. Turli diniy madaniyatlarda bir xil yoki o'xshash ibodat joylari mavjud bo'lsa, tarjima jarayonida allaqachon mavjud bo'lgan nomlarni hisobga olish zarur. Odatda, ibodat joylari nomlari transkriptsiya va transliteratsiya usuli bilan tarjima qilinadi.

O'zbekistondagi masjidlar islom dini bilan bog'liq bo'lganligi sababli, masjid nomlarini tarjima qilishda, shuningdek, islom an'analarini ham hisobga olish lozim. Masjid nomlari odatda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi va qavs ichida asl nomining transkripsiyasi yoki transliteratsiyasi keltiriladi.

Across Shahizinda ko'chasi from the Siob Bazaar, the ***Hazrat-Hizr Mosque*** *occupies a hill on the fringes of Afrosiab; The small, 19th-century* ***Imon Mosque*** *has an open porch, tall carved columns and a brightly restored ceiling. Respectfully dressed visitors are always welcome; The lovely* ***Hoja-Nisbatdor Mosque****, a 15 minutes' walk south of the Registan, has a large aivan embraced by walls inlaid with beautifully restored ghanch (carved alabaster); The gloriously faded* ***Qoraboy Oqsoqol Mosque*** *is hidden down an alley just off Abu Laiz Samarkandi ko'chasi in the old Jewish Quarter of the Old Town; It's impossible to miss the handsome gold onion domes, pastel blue walls and 50m*

bell tower of the impressive ***Assumption Cathedral****. Built in 1958 and renovated in the 1990s, this is the biggest of the four Orthodox churches in Tashkent [Mayhew 2020]; С XV века по настоящее время мечеть носит имя одного из суфийских лидеров восточного средневековья –* ***Ходжи Ахрара Вали****, который преподнес в дар городу здание, построенное на фундаменте старой* ***Джума-мечети*** *(джума-мечеть – пятничная мечеть) в 1451 году* [https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/tashkent/khoja-ahrar-mosque.htm].

Oxirgi misolimizda (rus tilida tarjima qilganda) muallif qavs ichida kalkalash va transpositsiya keltirilganini ko‘ramiz.

3.4 Kafelar, mehmonxonalar va savdo markazlari nomlari ko'pincha ingliz yoki boshqa xorijiy tillarda bo'ladi. Tarjimada bunday nomlarni asl holatda saqlash tavsiya etiladi:

Hotel "Dedeman Silk Road Tashkent"*, new four-star hotel was unveiled in May 2003; or three decades* ***Hotel "Uzbekistan"*** *has been cordially accepting visitors from all over the world, demonstrating a combination of high quality services along with Eastern hospitality;* ***The City Palace Hotel*** *offers 251 beautifully furnished Guest Rooms, including 7 fully equipped Executive Suites and an elegant Presidential Suite* [https://uzbekistan-hotels.pagetour.org/]; ***Гостиница Orient Star*** *расположена в городе Самарканд в 2 км от центра* [https://travel.yandex.ru/hotels/samarkand/orient-star/].

Boshqa hollarda nomlar transkripsiya qilinadi. Mehmonxonalar nomlari murakkab bo'lgan hollarda, ularni transkripsiya qilingan shaklda qabul qilish qiyin bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, yozma muloqotda nomlar har qanday holatda ham transkripsiya qilinadi, og‘zaki muloqotda esa tushunarliroq bo‘lishi uchun tarjima-izoh ishlatilishi mumkin:

The fee included all accommodations: one night at the ***Zarafshon Boutique Hotel*** *in Khiva, two at the* ***Amelia Boutique Hotel*** *in Bukhara, two at the* ***Grand Samarkand Superior Hotel*** *in Samarkand and a final one at the* ***Inspira-S Hotel*** *in Tashkent* [https://www.lonelyplanet.com/articles/total-trip-6-days-group-tour-uzbekistan].

Mehmonxonalar nomlarini tarjima qilish tavsiya etilmaydi, masalan, "Big Apple Hostel" o‘zbek tilida "Katta Olma Hosteli" yoki rus tilida “Хостел Большое Яблоко” deb tarjima qilinadi. Bizningcha bunday tarjima kulgili chiqadi va chalkashliklarga olib keladi. Mehmonxona tarjimasida transkripsiya qilingan variant yoki asl yozuv shaklida bergan ma’qul, lekin to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, chunki bunday holatda boshqa mamlakat yoki shaharda shunday nomdagi mehmonxona bilan chalkashlik yuzaga kelishi mumkin.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarjimonlar atoqli otlarni tarjima qilishda madaniyatlararo aloqalarning muhimligini hisobga olishlari va usullarni birlashtirib, turli vaziyatlarga moslashtirilgan yechimlarni topishlari kerak. Onomastikani tarjima qilishdagi qiyinchiliklar esa hali ham tadqiqot va tarjima sohasida muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Helleland, Botolv (2012). Place Names and Identities. Oslo Studies in Language 4 (2), pp. 95–116.
2. Kostanski, Laura (2016). Toponymic Attachment. In: C. Hough, ed, The Oxford Handbook of Names and Naming, Oxford: Oxford University Press, pp. 412–426.
3. Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – T., 2023. – B. 180.
4. Merkaj L. TOURIST COMMUNICATION: A SPECIALIZED DISCOURSE WITH DIFFICULTIES IN TRANSLATION. European Scientific Journal December 2013 /SPECIAL/ edition vol.2 ISSN: 1857 – 7881
www.czech-travel.cz
https://daryo.uz/2021/07/17/buxorodagi-7-ta-tarixiy-obida-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi
https://uzbekistan.travel/ru/i/zaamin/
https://www.visitengland.com/things-to-do/days-out-in-england
http://www.uzbekistan-airlines.de/?page_id=109
http://www.uzbekistan-airlines.de/ru/?page_id=170
https://people-travels.com/countries/uzbekistan-additional/tashkent-parks-and-gardens
https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/samarkand.htm
https://www.advantour.com/uzbekistan/tashkent/railway-station.htm
https://www.goldenpages.uz/company/?Id=74796
https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/monuments/friendship-bridge/
https://www.uzdaily.uz/ru/post/82398
https://uzbekistan.travel/en/o/islam-karimov-museum/
https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/tashkent/khoja-ahrar-mosque.htm
https://travel.yandex.ru/hotels/samarkand/orient-star/
https://www.lonelyplanet.com/articles/total-trip-6-days-group-tour-uzbekistan

TIL, TA'LIM, TARJIMA
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Yuldasheva Dilshoda,
doctoral student (DSc),
Samarkand State University,
Samarkand, Uzbekistan
dilshoda.yu@mail.ru

THE KEY TO CONSCIOUSNESS IS LANGUAGE. NOAM CHOMSKY'S MAIN THEORIES ON LINGUISTICS

ABSTRACT

Noam Chomsky's theoretical writings on the concept of "linguistic competence" are analyzed. Summarized and clarified responses to concerns about the essence of linguistic competence, how it is gained, and how to apply it. In addition, the contribution of the great scientist Noam Chomsky to cognitive linguistics is assessed and his theory of generative grammar is considered. This theory of a hard-coded genetic ability for language has gained widespread acceptance in the scientific community. It is safe to assume that universal grammar does not consist of specific syntactic rules, but is most likely a fundamental cognitive function. Chomsky postulated that at some point in history, humans developed the ability to perform a simple recursive process called "fusion", and this process is responsible for the properties and limitations of syntactic structures in human languages.

Key words: Noam Chomsky, language competence, language, thinking, generative grammar, Eduard Sapir, cognitive linguistics, concept, ideology, language acquisition.

Юлдашева Дилшода,
Докторант (DSc),
Самаркандский государственный университет,
Самарканд, Узбекистан
dilshoda.yu@mail.ru

КЛЮЧОМ К СОЗНАНИЮ ЯВЛЯЕТСЯ ЯЗЫК. ОСНОВНЫЕ ТЕОРИИ НОАМА ХОМСКОГО В ЛИНГВИСТИКИ

АННОТАЦИЯ

Анализируются теоретические труды Ноама Хомского о понятии «лингвистическая компетентность». Обобщенные и уточненные ответы на вопросы о сущности лингвистической компетентности, о том, как она достигается и как ее применять. Кроме того, оценивается вклад великого ученого Ноама Хомского в когнитивную лингвистику и рассматривается его теория порождающей грамматики. Эта теория жестко запрограммированной генетической способности к языку получила широкое признание в научном сообществе. Можно с уверенностью предположить, что универсальная грамматика не состоит из определенных синтаксических правил, а, скорее всего, является фундаментальной когнитивной функцией. Хомский постулировал, что в какой-то момент истории люди развили способность выполнять простой рекурсивный процесс, называемый «слиянием», и этот процесс отвечает за свойства и ограничения синтаксических структур в человеческих языках.

Ключевые слова: Ноам Хомский, языковая компетентность, язык, мышление, порождающая грамматика, Эдуард Сапир, когнитивная лингвистика, концепция, идеология, овладение языком.

Yuldasheva Dilshoda,
Doktorant (DSc),
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
dilshoda.yu@mail.ru

ONGNING KALITI TILDIR. TILSHUNOSLIKDA NOAM XOMSKIYNING ASOSIY QARASHLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada Noam Xomskiyning “lingvistik kompetensiya” tushunchasi haqidagi nazariy ishlari tahlil qilinadi. Lingvistik kompetentsiyaning mohiyati, unga qanday erishiladi va uni qo'llash yo'llari haqidagi savollarga umumlashtirilgan va aniq javoblar. Bundan tashqari, buyuk olim Noam Xomskiyning kognitiv tilshunoslikka qo‘shgan hissasi baholanadi va uning generativ grammatika nazariyasi ko‘rib chiqiladi. Til uchun qattiq kodlangan genetik qobiliyat haqidagi ushbu nazariya ilmiy jamoatchilikda keng e'tirof etilgan. Umumjahon grammatika o'ziga xos sintaktik qoidalardan iborat emas, balki asosiy kognitiv funksiyadir, deb taxmin qilish mumkin. Xomskiy ta'kidlaganidek, tarixning qaysidir davrida odamlarda "fusion" deb nomlangan oddiy rekursiv jarayonni bajarish qobiliyati paydo bo'lgan va bu jarayon inson tillaridagi sintaktik tuzilmalarning xususiyatlari va cheklovlari uchun javobgardir.

Kalit so'zlar: Noam Xomskiy, lingvistik kompetentsiya, til, tafakkur, generativ grammatika, Eduard Sapir, kognitiv lingvistika, kontseptsiya, mafkura, tilni o'zlashtirish.

Introduction

Noam Chomsky, an American linguist, revolutionized science by establishing the generative direction and dividing linguistics into before and after categories. Noam Chomsky was born in 1928 in Philadelphia, Pennsylvania, to a Jewish family. Noam Chomsky has attended the University of Pennsylvania since 1945, where he studied philosophy and linguistics. Zellig Harris, a linguistics professor, was one of his teachers. He was the one who suggested Chomsky to develop a systematic structure for language. Harris' political beliefs had a significant impact on Chomsky.

Chomsky obtained his doctorate from the University of Pennsylvania in 1955, but he spent the previous four years doing most of his study at Harvard University. In his PhD dissertation, he began to formulate some of his linguistic theories, which he built on in Syntactic Structures (1957).

In 1957, a small monograph by a young American scientist entitled "Syntactic Structures" was published. Some prominent linguists have been quick to describe Chomsky's work as "like the Copernican revolution" after which the science of language would never be the same, and as a scientific revolution comparable to the discovery of the kinship of Indo-European languages in the early 19th century or the publication of de Saussure's Course in General Linguistics in 1916. In published and oral memoirs, linguists of the elder generation describe how strong their encounter with "Syntactic Structures" was, changing their notions about language literally in one evening.

Chomsky accepted an offer from the Massachusetts Institute of Technology (MIT) in 1955, and he began teaching linguistics there in 1961.

